

SHOMURODOVA SHAHNOZA
G'AYRATOVNA

O'ZBEKISTON
GEOGRAFIYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHOMURODOVA SHAHNOZA G'AYRATOVNA

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYASI
(*O'quv qo'llanma*)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

10/22/184-

TOSHKENT-2023
«Yangi chirchiq prints»

Shomurodova Sh.G./ O'zbekiston geografiyasi / O'quv-qo'llanma
Toshkent: «Yangi chirchiq prints», 2023. – 208 bet

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekiston hududining tabiiy geografik o'rni, iqlimi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, mamlakatimizdagi muhofaza ostiga olingan hududlar haqida keng yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning turistik obyektlari va ekoturistik salohiyati haqida batafsil bayon qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanma 61010400- Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 61010100-Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, 61010500- Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (illar bo'yicha), shuningdek, geografiya yo'nalishining bakalavrлari, magistrлari va katta ilmiy xodimlari hamda o'qituvchilar uchun mo'lallangan.

Mas'ul muharrir:

Sh.M.Sharipov - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Tabiiy geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.d (DSc).

Taqribchilar:

A.K.Urazboev – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrasi g.f.d.

M.R.Go'dalov – Jizzax davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.f.d (PhD).

M.M.Mahmudov – Perfect universiteti rektori g.f.f.d (PhD).

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagи 391-soni buyrug'iiga asosan nashr etishga ruhsat berilgan.

ISBN 978-9910-9414-6-7

© Shomurodova Sh.G., 2023
©«Yangi chirchiq prints», 2023

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Markaziy Osiyoning marvaridi. Uning tarixiy, madaniy boyliklari, ajoyib tabiat, o'ziga xos an'analar, hatto milliy taomlarigacha bu zaminda turizmni rivojlantirish istiqbollari baland ekanligini ko'rsatib turadi.

Bugungi kunda O'zbekiston hududida ko'plab sayyoqlik maskanlarini tashkil etish mumkin. O'zbek xalqining betakror urfodatlari, me'moriy yodgorliklari, o'ziga xos tabiat, barcha-barchasini o'zida jam etgan turistik loyihalar O'zbekiston turizmining Yevropa bo'ylab targ'ibotiga xizmat qiladi. Chunki, mamlakatimiz katta turistik salohiyatga ega. Bu sohani rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlarimiz mavjud. Qolaversa, yurtimizda ko'plab tabiiy yodgorliklar, ko'hna va betakror obidalar mavjud bo'lib, muhim tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega obyektlar hisoblanadi. Shu bois ularni o'rghanish, muhofaza qilish, kelajak avlodga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarida turizm va geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun bilimlar tizimining eng muhim o'quv fanlaridan biridir.

Bu kursda vatanimiz - O'zbekistonning tabiat resurslari ularning turli tumanligi bir - biriga bog'liqligi tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari, tabiat va tabiiy boyliklarini muhofaza ostiga olish bilan birga Respublikamizning turli hududida tabiatidagi tafovutlarini bilib olish, shuningdek, mamlakatimizning turistik obyektlari, ekoturistik salohiyati haqidagi bilimingizni mustahkamlashda xizmat qiladi.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston tabiatiga umumiy tafsif berilayotganda yer usti xilma-xilligi uning geologik tuzulishi hamda O'zbekiston hududining relyefi uzoq davom etgan murakkab geologik jarayonlar oqibatida shakllanganligiga, relyefning asosiy turlariga, ularning genetik kelib chiqishiga to'xtalamiz. Shuningdek, O'zbekiston iqlimi, iqlim resurslari va ulardan foydalanish, ichki suvlari va respublikamizning turistik obyektlari, turizmning turlari batafsil bayon etiladi.

Ushbu kurs talabalarga olingen bilimlarni amaliyatda qo'llashga o'rgatadi. Turizm va geograf bakalavrilar uchun asosiy o'quv kurslaridan biri hisoblanadi.

§ 1. FANNING OBYEKTI VA PREDMETI. O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI, TABIATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1.O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursining o'rganish obyekti, maqsadi va vazifalari

2. O'zbekistonning geografik o'rni va chegaralari

3.O'zbekistonning tabiati va tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch atamalar: *geografik o'rni, materik, mo'tadil mintaqqa, subtropik mintaqqa, kenglik, havo massalari, tabiiy sharoit.*

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanining o'rganish obyekti O'zbekistonning tabiatni va tabiiy sharoiti hisoblanadi. *Fanning maqsadi:* O'zbekiston tabiiy resurslari, ularning holati, bir-biriga bog'liqligi, tabiiy boyliklari, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza ostiga olish.

O'zbekiston tabiiy geografiyasining vazifalari:

➤ O'zbekiston yer usti tuzilishining xilma-xilligi, geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi, tektonikasi hamda tabiatning boshqa unsurlariga ta'sirini o'rganish;

➤ O'zbekiston relyefining asosiy turlari, ularning genetik kelib chiqishi hamda relyefining shakllanishida Yerning tashqi dinamik jarayonlar ishtirokini aniqlash;

➤ O'zbekistonning iqlimi xususiyatlari, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim unusurlari (harorat, yog'in, namlik, shamol) ning hududiy

taqsimlanishi va ichki suvlari, ularning gidrologik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

➤ O'zbekistonning tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, ularning turlari va tarqalishini o'rganish;

➤ O'zbekiston tabiatи va tabiiy resurslarining holati, ularga ta'sir etuvchi omillar, ulardan oqilona foydalanib muhofaza ostiga olishga qaratilgan chora tadbirlarni aniqlash va o'rganish;

➤ O'zbekistonning turistik obyektlari va ularning tabiiy geografik jihatlarini o'rganadi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo'lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarda joylashgan.

O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoliy-sharqida, Orol dengizi qirg'og'ida $45^{\circ} 36'$ sh.k., eng janubiy chekka nuqtasi - Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida $37^{\circ} 11'$ sh.k., eng g'arbiy nuqtasi - Ustyurt platosida $56^{\circ} 00'$ shq.u. da, eng sharqiy nuqtasi esa O'zbekiston bilan Qirg'iziston chegarasida O'zgan shahri yonida $73^{\circ} 10'$ shq.u. dan o'tadi. O'zbekistonning eng shimoliy va janubiy nuqtalari orasidagi masofa - 930 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtalari orasidagi masofa - 1425 km ni tashkil qiladi.


O'zbekistonning umumiy yer maydoni 448,9 ming km² yoki (44896,9 ming hektar) bo'lib, maydonining kattaligi bo'yicha jahondagi 130 dan ortiq mamlakatlardan oldinda, Mustaqil davlatlar hamdo'stligida esa beshinchi o'rinda (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Turkmanistondan keyin) turadi.

O'zbekiston, Belgiya, Gollandiya va Danya kabi davlatlarning umumiy maydonidan ham 4 marta kattadir, Shvetsarya davlati hududidan 10 marta ortiq.

O'zbekiston shimolda, sharqda va shimoliy-g'arbda tekisliklar va platolar orqali, uning eng chekka janubi-sharqiy qismi Qorjantog' va Ugom tizmalari orqali o'tadi. Sharqda Qirg'iziston bilan chegara esa Piskom, Chotqol tog' tizmalari, Farg'ona va Oloy tog' tizmalarining etaklaridan, Tojikiston bilan esa Qurama, Turkiston, Zarafshon, Hisor tizmalari bo'ylab o'tadi. O'zbekistonning janubiy chegarasi Amudaryo orqali o'tib, uni Afg'onistondan ajrata, g'arbiy va janubi-g'arbiy chegarasi asosan tekislikdan o'tib, O'zbekistonni Turkmanistondan ajratib turadi (1-kartaga qarang). Mamlakatimizning umumiy chegarasini uzunligi 6221 km, shundan 137 km Afg'oniston va O'zbekiston davlatlari chegarasiga tog'ri keladi.

O'zbekiston chegarasining asosiy qismi tekisliklarga to'g'ri kelishi transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun qulaylik tug'diradi. O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai-nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan ancha o'ziga xos geografik-strategik mavqega ega.

I-karta. O'zbekistoning tabiiy geografik kartasi



Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okean mintaqasiga olib boradigan quruqlikdagi yo'llar shu yerda kesishadi. O'rta Osiyo davlatlari Hindiston yarim orolini Rossiya va Yevropa bilan bog'lab turadi. O'zbekiston o'zining mavjud va potensial tabiiy hamda xomashyo zahiralari bilan XXI - asrda dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'tamoqda. O'rta Osiyoning markazi bo'lgan Toshkent, ramziy qilib aytganda "Sharq darvoza"si hisoblanadi. Biroq, tog'li relyefi va hozirgi vaqtida asosiy iqtisodiy aloqalar dengiz transportida olib borilayotganligi oqibatida respublikamizning geografik o'mni qadimgi qulaylikni ancha yo'qotgan. Lekin, kelajakda juda yirik transport samalyotlarining qo'llanilishiga o'tilganda O'zbekiston Yevrosiyo materigining o'rtasida joylashgan geografik o'mni tufayli yana qulay mavqega ega bo'ladi.

Shuningdek, O'rta Yer dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan deyarli bir kenglikda joylashgan bo'lib, iliq okean va dengizlardan uzoqda, materik ichkarisida joylashganligi tufayli tabiiy sharoiti jihatidan butunlay farq qiladi. Chunki, O'zbekiston hududining shimoliy qismi ochiq bo'lib, shimoldan va shimoli-g'arbdan esuvchi sovuq, quruq havo oqimi bema'lol ichki qismlariga yetib keladi. Aksincha, janubda baland tog'larning mavjudligi esa Hind okeanidan esadigan nam va iliq havo massalarini O'zbekiston hududiga o'tishiga yo'l qo'ymaydi, oqibatda subtropikka xos bo'limgan landshaft vujudga kelib, yoz bulutsiz, serostob, jazirama issiq, quruq, qish esa ancha sovuq bo'ladi. O'zbekiston suptropik iqlim mintaqasida joylashgan bo'lsada cho'lga

xos bo'lgan landshaft bilan tavsiflanadi. Faqat atrofi tog'lar bilan o'ralgan Surxon-Sherobod vodiysidagina quruq subtropik landshaft mavjud.

O'zbekistonning tabiat va tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari: O'zbekiston hududi janubiy-sharqdan shimoliy-g'arbg'a qarab cho'zilib o'sha tomonga pasayib boradi. Mamlakatimiz yer yuzasi tuzulishi jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining katta qismi dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tekisliklar va tog' oldi tekisliklaridan iborat. Tekislik yerlari ko'p bo'lishi va bu joylardan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Qashqadaryo kabi daryolarni oqib o'tishi, shuningdek, iqlimning qulayligi, sug'orma dehqonchilikning qadimda rivojlanishiga imkon bergen.

Arxeologlarning ma'lumotiga ko'ra, Surxondaryo, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Farg'ona va Toshkent vohalarida miloddan oldingi 3000-2000 yillarda aholi sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Metall eritib har xil mehnat va ov qurollari, zebu-ziyat buyumlari, oyna va kulolchilik buyumlari tayyorlaganlar va matolar to'qiganlar.

O'zbekistonning geografik joylashuvi qulay bo'lganligi tufayli g'arb bilan sharjni bog'lovchi mashhur "Buyuk Ipak yo'li" o'tgan. Bu esa uni iqtisodiyotini madaniyatini rivojlanishiga sababchi bo'lgan. O'zbekiston tabiiy sharoiti xilma-xil yozda ham qor va muz bilan qoplangan balandligi 4643 m bo'lgan Hazrati Sulton cho'qqisi, dengiz sathidan -12 m Mingbuloq botig'i mavjud.

O'zbekistonning geografik o'miga bog'liq bo'lgan o'ziga xos tabiiy geografik xususiyatlari quydagilardan iborat.

1. O'zbekiston ichki o'lka bo'lib, Yevroсиyo materigining markazida, subtropik va mo'tadil mintaqalarning cho'l zonalarida, subtropik iqlimli O'rta dengiz bo'yи mamlakatlari kengliklarida joylashgan. Ammo, O'zbekistonning tabiiy sharoiti O'rta dengiz bo'yи mamlakatlarinikidan ancha farq qiladi. Chunki, O'zbekiston okean va ochiq dengizlardan juda uzoqda joylashgan. Eng yaqin iliq Hind okeanining ta'siri o'rtada baland tog'lar bo'lgani uchun sezilmaydi. Aksincha, ancha olisda joylashgan Shimoliy Muz okeani hamda Sibirning quruq va sovuq havo massalari O'zbekiston shimolida tabiiy to'siq baland tog'lar bo'lmaganligi uchun bu yerga bemalol kirib keladi. Atlantika okeani va O'rta dengiz juda uzoqda bo'lsa ham g'arbiy shamollar tufayli Respublikamiz tabiatiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

2. O'zbekiston hududi berk o'lka bo'lganligidan bu yerda tipik kontinental iqlim tarkib topgan. Respublika mo'tadil, uning markaziy va janubiy qismlari subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan. O'zbekistonning mo'tadil mintaqadagi qismi Ustyurtda, Orolning qurigan qismida, Amudaryo etagida, Qizilqumda iqlim qurg'oqchil, ancha sovuq. Subtropik mintaqadagi Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida esa yoz quruq, issiq, qish nisbatan iliq bo'ladi. O'zbekiston hududi cho'l, voha, tog' landshaftlaridan iborat. Shuning uchun iqlimda o'ziga xos keskinliklar mavjud. Cho'llarda yog'in miqdori 70-80 mm dan tog'larda 1000 mm gacha boradi. Qishda shimolda 35° - 40° C sovuq, yozda esa janubda 50° C jazirama issiq kunlarni kuzatish mumkin.

3. O'zbekiston hududi berk havzadan ya'ni "oqimsiz o'lkadan" iborat. Daryolarning birontasi ham ochiq dengizlarga yetib bormaydi va ular bilan bog'lanmagan. Bu daryolar respublika hududidagi ko'llarga quyiladi yoki suvi sug'orishga sarflanib, tugab qoladi.

4. Yer yuzining o'ziga xosligi O'zbekiston hududi kelib chiqishi va yoshiga ko'ra murakkab relyefga ega bo'lib, u tekislik va botiqlardan, plato va qirlardan, adirlardan, o'rtacha balandlikdagi tog'lar va doimiy qor va muzliklar bilan qoplangan baland tog'lardan iborat. O'zbekistonda tekislik va tog'lar bir tekisda joylashgan emas. Janubiy, janubi-sharqini tog'lar ishg'ol qilgan. Ularning maydoni O'zbekiston maydonining 21,3% ini tashkil etadi. G'arbda va shimalda tekislik, plato, qirlar joylashgan va respublika maydonining 78,7% ini egallagan. Tog' sistemalari tarmoqlari bilan O'zbekistonning tekislik qismiga kirib borib, uning tabiiy sharoitini shakillanishiga ta'sir ko'rsatgan.

5. O'zbekiston hududi o'ziga xos gorizontal tabiiy zonalarning mavjudligi va ularga mos keladigan balandlik mintaqalarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Tekisliklarda cho'l va chala cho'l landshaftlari rivojlangan. Tog'larda esa cho'l va dashtlardan tortib, baland tog' yaylovlari va nival mintaqalargacha mavjud.

6. O'zbekiston hududining katta qismi tektonik faol va kuchli zilzila rayoni hisoblanadi. Qadimgi tog'larning ko'tarilayotganligi bilan ajralib turadi.

7. O'zbekiston keskin tabiiy tafovutlar o'lkasi. Hududining tarkib topishidan tortib, o'simlik va hayvonot dunyosigacha, tabiatining barcha komponentlari respublika hududining turli qismlarida keskin farq qiladi.

8. O'zbekiston faqat gidrografik berk hudud bo'lib, qolmasdan ekologik sharoiti jihatidan ham berk hududdir. Hech qanday chiqindi respublikamizdan tashqariga chiqib ketmaydi. Bu xususiyat o'lkada xo'jalikning turli sohalarini rivojlantirishda albatta diqqat markazida turishi lozim.

O'zbekiston hududida 12 viloyat va Qoroqolpog'iston Respublikasi joylashgan. Bular Toshkent viloyati (markazi Toshkent shahri), Samarqand viloyati (markazi Samarqand shahri), Navoiy viloyati (markazi Navoiy shahri), Andijon viloyati (markazi Andijon shahri), Farg'ona viloyati (markazi Farg'ona shahri), Namangan viloyati (markazi Namangan shahri), Sirdaryo viloyati (markazi Guliston shahri), Jizzax viloyati (markazi Jizzax shahri), Buxoro viloyati (markazi Buxoro shahri), Qashqadaryo shahri (markazi Qarshi shahri), Surxondaryo viloyati (markazi Termiz shahri), Xorazm viloyati (markazi Urganch shahri), Qoraqolpog'iston Respublikasi (poytaxti Nukus shahri).

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'rta Osiyo tabiiy xaritasidan O'zbekiston Respublikasining geografik o'mini aniqlang va uning boshqa qo'shni Respublikalarning geografik o'mi bilan taq qoslab, qulay hamda noqulay tomonlarini gapirib bering?
2. O'zbekistonning chekka nuqtalarini hamda geografik koordinatalarini xaritadan ko'rsating?
3. O'zbekiston tabiatining o'ziga xos tomonlarini aniqlang?

§2. O'ZBEKISTONNING GEOLOGIK TUZILISHI, SEYSMIKLIGI VA TEKTONIKASI. RELYEFINING ASOSIY XUSUSIYATLARI


Reja:

1. Geologik tuzilishi va tektonikasi
2. O'zbekiston hududining seysmikligi
3. Orografiysi va relyefining asosiy xususiyatlari

Tayanch atamalar: Tektonik struktura, epigersen plitasi, epigersen orogeni, giosinklinal, eona, era, davr, neotektonik, platforma, seysmologik mintqa, geolog tuzilishi, geomorfalogik jarayonlar.

Geologik tuzilishi. O'zbekistonning geologik tuzilishi juda murakkab, uning hududida proterozoy erasidan to to'rtlamchi davrgacha hosil bo'lgan cho'kindi, magmatik va metamorfik tog' jinslari majmui uchraydi. Proterozoy va poleozoy tog' jinslari burmalangan va juda ko'p yoriqlar bilan parchalab yuborilgan. Tog'li hududlarda, qoldiq tog'larda bu tog' jinslari yer yuzasiga chiqadi, Turon plitasining tekisliklarida va tog'lar orasidagi botiqlarda esa bu jinslar katta chuqurliklarda yotadi va ustini mezozoy hamda kaynozoyning cho'kindi tog' jinslari qoplagan.

Proterazoy yotqiziqlari O'zbekistonda Pskom tog' tizmasida, Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida va Markaziy Qizilqumda borligi aniqlangan. Bu yotqiziqlar Pskom tog' tizmasida gneyislardan (350 m), Hisorda gneyislardan, kristallahgan slaneslardan, Markaziy Qizilqumda asosan slaneslardan, gneyislardan, dolomitlardan tashkil topgan. Ularning qalinligi 3000-3500 metrga boradi.



2-karta. O'zbekistonning geologik kartasi

Paleozoy yotqiziqlari turkumi asosan antiklinoriylarning yadrolarida tarqalgan bo'lib, bu eradagi hamma davr yotqiziqlaridan tashkil topgan.

Kembriy yotqiziqlari Turkiston tizmasining g'arbiy chekkasida, Pskom daryosi havzasida, Hisor tog' oldi hududlarida va boshqa yerlarda aniqlangan bo'lib, kuchli metamorfiklashgan kremniyli slaneslardan, kristallahgan ohaktoshlardan, argillitlardan, qumtoshlardan, konglomeratlardan tashkil topgan. Ular qoplaming qalinligi 4000 metrgacha boradi (2-kartaga qarang).

Ordovik yotqiziqlari Turkiston, Zarafshon, Nurota, Ziyovuddin - Zirabuloq tog'larida, Chotqol - Quramaning shimoliy tarmoqlarida aniqlangan. Ular alevrolitlardan, qumtoshlardan, argillitlardan, kvarsitlardan va ohaktoshlardan iborat bo'lib, qoplaming qalinligi 400 - 700 metrni tashkil etadi.

Silur yotqiziqlari paleozoy guruhi yotqiziqlari ichida katta maydonni egallaydi va yotqiziqlarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular Chotqol-Qurama, Turkiston va Hisor tog' tizmalarida, shuningdek, Nurota tog'larida alevrolitlar, qumtoshlar, slaneslar, ohaktoshlar, dolomitlar, marmarlar, konglomeratlarning aralashmasidan tashkil topgan bo'lib, qatlaming qalinligi 3000 metrgacha boradi.

Devon davri yotqiziqlari Chotqol-Qurama, Zirabuloq-Ziyovuddin, Markaziy Qizilqum, Sulton Uvays tog'larida keng tarqalgan bo'lib, asosan karbonatli jinslar-dolomit, ohaktosh, marmar va qattiq mergellardan tashkil topgan. Qatlaming qalinligi 3500 metrgacha boradi.

Toshko'mir davri yotqiziqlarining litologik tarkibi juda ham xilma-xil va qoplaming qalinligi 4500-5000 m bo'lib, ohaktoshlar, dolomitlar, mergellar, kremniyli slaneslar va boshqa yotqiziqlardan iborat, ularning qatlamlari o'zaro almashinib turadi. Baland tog'li hududlarda toshko'mir davri yotqiziqlari ohaktoshning qalin qatlamlaridan iborat. Unda boksitning yupqa qatlamlari va linzalari uchraydi. Chotqol, Qurama, Turkiston va Oloy tizmalarida bu davr yotqiziqlari qalin bo'lib, 4500 metrgacha boradi.

Perm yotqiziqlarining Chotqol, Qurama, Hisor va boshqa tog' tizmalarida, shuningdek, Surxondaryo va Amudaryo botiqlarida tarqalganligi aniqlangan. Ular asosan konglomeratlar, qumtoshlar, alevrolitlardan iborat bo'lib, oralarida ohaktoshlar, porfirlar, tuflarning qatlamlari uchraydi. Bu davr yotqiziqlarining umumiy qalinligi 500 metrda 2500 metrgacha boradi.

O'zbekistonda mezozoy erasiga mansub qatlamlarda bu eraning barcha davrlari yotqiziqlari ajratilgan.

Trias davri Janubiy Farg'onada, Hisorning janubiy tarmoqlarida, O'zbekistonning shimoli-g'arbiy hududlarida aniqlangan. Lekin, bu qatlamlarning litologik tuzilishi xilma-xil bo'lib, ularning asosini konglomeratlar, qumtoshlar, gillar, alevrolitlar tashkil etadi, qatlamlarining qalinligi 250-280 metrgacha boradi.

Yura davri yotqiziqlari Hisorning shimoliy yonbag'rida va janubi-g'arbiy tarmoqlarida ko'mir qatlamlaridan, Farg'ona konglomeratlaridan, Quyi Amudaryo va Ustyurtda gilli-qumoqli,

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

G'arbiy O'zbekistonda argelitlardan tashkil topgan bo'lib, qalinligi 100-300 metrgacha boradi.

Bo'r davri yotqiziqlari O'zbekistonning deyarli hamma yerida ajratilgan va ularning tarkibi xilma-xildir.

Kaynozoy turkumiga kiruvechi paleogen, neogen va to'rtlamchi davr yotqiziqlari O'zbekistonda keng tarqalgan.

Paleogen o'z navbatida paleotsen, eotsen va oligotsen yotqiziqlaridan tashkil topgan. Paleotsen yotqiziqlari qumtosh, gil, alevrolit, ohaktoshlardan iborat, qalinligi Ustyurda 50 metrgacha boradi. Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida esa qatlamlari qalinligi 160 metrgacha borib, u ohaktoshlar va dolomitlardan iborat.

Eotsen yotqiziqlari Ustyurda, Quyi Amudaryoda qumtosh va ohaktoshlardan (qalinligi 2-25 m), Qizilqumda, Toshkent atrofida asosan gillardan (1-30 m), Farg'ona vodiysida gipslashgan gillardan va qumlardan iborat.

Oligotsen yotqiziqlari eotsenga nisbatan kamroq hududlarda aniqlangan bo'lib, asosan gillardan, qumtoshlardan alevrolitlardan iborat. Qalinligi 10 dan 150 metrgacha yetadi.

Neogen yotqiziqlari O'zbekistonda keng tarqalgan. Ustyurda qumtoshlar, gillar, alevrolitlar, qumlar, ohaktoshlar va mergellardan iborat qatlamlar hosil qilgan. Qalinligi 75 metrgacha boradi. Qizilqumda neogen yotqiziqlari ancha qalin (150 m) bo'lib, gillardan iborat. Hisorning janubi-g'arbiy tarmoqlarida, Farg'ona vodiysida uning litologik tarkibi xilma-xildir.

To'rtlamchi davr yotqiziqlari kelib chiqishiga ko'ra asosan kontinental allyuvial, allyuvial-prolyuvial, prolyuvial va delyuvial bo'lib, litologik tuzilishi va qatlamining qalinligi turli joyda turlicha. *Allyuvial yotqiziqlar* asosan yirik daryo vodiylarida keng tarqalgan bo'lib, konglomeratlar, shag'allar va qumlardan iborat, usti uncha qalin bo'Imagan lyossimon gil jinslari bilan qoplangan. *Allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar* tog'lar va tog' oldi tekisliklaridagi daryo va soy yoyilmalarida tarqalgan konglomeratlar, shag'allar va lyossimon jinslardan tashkil topgan. *Prolyuvial yotqiziqlar* vaqtincha oqar suv olib kelgan mayda shag'allar va lyossimon jinslardan tarkib topgan tog' etaklarida keng tarqalgan. *Delyuvial yotqiziqlar* asosan chaqiq jinslardan, lyossimon gillardan iborat bo'lib, tog'larnng yonbag'rilarida, daryo vodiylarida keng tarqalgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Geoxronologik jadval

Faoner	Evrilar (mln.yil)	Davrlar (mln.yil) va ularning bosqichlari	Burmalanish bosqichlari	Asosiy tabiiy – geografik hodisalar Yer yuzasining holati	Hosil bo'lgan foydatli qazilmalar
1. Fameras	2. Kaynaza oyera si	3.	4.	5.	6.

To'rtlamchi (antropogen)
2 mln yil
(O)

Turkiston relyefining
hozirgi qiyofasi o'simliklar
va hayvonot dunyosi
paydo bo'lgan. Odam
taraqqiy etgan.

Qurilish xom
ashyosi (gil,
qum, shag'al),
torf, sochilma
oltin konlari.

			A l p burmanishi	Pomir, Turkman-Hindikush ko'tarilgan. qaytadan dengizlar natijada yaxlit bo'lgan O'rta, Qora, Kaspiy va Orol dengizlari bir-biridan ajralib qolgan, Yuksak o'simlik turlari va odamsimon maymunlar rivojlangan.	Kopetdog', Xuroson, tog'lari Tyanshan ko'tarilgan, chekingan, natijada yaxlit bo'lgan O'rta, Qora, Kaspiy va Orol dengizlari bir-biridan ajralib qolgan, Yuksak o'simlik turlari va odamsimon maymunlar rivojlangan.	Neft, tosh, tuz, qurilish xom ashyosi.
Mezozoy	Paleogen, 41 mln yil (P)			Mezazoy erasida ko'tarilgan tog'lar yemirilib ketgan. Botiqlar va tekisliklarni dengiz bosgan. Yopiq urug'li o'simliklar keng tarqalgan, qushlar va sutemizuvchilar rivojlangan.	Fosforit, tosh tuz, cho'kindi temir rudalari, bentonit gellari, ohaktoshlar, neft.	
	Bo'r 70 mln yil (K)	Mezozoy (kremniy)		Yopiq urug'li o'simliklar paydo bo'lgan, sudralib yuruvchilar qirilib ketgan. Qushlar taraqqiy etgan, sutemizuvchilar paydo bo'lgan.	Ko'mir, neft, yonuvchi gaz, fosforit, bo'r.	
	Yura, 58mln yil (Yu)			Mang'ishloq yarim orolidagi tog'lar, Krasnovods platosi. Katta Bolxon tog'lari ko'tarilgan. Iqlim issiq va sernam bo'lgan. Ochiq urug'li o'simliklar keng rivojlangan. Sudralib yuruvchilar ko'paygan. Qushlar paydo bo'lgan.	Toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, alyumini xom ashyosi.	

		Trias, 45mln. yil (T)		Tog'lar yemirilgan va yassi relyef shakkilari paydo bo'lgan. Qadimgi sudralib yuruvchilar qirilib ketgan, mezozoy sudralib yuruvchilar paydo bo'lgan.	Tosh tuz, neft, ko'mir, alyuminiy xom ashyosi.
Fanerazoy		Perm, 45 mln yil (P)		Gersin burmanishi tugagan. Tyanshan, Shimoliy, Markaziy Qozog'iston past tog'larining sharqiy qismi, Torbog'atoy, Savr, Jung'oriya Olatovi, Markaziy Qizilqum tog'ları qayta ko'tarilgan. Iqlim quruq bo'lgan. Daraxtsimon paporotnik, qirqbo'g'in va plaunlardan iborat o'rmonlar tugab ketgan, ochiq urug'li o'simliklar paydo bo'lgan. Sudralib yuruvchilar ko'payib ketgan.	Tosh tuz, kaliy tuzi, gips, ko'mir, neft, gaz.
		Toshko'mir 55 mln yil (K)		Kaledon tog' tizmalari yuvilib ketgan. Gersin tog' burmanishi boshlangan. G'arbiy, Janubiy Tyanshan tog'ları, Chotqol, Qurama, Oloy, Turkiston, Hisor, Nurota tog'ları paydo bo'lgan. Iqlim issiq va sernam bo'lgan. To'liq flora: Plaun qirqbo'g'in va daraxtsimon paporotniklar taraqqiy etgan. Sudralib yuruvchilar paydo bo'lgan. Quriqlikda ham, suvda ham yashovchi hayvonlar ko'payib ketgan	Ko'mir, neft, mis, qalay, volfram, polimetallrudalari.

Kriptozoy	Proterozoy erasi 2mlrd.yil		Devon, 70 mln yil (D)	Kaledon burmalanishi	Dengizlar maydoni qisqargan. Iqlim issiq bo'lgan, dastlabki cho'llar paydo bolgan. Umurtqalilar suvdan quruqlikka chiqgan. Quruqliklarda ham, suvda ham yashovchi hayvonlar dunyoga kelgan. Quruqlik o'simliklari keng tarqalgan, paporotniklar paydo bo'lgan.	Neft, gaz, tuz, sho'r va mineral shifobaxsh suvlari.
			Silur, 30 mln yil (S)		Kaledon burmalanishing asosiy qismi ro'y bergan. Qozog'iston past tog'larining g'arbiy qismi va Shimoliy Tyanshan ko'tarilgan. Psamofit o'simliklar taraqiy etgan. Baliqlar paydo bo'lgan .	
			Ordovik, 60 mln yil (O)		Dengiz havzalari qisqargan, kuchli vulqonlar otilgan, quriqlikda dastlabki umurtqasiz hayvonlar paydo bo'lgan.	
			Kembriy 70 mln yil (Kr)		Baykal burmalanishi	Boksit, fosforit, cho'kindi marganes va temir rudalari, tosh tuz, geps.
					Baykal burmalanishing boshlang'ich bosqichlari ro'y bergan. Kuchli vulqonlar otilgan. Bakteriyalar va suv o'tlari zamoni bo'lgan.	Temir rudasining katta konlari, polimetall rudalari, grafit, qurilish hom ashyosi.

Arkey erasi. 1mlrd.yil			To'xtovsiz vulqonlar otilgan va tog' jinslari metomorfiklashishi kuchli bo'lgan. Bir hujayrali itidoiy jonivorlar va bakteriyalar rivojlangan.	Temir va polimetallrudalari, qurilish xom ashyosi.
---------------------------	--	--	--	--

O'zbekiston hududidagi to'rtlamchi davr yotqiziqlari Yu.A.Svorsov, G'.A.Movlonov va boshqalar tomonidan stratigrafik bo'linish sxemasiga ko'ra 4 ta kompleksga - Nanay, Toshkent, Mirzacho'l, Sirdaryo komplekslariga ajratilgan.

1. *Nanay kompleksi Q₁* - quyi to'rtlamchi davr yotqiziqlari asosan katta xarsang toshlardan, shag'allardan, konglomeratlardan tashkil topgan bo'lib, ustidan lyossimon jinslar bilan qoplangan. Nanay kompleksi yotqiziqlarining qalinligi botiqlarda 600 metrgacha boradi.

2. *Toshkent kompleksi Q₂* - o'rta to'rtlamchi davr yotqiziqlari lyossimon jinslardan iborat bo'lib, uning tubida shag'al toshlar yotadi. Umumiyligi qalinligi 350 metrgacha boradi.

3. *Mirzacho'l kompleksi Q₃* - yuqori to'rtlamchi davr yotqiziqlari tog' tizmalarida 20-30 m, tekisliklarda 40 metr va undan ko'proq bo'lib, asosan lyossimon jinslardan tarkib topgan. Qatlamida qum, mayda shag'al va shag'allar uchraydi. Bu qatlam tubi shag'allardan tarkib topgan.

4. *Sirdaryo kompleksi Q₄* - hozirgi davr yotqiziqlari tog'larda ham, tekisliklarda ham keng tarqalgan. Chotqol-Qurama tog' massivida va Hisorning janubi-g'arbiy tarmoqlarida bu yotqiziqlar bilan qayirdan tashqari qayr ust terrasalari ham qoplangan [9].

Bu yotqiziqlar tarkibida xarsantosh-shag‘allar ko‘proq bo‘lib, ular ust tomonidan qalinligi 8-10 m dan 20-30 metrgacha bo‘lgan qumloq va qumoqlardan tashkil topgan qatlama bilan qoplangan.

Geologlar O‘zbekistonda to‘rtlamchi davrning yuqorida keltirilgan 4 ta kompleksiga kirmagan, aniqlanmagan yotqiziqlarni ajratadilar. Ular ichida eng keng tarqalgani, kelib chiqishi (genezisi) shamol bilan bog‘liq bo‘lgan qumli jinslardir. Ular Qizilqumda keng tarqalgan, qalinligi 5-7 metrdan 12-20 metrgacha boradi. To‘rtlamchi davrning komplekslarga bo‘linmagan yotqiziqlariga O‘zbekistonda botiqlarning tubida hosil bo‘lgan ko‘l-kimyo yotqiziqlari ham kiritiladi. Ularning qalinligi 24,5 metrgacha boradi.

Tektonikasi. O‘zbekiston hududi tektonik tuzilishining o‘ziga xosligi, yer po‘stining qalinligiga va yer yuzasining tuzilishiga ko‘ra tektonik jarayonlarning kechishi keskin farq qiluvchi 2 ta tektonik o‘lkaga ajratilad:

1.Orogen (tog‘li) o‘lka

2.Tekislik-platforma o‘lkasi

O‘zbekistonning *orogen (tog‘li)* ya’ni janubiy, sharqiy va markaziy qismlari neogen va to‘rtlamchi davrlarda tektonik harakatning ishini boshidan kechirganligi uchun platformadan keyin hosil bo‘lgan orogen o‘lka kiritiladi. U har xil katta-kichiklikdagi tektonik tuzilmalardan iborat. Bularning asosiyлари Chotqol-Qurama, Nurota-Oloy, Hisor-Zarafshon sistemalaridagi tog‘ tizmalari, Afg‘on-tojik botig‘ining shimoli-g‘arbiy qismi, Qizilqum qoldiq tog‘lari hamda

Toshkent yoni yoki tog‘ oldi botig‘i, Zarafshon, Farg‘ona botiqlari hisoblanadi.

Tekislik-platforma o‘lkasi O‘zbekistonning g‘arbida joylashgan va unga Sirdaryo sinklinalning(yer po‘stining platformadagi sal bukilgan botiq qismi) janubi, Amudaryo geoisineklinalning (botig‘ining) shimoli-sharqiy qanoti, Janubiy Ustyurt sinklinallari hamda Markaziy Ustyurt tepaliklari kiradi. Bularning hammasi Turon plitasining bir qismi hisoblanadi.

Bu plitaning paleozoy fundamenti yer betidan 1-6 km dan ortiqroq chuqurlikda yotadi. Platforma fundamenti bir nechta yoriqlar bilan bo‘laklarga bo‘lib yuborilgan. Eng katta yoriqlar kenglikka yaqin yo‘nalishdagi Hisor-Mang‘ishloq va meridiana yo‘nalishdagi Ural yoriqlaridir. Bu yoriqlar 4 ta qismga ajratgan. Respublikamizning asosiy qismi shimoli-sharqiy qismda, faqatgina janubiy qismi janubi-sharqiy qismdir. Shimoli-sharqiy qism mezo-qaynazoyda ko‘tarilgan, fundamentning chuqurligi bu yerda 1 km gacha bormagan, faqatgina eng chuqur botiqlarda 2 km dan oshgan. Janubi-sharqiy qism mezozoyda deyarli ko‘tarilgan bo‘lib, qaynozoyda juda tez cho‘ka boshlagan, natijada bu yerlar 8-10 km chuqurlikkacha yotadi.

Orogen va plitali tektonik tuzilmalar gersen va alp tog‘ hosil bo‘lish davrlarida vujudga kelgan. Ularni turli katta-kichiklikdagi va yo‘nalishdagi yoriqlar kesib o‘tgan. Bu yer yoriqlari bo‘ylab ro‘y berib turadigan harakatlar ta’sirida mazkur tektonik tuzilmalar har xil balandlikka ko‘tarilgan, ba’zilari cho‘kkan, natijada palaxsali relyef shakllari hosil bo‘lgan. Gersen tog‘ hosil bo‘lish davrida tektonik

harakatlar bilan bir qatorda vulqonlar ham otilgan. Vulqon va yoriqlar sodir bo‘layotgan jarayonlar natijasida O‘zbekistonda mavjud rudali, rangli, nodir, qimmatbaho foydali qazilmalar hosil bo‘lgan [7].

O‘zbekiston hududining seysmikligi. Ma’lumki, Yer ichki qismidagi jarayonlar ta’sirida yer po‘stida ro‘y beradigan titrash, silkinish va tebranish harakatlarga yer qimirlash (zilzila) deb ataladi.

Grek olimi Aristotel, O‘rtta asr buyuk ensiklopedisti O‘rtta Osiyolik Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolar zilzilaning asosiy sababchisi vulqon harakatlari bo‘lsa kerak deb o‘ylaganlar. Bu fikr fanda XVIII-XIX asrlargacha saqlanib qoldi. Ba’zi olimlar zilzilalar Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarining ta’sirida ro‘y beradi deb, kosmik ta’limotni ilgari surganlar. 1872 yilda Janubiy Italiyada kuzatishlar olib borgan Eduard Zyuss yer qimirlashlar tektonik jarayonlarga bog‘liq ekanligini birinchi bo‘lib ilmiy asosda tushuntirgan. Bundan tashqari, Zyuss zilzilalar yer ostidagi bo‘shliqlarda o‘pirilish, qulashlar natijasida kelib chiqishni ham aniqlagan. Zilzilalar paydo bo‘lishiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi:

1. Vulqon harakati paytida ro‘y beradigan zilzilalar;
2. Yer po‘stida ro‘y beradigan tektonik harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan zilzilalar;
3. O‘pirilish, qulash natijasida ro‘y beradigan zilzilalar;
4. Meteoritlar tushishi oqibatida ro‘y beradigan zilzilalar.

Tektonik zilzilalar tog‘larning o‘sishi, uzilmalar bo‘ylab tog‘ jinslarining siljishi, bukilmalarning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun kuchli, nihoyatda xavfli hisoblanadi.

O‘zbekiston hududi Alp-Himolay geosinklinal (seysmik) mintaqasida joylashgan, bu yerda zilzilaning kuchi 8-9 ballgacha boradi (Rixter shkalasi bo‘yicha). Deyarli hamma kuchli zilzilalar yer qobig‘idagi tektonik harakatlar natijasida paydo bo‘ladi. Kuchli zilzilalar yirik morfostrukturalarning tutashgan yerida, tog‘ tizmalarining yirik botiqlar bilan tutashgan chegaralarida kuzatiladi.

O‘zbekistonda seysmik eng faol zonaga Chotqol-Farg‘ona, Qizilqum, Hisor-Oloyning janubiy etagi kiradi. Ularning har birida seysmogen zonalar ajratilgan.

O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan zilzila o‘choqlarining joylashish xaritasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zilzilalarning o‘chog‘i cho‘ziq shaklda bo‘lib, yer po‘stidan chuqruda yotgan yoriqlarning yo‘nalishiga mos tushadi. Zilzila o‘choqlarining chuqurligi asosan 5-40 km orasida bo‘ladi.

O‘zbekiston hududida va unga qo‘shni o‘lkalarda Chotqol-Farg‘ona, Sharqi Farg‘ona, Janubiy Farg‘ona, Janubiy Tyanshan (uning g‘arbiy va shimoliy qismi), Markaziy Qizilqum, Piskom- Qarjantog‘, Janubiy O‘zbekiston seysmogen zonalari ajratilgan. Bu zonalarning hammasi tektonik yoriqlar o‘tgan hududlarga to‘g‘ri keladi. Ularda Rixter shkalasi bo‘yicha kuchli 7-9 balli falokatli zilzilalar qayd qilingan. Quyidagi 2-jadvalda O‘zbekiston hududida ro‘y bergen ba’zi zilzilalar bilan tanishamiz.

2-jadval

O‘zbekiston hududida bo‘lib o‘tgan ba’zi kuchli zilzilalar

t/r	Zilzilalar nomi	Yillar	t/r	Zilzilalar nomi	Yillar
-----	-----------------	--------	-----	-----------------	--------

<i>1</i>	Urganch	1240	<i>13</i>	Chotqol	1946
<i>2</i>	Urgut	1797	<i>14</i>	Sangzor	1957
<i>3</i>	Buxoro	1818	<i>15</i>	Burchmulla	1959
<i>4</i>	Buxoro	1821	<i>16</i>	Qoshtepa	1965
<i>5</i>	O'sh	1883	<i>17</i>	Toshkent	1966
<i>6</i>	Andijon	1902	<i>18</i>	Qizilqum	1968
<i>7</i>	Farg'ona	1903	<i>19</i>	Gazli	1976
<i>8</i>	Qoratog'	1907	<i>20</i>	Vobkent	1977
<i>9</i>	Namangan	1927	<i>21</i>	Tovoqsoy	1977
<i>10</i>	Tomdibuloq	1932	<i>22</i>	Haydarkon	1977
<i>11</i>	Boysun	1935	<i>23</i>	Nazarbek	1980
<i>12</i>	Pskom	1937	<i>24</i>	Pop	1984

O'zbekistonda zilzilalarni kuzatish ishlari 30 ga yaqin seysmostansiyalarda, O'zFA Seysmologiya institutida va boshqa tashkilotlarda olib boriladi.

Zilzilalar keltiradigan zarar va talafotlarni kamaytirishda hamda ular oldini olishda imorat va inshootlar mustahkamligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mamlakatimizning butun hududi seysmik rayonlashtirilgan. Inshootlar va binolarni qurishda va ular chidamliligini belgilashda har bir seysmik rayonning xususiyati ya'ni ro'y berishi mumkin bo'lgan zilzilalar kuchi hisobga olinadi.

Foydali qazilmalari. O'zbekiston turli foydali qazilmalarga boy (3-jadvalga qarang). Uning hududida Mendelev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xomashyo turlarini o'z

ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi (I. Karimov, 1997).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududidagi foydali qazilma konlari

<i>No</i>	<i>Kon nomi</i>	<i>Joylashgan viloyati</i>	<i>No</i>	<i>Kon nomi</i>	<i>Joylashgan viloyati</i>
Oltin		Neft			
1	Qoshbuloq	Toshkent vil	1	Janubiy Olamushuk	Andijon vil
2	Qizilolmasoy	Toshkent vil	2	Sharqiy Xartum	Andijon vil
3	Kauldi	Toshkent vil	3	Xo'ji	Andijon vil
4	Ko'kpatas	Navoiy vil	4	Sho'rbuloq	Namangan vil
5	Beshbuloq	Navoiy vil	5	Kosonsoy	Namangan vil
6	Konsoy	Navoiy vil	6	Variq II	Farg'ona vil
7	Katanga	Navoiy vil	7	Sho'rsuv	Farg'ona vil
8	Aytimtov	Navoiy vil	8	Chimyon Chovur Yorqo'ton	Farg'ona vil
9	Jelsoy	Navoiy vil	9	G'arbiy Polvontosh	Farg'ona vil
10	Turboy	Navoiy vil	10	Gumxona	Farg'ona vil
11	Qumli	Navoiy vil	11	Yakkasaroy	Qashqadaryo vil
12	Ajibug'ut	Navoiy vil	12	G'arbiy Toshli	Qashqadaryo vil
13	Bolpantov	Navoiy vil	13	Qo'shquduq	Qashqadaryo vil
14	Qorakutan	Navoiy vil	14	Qo'shtar	Surxandaryo vil
15	Murntov	Navoiy vil	15	Kakaydi	Surxandaryo vil
16	Marjonbuloq	Jizzax vil	16	Karsag'l'i	Surxandaryo vil
17	Oqbuloq	Namangan vil	17	Uchqizil	Surxandaryo vil
18	Karolevskoye	Namangan vil	18	Jaloyir	Surxandaryo vil
19	Zarmas	Qashqadaryo	19	Xovdog'	Surxandaryo

9		vil		vil
2	Zarmintan	Samarqand vil	20	Mirshadi
0				Surxandaryo vil
2	Oqbel	Samarqand vil	21	Jayronxona
1				Surxondayo vil
			22	Mullaxor
				Buxoro vil
	Gaz		Neft-gaz	
1	Shimoliy Xonqiz	Farg'ona vil	1	Kosonsoy
2	G'arbiy	Buxoro vil	2	Tergachi
3	Uchqir	Buxoro vil	3	Mingbuloq
4	Toshquduq	Buxoro vil	4	Namangan
5	Xaqko'l	Buxoro vil	5	Xartum
6	Oqqum	Buxoro vil	6	Bo'ston
7	G'arbiy Xoji	Buxoro vil	7	Shaxrixon Xojaobod
8	Guvakchi	Buxoro vil	8	Andijon
9	Olat	Buxoro vil	9	Polvontosh
10	Chandir	Buxoro vil	10	Avval
11	Havzak	Buxoro vil	11	Xonqiz
12	Shimoliy Shadi	Buxoro vil	12	Shimoliy Sox
13	Shadi	Buxoro vil	13	Chang'ara G'alcha
14	Sharqiy Dengizko'l	Buxoro vil	14	Kosonsoy
15	Doyaxotin	Buxoro vil	15	Shimoliy Dengizko'l
16	Xojiqazgan	Buxoro vil	16	Dengizko'l
17	Uvada	Qashqadaryo vil	17	Uzunsho'r
18	Gumbuloq	Qashqadaryo vil	18	Gazli
19	Odamtosh	Qashqadaryo vil	19	Jarqoq
20	Sho'tan	Qashqadaryo vil	20	Qoroq vulbozor
21	Qirqulloch	Qashqadaryo vil	21	Kuruk

2	Girson	Qashqadaryo vil	22	Janubiy Ketachi-Kenja	Buxoro vil
2	Qamashi	Qashqaaryo vil	23	Umid	Qashqadaryo vil
3	Qulton	Qashqadaryo vil	24	O'rtabuloq	Qashqadaryo vil
4	Alan	Qashqadaryo vil	25	Aniyoz	Qashqadaryo vil
5	Janubiy Pamuq	Qashqadaryo vil	26	Shimoliy Maymanaq	Qashqadaryo vil
6	Zevordl	Qashqadaryo vil	27	Qizilrabat	Qashqadaryo vil
7	Shimoliy Muborak	Qashqadaryo vil	28	Chiroqchi	Qashqadaryo vil
9	Janubiy Muborak	Qashqadaryo vil	29	Shimoliy Cho'rtan	Qashqadaryo vil
0	Aqsho'loq	Qoraqolpog'iston	30	Pachkamar	Qashqadaryo vil
1	Quvonish	Qoraqolpog'iston	31	Lalmikon	Surxandaryo vil
	Kumush		Qurilish toshi		
1	Oqtepa	Namangan vil	1	Pagdi I	Navoiy vil
2	Pirmirob	Namangan vil	2	Jam	Samarqand vil
3	Guzoksoy	Namangan vil	3	Beshopan	Samarqand vil
4	Qorabug'ut	Navoiy vil	4	Jumirtov	Qoraqolpog'iston Res
5	Visokovoltnoye	Navoiy vil	5	Suratsov	Farg'ona vil
6	Oqjetpes	Navoiy vil	6	Tangiko'l	Xorazim vil
	Toshkent			Po'limental	
1	Sharg'un	Surxondayo vil	1	Miskon	Toshkent vil
2	Boysun	Surxondayo vil	2	Sarikon	Toshkent vil
	Qo'ng'irkon			Temir	
1	Ispay	Toshkent vil	3	Ispay	Toshkent vil
1	Angren	Toshkent vil	4	Qo'rg'oshinkon	Toshkent vil
	Temir			5	Uchqulosh
1	Surenota	Toshkent vil	6	Ko'l dara	Jizzax vil
2	Temirkon	Jizzax vil	7	Xonjiza	Surxandaryo vil
	Lity			8	Chaqchar
1	Shovoz	Toshkent vil			Gips

<i>Vismut</i>		1	Qamishboshi	Farg'ona vil	
1	O'rtasaroy	Toshkent vil	2	Mamajurgati	Buxoro vil
<i>Talk toshi</i>		3	Qo'ng'irtov	Samarqand vil	
1	Zinelbuloq	Qaraqolpog'ist on Res	4	Sharg'un	Surxondayo vil
<i>Bazalt</i>		<i>Osh tuzi</i>			
1	Osmondoj	Jizzax vil	1	Qoraumbet	Qaraqolpog'ist on Res
<i>Qoplama qumlari</i>		2	Oqqala	Qaraqolpog'ist on Res	
1	Sayrob	Surxondayo vil	3	Xo'jaikon	Surxondayo vil
<i>Gabbro</i>		<i>Mis</i>			
1	Zarabog'	Surxondayo vil	1	Kalmakir	Toshkent vil
<i>Glaukonit</i>		2	Dalne	Toshkent vil	
1	Kurantov	Qaraqolpog'ist on Res	3	Sarisheku	Toshkent vil
<i>Stronsiy</i>		4	Qoramurun	Navoiy vil	
1	Sherobod	Surxondayo vil			
<i>Volfram</i>		<i>Ohaktosh</i>			
1	Sargardan	Toshkent vil	1	Sherobod	Toshkent vil
2	Ingichka	Samarqand vil	2	Shirmonbuloq	Andijon vil
3	Qoytosh	Samarqand vil	3	Achisoy	Farg'ona vil
4	Hasantepa	Qashqadaryo vil	4	Ko'tarma	Jizzax vil
5	Saritov	Navoiy vil	5	Og'aliq	Samarqand vil
6	Sovutboy	Navoiy vil	6	Qoroqvulbozor	Buxoro vil
7	G'allaorol	Jizzax vil	7	Sherobodlaylik	Surxondaryo vil
8	Choshtepa	Samarqand vil	8	Janubiy Oqtov	Surxondaryo vil
9	Qiriqsoy	Samarqand vil	9	Qo'ng'rot	Qaraqolpog'ist on Res
<i>Marmor</i>		<i>Sement xom ashyosi</i>			
1	Orkutsoy	Toshkent vil	1	Shovozsoy	Toshkent vil
2	Sharaksoy	Jizzax vil	2	Quvasoy	Farg'ona vil
3	Chingalli	Samarqand vil	3	Kutarma	Jizzax vil
4	Zarband	Samarqand vil	4	Marjonbuloq	Jizzax vil
5	Bushan	Navoiy vil	5	Kattaqo'rg'on	Samarqand vil
6	Qiratosh	Navoiy vil	6	Qoratepa	Qashqadaryo

				vil	
7	Oqtqov	Navoiy vil	7	Tebinbuloq	Qaraqolpog'ist on Res
8	G'ozg'on	Navoiy vil	8	Beshbuloq	Surxondayo vil
9	Tuzbuloq	Navoiy vil	9	Sherobod	Surxondayo vil
10	Turi-Tov	Navoiy vil	<i>Granit</i>		
11	Orkutsoy	Toshkent vil	1	Shovozsoy	Toshkent vil
12	Burkunli	Qashqadaryo vil	2	Chorkesar	Namangan vil
13	Bodomzor	Qashqadaryo vil	3	Kenges	Samarqand vil
14	Isxona	Qashqadaryo vil	4	Qo'shrabot	Samarqand vil
15	Qahralisoy	Xorzim vil	5	Langar	Samarqand vil
<i>G'isht-cherepitsa</i>		6	Qurosoy	Samarqand vil	
1	Toytapa	Toshkent vil	7	Zarbog'	Surxondayo vil
2	Qodriy	Toshkent vil	8	Uchquduq	Buxoro vil
3	Sultonobod	Andijon vil	9	Oqtov	Xorazim vil
4	Raish	Andijon vil	<i>Keramzit</i>		
5	Baliqhovuz	Farg'ona vil	1	Topchar	Farg'ona vil
6	Rishton	Farg'ona vil	2	O'zbekiston	Farg'ona vil
7	Boyovut	Sirdaryo vil	3	Sayxon	Jizzax vil
8	Ursatev	Sirdaryo vil	4	Kungurtov	Qashqadaryo vil
9	Qo'shkent	Jizzax vil	5	Pachkamar	Qashqadaryo vil
10	Ixtixon	Samarqand vil	6	Bandixon	Surxondayo vil
11	To'dako'l	Navoiy vil	7	Xojaql	Qaraqolpog'ist on Res
12	Qizilquduq	Navoiy vil	8	Beshtyubin	Qaraqolpog'ist on Res
13	Buxoro	Buxoro vil	9	Qushantov	Qaraqolpog'ist on Res
14	Chilongev	Buxoro vil	10	Bezeryen	Qaraqolpog'ist on Res
15	Vobken	Buxoro vil	<i>Qum-shag'al materiali</i>		
16	Sharg'un	Surxondayo vil	1	Bekobod	Toshkent vil
17	Jarqorg'on	Surxondayo vil	2	Chinoz	Toshkent vil
18	Yarmish	Xorazim vil	3	Qorachatir	Farg'ona vil
19	Pitnak	Xorazim vil	4	Verxnevolinsk	Sirdaryo vil
20	Qorao'zak	Qaraqolpog'isto n R.	5	G'uzor	Qashqadaryo vil

21	Jambasqala	Qoraqolpog'ston R	<i>Bentonit gillari</i>		
22	Niguz	Qashqadaryo vil	1	Azkmor	Navoiy vil
23	Uymovut	Qashqadaryo vil	2	Kungurtov	Qashqadaryo vil
24	Yakkabog'	Qashqadaryo vil	3	Pachkamar	Qashqadaryo vil
25	Xayrobod	Qashqadaryo vil	4	Bandixon	Surxondayo vil
<i>Dolomit</i>			<i>Shakil beruvchi oyna qumi</i>		
1	Pashkamar	Qashqadaryo vil	1	May	Toshkent vil
2	Beryuza	Navoiy vil	2	Jaroy	Navoiy vil
3	Aytim	Navoiy vil	<i>Mineral bo'yoglar</i>		
4	Yaman Qasqir	Navoiy vil	1	Jangeldi Toshquduq	Buxoro vil
<i>Rang-barang toshlar</i>			<i>Kaolin,alunit</i>		
1	Kumushkon	Toshkent vil	1	Angren	Toshkent vil
2	Jaloyir	Jizzax vil	2	Oqtosh	Toshkent vil
3	Minguchar	Qashqadaryo vil			

1. Yoqilg'i energetika boyliklari: Bu guruhga neft, gaz, ko'mir kiradi. Neft va gaz konlari Farg'ona botig'idagi shimoliy So'x, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Chimyon, Sho'rsuv va boshqa joylarda topilgan bo'lib yura, bo'r, paleogen va neogen davrlarida yotqizilgan cho'kindi tog' jinslari qatlamlari orasida joylashgan. Paleogen davri yotqiziqlari, ayniqsa, foydali qazilmalarga boy.

Neft - Sherobod, Surxondaryo botig'idagi paleogen oxaktoshlari qatlamlarida Xovdog', Uchqizil, Ko'kaydi va boshqa joylardan qazib olinmoqda, neft va gaz Hisorning janubiy-g'arbiy tarmoqlaridagi Odamtosh, Gumbuloq, Pachkamar, Qizilbayroq, Omonota nomli joylarida yura davri antiklinal burmalarida ham ochilgan.

Qashqadaryo va Buxoro viloyatining tekislik qismida Muborak, Oqjar, Saritosh, Jarqoq, Qorovulbozor neft va gaz konlari yura va bo'r cho'kindi tog' jinslari bilan bog'liq. Ustyurtda Shohpaxta, Kuvanish kabi gaz konlari yura davri tog' jinslari orasidan topilgan.

O'zbekistonda Ohangaron, Boysun, Sharg'un, Ko'hitang kabi ko'mirning 4 koni mavjud.

Ohangaron ko'mir konining zaxirasini respublikamizdag'i ko'mir zaxirasining 96,5% ini tashkil qiladi. Surxondaryo viloyatida dengiz sathidan 600-800 m balandda yura davri yotqiziqlari orasida Sharg'un toshko'mir koni topilgan bo'lib, qatlamlarining qalinligi 4,5-12 m gacha yetadi. Surxondaryoda Boysun va Ko'htang ko'mir konlari ochilgan bo'lib, ular ham yura davri yotqiziqlari orasidadir. O'zbekistonning ko'mir zahirasi 6 mlrd tonnadan ortiqdir.

2. Rudali foydali qazilmalar: O'zbekiston hududida qorametallar (titan, temir, marganes, xrom) nodir metallar (volfram, molibden, qalay, vismut, simob, surma va boshqalar) rangli metallar (mis, qo'rg'oshin, rux va boshqalar) topilgan.

Respublikada temir va titanning bir necha konlari aniqlangan ular vulkanik jarayonlar, tog' jinslarining yotqizilishi va gidrotermal jarayonlarga bog'liq holda paydo bo'lgan.

Vulkanik jarayonlarga bog'liq *temir konlari* Qoraqolpog'istonidagi Tebinbuloq, Hisordagi - Qazg'antog', O'zbekiston sharqida joylashgan Syurenota, Shabrez, Mingbuloq, Ixnach, Chimgan, *cho'kindi bilan bog'liq qorametallar*: Orololdi Qizilqum, Sulton Uvays tog'larida aniqlangan.

Vulkanik cho'kindi geotermal jarayonlarda hosil bo'lgan marganes konlari Zarafshon, Zirabuloq, Qoratepa va boshqa tog'larda ochilgan bo'lib zahirasi katta emas. Vulkanik xrom konlari Tomditog', Sulton Uvays tizmalaridan topilgan.

Rangli metallardan *misning* (Quramada, Qolmoqqir, Saricheko, Dalniye, Qizilqum, va janubiy O'zbekiston) ko'plab konlari ochilgan. Konlar paleozoy davriga mansub slanes, quyi devon davri, effuziv devon va toshko'mir davri intruziv tog' jinslari orasida joylashgan.

Qo'rg'oshin va rux Janubiy O'zbekistondagi Xondizoda, Chotqol va Qurama tizmasidagi Qo'rg'oshinkon, Miskon, Kashmansoy, Jizzaxdagi Uchquloch, Toshkent viloyatidagi Konjaylau, Kulachaloq kabi joylarda topilgan bo'lib eng ahamiyatlisi Uchquloch konidir. O'zbekistonda 140 yaqin volfram koni aniqlangan bo'lib 6 tasi eng katta (Janubiy Nurotadagi Langar, Qo'ytosh: Zirabuloq- Ziyovuddinda Ingichka, Chaqikalonda - Yaxton, Kamangaron, Qoratepadagi - Jom, Sariko'l, Sazag'an) aniqlangan. Eng muhimlari Qo'ytosh va Ingichka konlaridir.

Molibden konlari Hisor tog'ida - Obizarang, Piskom tog'ida Oygaing, Quramada Shougaz va boshqa joylarda aniqlangan. Sof va molibden konlari topilmagan.

O'zbekistonda 100 dan ortiq qalay konlari aniqlangan bo'lib hammasi kichik konlar (Samarqand viloyida Qarmoq cho'lida, Ziyovuddin - Zirabuloq tog'ida, Toshkent viloyatida Maydontol, Kengko'l, Sargardon, Ohangaron platosida va Jizzax viloyatida Nurota tizmasida) *Vismut* - Burchmulla va O'rtasaroyda qazib olinmoqda.

Vismutning ayrim o'choqlari Nurota, Zirabuloq- Ziyovuddin, Hisor tog'larida ham aniqlangan.

O'zbekistonda 50 dan ziyod simob va surma konlari ochilgan lekin ular qazib olinmaydi. Oltin konlar katta zahiraga ega bo'lib, Qizilqum cho'lida (Muruntog' va Ko'kpatas) Nurota (Majonbulog'), Chotqol - Qurama tog'laridan qazib olinmoqda. O'zbekistonda bir nechta kumush konlari ham topilgan.

3. *Kimyoiy xomashyolar:* O'zbekistonda osh va kaliy tuzlari mavjud bo'lib, dengiz va quruqlik sharoitlarida yuqori yura, quyi bo'r, neogen va to'rtlamchi davrlarda hosil bo'lgan.

Respublikamizning janubiy-g'arbiy qismida yuqori yurada hosil bo'lgan Boybichakon, Xo'jaikon, Tyubegatang, Oqbosh, Laylimkon kabi osh va kaliy tuzlari bor. O'zbekistonda katta kaliy tuzlari konlari osh tuzlari bilan birga uchraydi. Ular Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududidagi Tyubegatang, Oqtosh, Odamtosh, Oqmachit nomli katta konlardir.

Fosforit hozirgacha sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan koni aniqlanmagan Molguzar, Nurota tog'lari va Surxondaryo botig'ida katta zahiraga ega bo'lgan konlar ochilgan.

Oltингugurt Farg'ona botig'i (Qizilarcha, Andijon, Qurshod va boshqa) Bo'r va Poleogen yotqiziqlari hamda Ustyurt platosida, Poleogen va Yura yotqiziqlarida topilgan bo'lib, asosan, gazni tozalovchi Muborak zavodi bu xom- ashyon beruvchi asosiy manbadir.

Flyuarit - Chotqol va Qurama tog' tizmalari, Hisor tizmasining janubiy tarmoqlarida, Nurota tizmasi tog'larida ochilgan.

Mumiyo - tog'li qismlarning yoriqlarida va karst g'orlarida tabobatda qadimdan foydalaniib kelinayotgan bu xomashyo topilgan.

4. Alyuminiy xom ashyosi: koalin, alunit, boksit kabilar kiradi. Eng katta zahirasi Ohangaron ko'mir konidan ajratib olinayotgan kaolindir.

Alunit konlari - Qurama, Chotqol, Qorjantog' tizmalari yonbag'irlarida aniqlangan.

Boksit konlarining yirik zahirasi topilmagan. Past sifatli konlari Nurota tog'lari, Qizilqum, Hisor tog'larida ochilgan.

O'zbekistonda bontonitli gillar topilgan bo'lib, bo'r va poleogenda hosil bo'lgan konlar Qashqadaryodagi - Azkamar, Samarcanddagi - Kattaqo'rg'on va boshqalar.

5. Nometall xom ashyosi: 30 dan ziyod garfit konlari mavjud. Eng katta kon Quljuqtog'dagi Toshqazg'an koni (zaxirasi 7 mln tonna).

Asbest koni Sulton Uvays tizmasi, janubiy Farg'ona, Hisorda topilgan lekin qazib olinmaydi.

Qorund koni Molguzardagi Sharaqsoy va Qorjantog'dagi - Oqtoshda ochilgan.

Topaz koni - Quramada Olmabuloq, Kenkol, Gava, Charqasak, Chotqolda Sargardon, Markaziy Qizilqumda, Oqtoshda topilgan.

Bryuza - 30 ga yaqin konlar aniqlangan bo'lib, Quramada, Qoratepa, Qizilqumda, Ovminzatog', Muruntovda topilgan.

Tog' billuri – Pskom tizmasida Shamterek, Onao'Iganda topilgan.

O'zbekiston hududida yashma, nefrit, lazurit va boshqa qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar borligi aniqlangan.

Kvars qumi – 13 ta koni aniqlangan bo'lib, eotsen davriga xos. Bular: Toshkent viloyatidagi Mayskiy, Ozorboshi, Qizilqumdag'i Jeruy va Karmana konlari eng yiriklaridir.

6. Qurilish materiallari: Soz tuproq, qum, shag'al, ohaktosh, gips, marmar kabi qurilish materiallariiga juda boy.

Lyoss (soz) respublikamizning tog'li va tog' oldi hududlarida keng tarqalgan bo'lib, daryo terassalarida tog' oldi tekisliklarida katta maydonlarni egallaydi. Qum va shagallar ham chegaralanmagan zahiraga ega.

Ohaktoshning tog' va tog' oldi hududlarida ko'plab zahirasi bo'lib, ohak, sement va boshqa qurilish materiallari sifatida keng foydalilanadi. *Gips* - eng yirigi janubiy O'zbekistonidagi Tyubegatangdir.

Marmar - 35 dan ortiq koni aniqlangan. Eng asosiyları Navoiy viloyatidagi-G'ozg'on, Samarcand viloyatidagi Omonqo'ton, Toshkent viloyatidagi Orkutsoydir. O'zbekiston hududida manzarali qoplama toshlarning granit, granodiorit, gabru, tuf, farfir va boshqalarning katta zahiralari noyob imoratlarni bezashda ishlataladi.

7. Gidromineral boyliklar: O'zbekistonning yer osti suvlari kiradi, 100 dan ortiq konlar aniqlangan. Bu boyliklar asosan uchdan ikki qismi to'rtlamchi davr yotqiziqlarida hosil bo'lgan. Tog'li qismlarda tarqalgan poleozoy davri ohaktoshlarida katta hajmdagi karst suvlari hosil bo'lgan bo'lib, ma'lum qismi daryo va tog' yonbag'irlarida buloqlar sifatida yer yuzasiga oqib chiqadi. Hozirgi kunda 350 dan ziyod katta buloqlar suvida aholini suv bilan ta'minlashda foydalaniilmoqda. Suvi tarkibida kimyoviy moddalar bo'lgan, ba'zilarining harorati yuqori

buloqlar *Surxondaryoda* – Xo‘jaipak, Garm, Obishifo, *Toshkent viloyatidagi* - Arashon buloqlaridir. Yer osti chuchuk suvlaridan foydalanish maqsadida 25 mingdan ziyod parmalar qazilgan (ba‘zilarida 145 m kub sekund suv olinadi). Mineral va termal suvlar *Farg‘ona vodiysida* Chimyon, Polvontosh, Xo‘jaobod, Sho‘rsuv, Shimoliy So‘x, Andijon, Chortoq, *Janubiy O‘zbekistonidagi* Uchqizil, Kokaydi, Xovdog‘, Buxorodagi Moxi-xossa va Qorako‘l suvlaridan turli kasalliklarni davolashda foydalanilmogda.

O‘zbekistondagi foydali qazilma konlari o‘zining zahiralarini kattaligi bilangina emas, balki bir qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Bu xususiyatlar quydagilar:

- ✓ Tabiiy va mineral xomashyo zaxiralari yirik konlarda to‘plangan, ularni qazib olingan joyning o‘zida kompleks qayta ishslash imkonli bor;
- ✓ Foydali qazilmalarning ko‘pgina turlari tarkibidagi foydali komponentlar miqdori ko‘p bo‘libgina qolmay, katta miqdorda yo‘ldosh elementlarga ham ega;
- ✓ Konlarning ko‘pchiligidagi qazilmani ochiq usulda olish mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy. Bu texnologiya foydali komponentlarni ko‘p miqdorda chiqarishni va jahon bozorida xaridorbob mahsulot olishni ta’minlaydi;
- ✓ Ko‘pgina foydali qazilma konlari aholi zinch yashaydigan yaxshi o‘zlashtirilgan mintaqalarda joylashgan. Ular transport yo‘llariga va hududlar o‘rtasida resurslarni tashish vositalariga, shu jumladan,

suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega;

- ✓ Ishlab chiqarish va sotsial infrastruktura, malakali kadrlar, tog‘-kon sanoati mutaxassislari tayyorlaydigan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tizimi mavjud.

Orografiysi va relyefining asosiy xususiyatlari. O‘zbekiston hududi yer yuzasining tuzilishiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi: *tog‘oldi-tog‘lar va tekisliklar*. Tog‘ oldi va tog‘larga respublika sharqi va janubi-sharqidagi tog‘ tizmalari, tog‘ oldi qiya tekisliklari hamda tog‘ orlig‘idagi botiqlar, tekisliklarga esa pasttekisliklar, denudatsion tekisliklar va platolar kiradi.

Respublikamizning sharqiy va janubi-sharqiy qismini Tyanshan va Oloy tizmalarining tarmoqlari, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy qismini Turon tekisligining markaziy qismi egallagan. O‘zbekiston umumiyl maydonining 78,7 % ini tekisliklar, 21,3 % ini tog‘lar tashkil etadi, mamlakatning eng past nuqtasi Mingbulloq botig‘i bo‘lsa (-12 m), eng baland nuqtasi Hisor tog‘ining Qoldirg‘a tizmasidagi Hazrati Sulton cho‘qqisidir (4643 m). O‘zbekistonning yer yuzasi asosan sharq va janubi-sharqdan g‘arb va shimoli- g‘arb tomon pasayib boradi. Shu sababdan ham daryolar shu tomonga oqadi. Tekisliklar yaxlit bo‘lib, Amudaryoning quyi va o‘rta oqimi, Sirdaryoning o‘rta oqimi, Zarafshonning o‘rta va quyi oqimi atrofidagi yerlarni ishg‘ol etgan. O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida Ustyurt platosi atrofidagi tekisliklardan tik ko‘tarilgan chinklar bilan ajralib turadi. O‘zbekistonning eng past yerlari Orolning qurigan qismi,

Amudaryoning deltasi, Qizilqumning shimoli-g'arbiy qismlari bo'lib, bularning okean sathidan o'rtacha balandligi 30-100 m. Sulton Uvays, Bo'kantog', Quljuqtog', Tomditog'lar O'zbekiston tekislik qismining eng baland (900 m gacha) qismilaridir.

O'zbekistonning sharqiylarini egallagan tog' tizmalari Qorjontog', Ugam, Piskom, Chotqol, Farg'ona, Qurama, Nurota, Morguzar, Turkiston, Hisor-Zarafshon tizmalari G'arbiy hamda Janubiy Tyanshan va Oloy tog' sistemalarining tarmoqlari bo'lib, ularning o'rtacha balandligi 2000-2500 metrni tashkil etadi. Ayrim cho'qqilarning balandligi esa 4500 m dan ham oshadi. Bu tog' tizmalarini Toshkent-Mirzacho'l, Farg'ona, Samarcand, Sangzor, Qashqadaryo, Surxondaryo kabi tog' oralig'i va tog' oldi botiqlari bir-biridan ajratib turadi.

Tekisliklar relyefi. O'zbekistonning g'arbiy tekislik qismi relyefining xususiyatiga ko'ra Ustyurt platosi, Qizilqum va ular orasida joylashgan Orol-Sariqamish soyligiga bo'linadi.

Tog' oldi va tog'liklar relyefi. O'zbekiston tog'li qismi relyefining asosiy xususiyati-bu tog' tizmalari va tog' oralig' botiqlari bilan g'arbgaga ochiq va shu tomonga balandligi pasayib boradigan tog' oldi tekisliklarining yonma-yon joylashganligidir. Tog'li hududda orografik tuzilishiga ko'ra 1) tog' sistemalari, 2) tog' oralig'i va tog' oldi botiqlariga ajratiladi.

O'zbekistonda Tyanshyan tarkibiga kiruvchi Chotqol-Qurama, Nurota-Turkiston, Hisor-Zarafshon tog' sistemalari ajratilgan.

Tog' oraligi va tog' oldi botiqlari. Bular tog' daryolarining konussimon yoyilmalaridan hosil bo'lgan, relyefi to'lqinsimon, qirli qiya tog' oldi tekisliklaridan va yirik daryolarning yuzasi biroz qiya terrasalaridan iborat tekisliklardir. Quyidagi jadvalda O'zbekistondagi tog'lar haqida ma'lumotlar berilgan (4-5 jadvalga qarang).

4-jadval

Tog'lar

t/r	Tog'lar nomi	Cho'qqilar nomi	Balandligi(m)
1	Qorjontog' tizmasi	Mingbuloq	2837
2	Ugom tizmasi	Sayram	4229
3	Piskom tizmasi	Beshtor	1299
4	Ko'ksuv tizmasi		4216
5	Talas Olatog' tiz-si	Manas	4488
6	Chotqol tizmasi	Katta Chimyon	3309
7	Qizilnura	Qizilnura	3267
8	Turkiston tizmasi	Shovkirtog'	4033
9	Chumqortog'	Bozorxonim	3105
10	Nurota tizmasi	Hayotboshi (Zargar)	2165
11	Oqtog'	Taxnu	2005
12	Chaqalikalon	Zebon	2336
13	Qoratepa	Kamqo'ton	2195
14	Zirabuloq	Zindontog'	1116
15	Hisor tizmasi	Hazrati Sulton	4648
16	Chaqchar	Xuroson	3744
17	Boysun tizmasi	Xo'japiryoh	4424
18	Ko'xitang	Machayli	3137
19	Sherobod	Sariqamich	
20	Bobotog' tizmasi	Zarkosa	2292
21	Kuljuqtog'	Quljuqtog'	785
22	Ovminzatog'		695
23	Tomditog'	Oqtog'	922
24	Yetim tog'i		565
25	Bo'kantog'i	Irlir	764
26	Sulton Uvays	Achchitog'	473
27	Osmontarosh		3953
28	Beshnov		3448
29	Eshonmaydon		2919

30	Xontaxta		2936
31	Bobo Burxon		2476
32	Boysuntog'		4424
33	Qurama	Oqshuron	3745
34	Surxontog'		3722

5-jadval

Tekisliklar, botiqlar, vodiylar, vohalar, cho'llar

Tekisliklar	Botiqlar	Vodiylar	Vohalar	Cho'llar
Toshkentoldi	Qoraxota	Chotqol	Chirchiq	Mizacho'l
Mirzacho'l	Mulali	Ko'ksuv	Ohangaron	Dalvarzin
	Mingbuloq	Piskom	Farg'ona	Nishon
Amudaryo	Nurota-Qo'yotosh	Ugom	Mirzacho'l	Qorqalpoq
	Oyoqog'itma	Chirchiq	Zarafshon	Sandiqliqum
	Asakovdan	Ohangaron	Kitob-Shaxrisabz	Yozyovon
	Sariqamish	Farg'ona	G'uzor	Kattaqum
		Shohimardon	Qarshi	Jizzax
		So'x	Surxon	Toshquduqqum
		Sangzor	Sherobod	Forish
		Surxondaryo	Xorazm	Qizilqum
		Sherobod	Qoraqalpoq	Qoraqum
				Jom
				Qarnob
				Qarshi

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston hududi qanday tektonik strukturalarga ega?
2. Proterazoy erasida O'zbekiston hududida yuz bergen geologik o'zgarishlar?
3. Paleogen davrida O'zbekiston hududida qanday sharoit hukm surgan?
4. Antropogen davridagi geologik jarayonlar?
- 5.O'zbekiston hududidagi zilzilalarni bilasizmi?

§ 3. O'ZBEKISTON IQLIMI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR**Reja:**

1. O'zbekistonning iqlimi yususiyatlari
2. O'zbekiston iqlimini hosil qiluvchi omillar
3. Yil fasllari

Tayanch atamalar: Iqlim hosil qiluvchi omillar, fizik omil, geografik omil, haroratni taqsimlanishi, namlik, bulutlilik, yog'intlar, havoning bosimi, shamol, fasllar.

O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda ya'ni Yevrosiyoning ichki qismida joylashganligi uchun kontinental iqlimga ega. Osmoni ochiq, serostob, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan shu geografik kenglik uchun bir muncha sovuq qish hukmronlik qiladi. Respublika hududining asosiy qismi mo'tadil, janubiy qismi esa subtropik iqlim mintaqasida joylashgan.

O'zbekiston iqlimi uning geografik o'rni, quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulyatsiyasi, relyefi, yer yuzasining holati, antropogen faoliyat ta'sirida tashkil topadi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Iqlim hosi qiluvchi omillar


Fizik omillar	Geografik omillar
Quyosh radiatsiyasi	Geografik o'rni
Atmosfera sirkulyatsiyasi	Relyefi
	Yer yuzasining holati
	Antropogen omil

O'zbekistonning geografik o'rni va Quyosh radiatsiyasi.

O'zbekiston Yevrosiyo materigining markazida, okeanlardan uzoqda (Tinch okeandan 5500 km, Atlantikadan - 4000 km, Shimoliy Muz okeanidan 2500 km, Hind okeanidan 2000 km), berk havzada, shimoliy kengliklar $37^{\circ}11'$ - $45^{\circ}36'$ va $56^{\circ}00'$ - $73^{\circ}10'$ sharqiy uzunliklar orasida joylashgan.

Quyosh nurining yer yuzasiga ko'p yoki kam kelishi va uning taqsimlanishi eng avvalo nuring qanday burchak ostida tushishiga va kunning uzun-qisqaligiga bog'liq. Bular esa o'z navbatida joyning geografik kengligiga va yil fasllariga bog'liq ravishda o'zgaradi. O'zbekistonning chekka shimolida 22 iyun peshin paytida Quyosh nuriy yer yuziga 68°C , Toshkentda 72°C , mamlakatning janubida-Termizda esa 76° li burchak ostida tushadi (3-kartaga qarang).

Qishda esa bu burchaklar shimolida 21° , janubida esa 29° ga teng bo'ladi. Yozda O'zbekistonda kunduz kunning uzunligi 15 soatdan ko'proq davom etsa, qishda 9 soatdan kam emas. Binobarin, O'zbekistonda Quyosh baland ko'tarilganligi, kunning uzunligi, bulutlik kуллarning kamligidan Quyosh uzoq vaqt nur sochib turadi. 35° shimoliy kenglikda yil davomida Quyosh nur sochib turishi mumkin bo'lган vaqt 4447 soatni tashkil qilsa, 40° shimoliy kenglikda 4455 soatga teng. Biroq, O'zbekistonning relyefi va bulutlilik darajasi bu ko'rsatkichlarga ma'lum darajada o'zgartirishlar kiritadi va Quyosh nur sochib turadigan soatlar miqdori Quyosh ufqdan yuqorida turgan soatlar miqdoriga nisbatan kamroq bo'ladi.



3-karta. O'zbekistonning iqlim kartasi

Quyosh nur sochib turadigan vaqt Termizda 3095 soat, Toshkentda 2870 soat, respublikamiz shimolida esa 2000 soatni tashkil etadi.

Tog'larda Quyosh nur sochib turadigan vaqt ufqning ochiqligi, yonbag'irlarning holati (ekspozitsiyasiga) va bulutlikka qarab tekislikdagiga nisbatan biroz kamayadi. Masalan, Angren platosida 2124 metr mutlaq balandlikda u 2692 soatni tashkil etadi.

Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, shimoliy yarimsharda mo'tadil mintaqadagi o'lklar ichida O'zbekistonning tekislik qismi Quyoshning nur sochib turadigan vaqt eng ko'p bo'lgan hudud hisoblanadi. Bu jihatdan AQSHning janubi-g'arbida joylashgan Yuta, Kaliforniya, Nyu-Meksika shtatlari mamlakatimizga tenglasha oladi. Binobarin, O'zbekiston hududi Yer yuzida shu kenglikdagi eng serquyosh o'lka. Bu esa hududimiz iqlimining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

O'zbekistonda Quyoshning ufqdan baland ko'tarilganligi va oftobli kunlar ko'p bo'lganligi sababli bu yer Quyosh radiatsiyasini, ya'ni undan yer yuzasiga tushadigan issiqlikni ko'p oladi. Yalpi Quyosh radiatsiyasidan olayotgan issiqlik miqdori Taxiatoshda -147,1 kkal/sm², Tomdida -153,1 kkal/sm², Toshkentda -139,4 kkal/sm², Qizilchada- 160,8 kkal/sm², Farg'onada -144,7 kkal/sm², Samarqandda- 143,9 va Termizda -159,8 kkal/sm² ga teng. Tabiiyki, yozda qishdagiga nisbatan hududimiz 4-5 marta ko'proq issiqlik oladi. Qishda esa Quyosh radiatsiyasi susaygani uchun O'zbekiston hududiga kirib kelgan har bir havo massasi havo haroratini va umuman ob-havoni tez o'zgartira oladi.

O'zbekiston uchun xos xususiyat-bu uning hududida yillik radiatsiya balansining uncha katta emasligidir. U Tomdida - 43,0, Farg'onada - 47,8, Toshkentda - 53,1, Termizda - 67,1 kkal/sm² ni tashkil etadi. Tog'larda esa balandlikka bog'liq ravishda qishning uzoq davom etishi va qor albedosining kattaligi (60-80%) sababli radiatsiya balansi kamayib boradi. Qish oylarida O'zbekistonning shimolida u ayrim yillari manfiy ko'rsatgichga ega.

Quyoshdan kelayotgan issiqlik hudud iqlimining tarkib topishida muhim omil bo'lishi bilan birga, respublikaning tabiiy boyliklaridan biri hisoblanadi va O'zbekistonda qimmatli issiqsevar o'simliklarni etishtirishga imkon beradi. Quyosh radiatsiyasidan sanoatda, maishiy xizmatda, tibbiyotda ham keng foydalilanildi.

Yer yuzasi holatining O'zbekiston iqlimi shakllanishidagi roli. O'zbekiston hududi janubiy kengliklarda joylashganligidan Quyoshdan katta energiya oladi. Shuning uchun havo haroratining ko'rsatgichlari ancha yuqori. Yoz juda issiq, uzoq davom etadi. Qizilqumda, O'zbekistonning janubida havoning juda ham qizib ketgan o'choqlari paydo bo'lib, havo haroratining o'rtacha ko'rsatgichi yoz oylarida 30° dan ham ko'tarilib ketadi. Bunga sabab tuproq va o'simliklarning qattiq qurib ketishi natijasida bug'lanish va transpiratsiya (*lot. trans orasidan, oralab va spiro - nafas olaman, nafas chiqaraman*) - o'simliklarning suv bug'latishi. Muhim fiziologik jarayonlardan bo'lib, o'simlikning to'xtovsiz nam olib turishiga yordam beradi, tuproqdan mineral tuzlarning kelib turishini ta'minlaydi. Shuning uchun sarf bo'ladigan energiya havoning isitishga sarflanishidir. O'zbekistonda tekislik va tog'

oldi hududlarida havoning bunday isib ketishi mamlakat tabiatining o‘ziga xos xususiyatidir.

Mamlakatning shimol va g‘arb tomonlarida orografik to‘siq yo‘qligi uchun shu tomondan O‘zbekistonga qishda sovuq havo massalari bermalol kirib kelib, havo haroratini pasaytirib yuboradi va bizning hududimiz kengliklariga xos bo‘limgan sovuqlarga sabab bo‘ladi. O‘rta Osiyoda, shu jumladan O‘zbekistonda ham, havo haroratining yillik amplitudasi qo‘shti huudlardagiga nisbatan ancha katta ko‘rsatgichni tashkil qiladi. Bu esa O‘zbekiston iqlimining yuqori darajada kontinentalligini ko‘rsatadi. Bu jihatdan O‘rta Osiyo faqat sharqiy Sibirdan keyin turadi. Shu sababli O‘zbekiston iqlimi juda kontinental iqlim tipiga kiritadi.

O‘zbekistonning cho‘l va adirlardan iborat katta qismida tabiiy nam etarli emas. Ma’lumki, bizga yog‘in-sochinni Atlantika okeani ustida tarkib topgan nam havo massalari keltiradi. Lekin bu nam havo massalari O‘zbekistonga kelgunga qadar yo‘l-yo‘lakay namligini ma’lum miqdorda yo‘qotadi, yoz oylarida esa qurib keladi. Shu sababli O‘zbekiston iqlimi juda ham qurg‘oqchil bo‘lib qoladi.

Atmosfera sirkulyasiyasining O‘zbekiston iqlimining tarkib topishidagi roli. O‘zbekiston iqlimining shakllanishida havo massalari va ularning harakati katta o‘rin tutadi. Havo oqimlari yer yuzida issiqlikni va namlikni qayta taqsimlaydi. Shu tufayli okeanlardan ancha uzoqda joylashgan O‘zbekiston ham muayyan miqdorda nam havo bilan ta’milnadi.


Respublikamiz iqlimining shakllanishida tropik, mo‘tadil va arktika havo massalari juda faol ishtirok etadi, ular hududimizda yil davomida bir-biri bilan almashinib turadi.

Qish oylarida O‘zbekiston ob-havosiga Markaziy Osiyo antisikloni sezilarli ta’sir etadi. Bu antisiklonning g‘arb tomonga cho‘zilgan markaziy o‘qi (uni XIX asrning 80-yillarda birinchi bo‘lib A.I.Voeykov aniqlagani uchun Voeykov o‘qi ham deb yuritiladi) 50° shimoliy kenglik bo‘ylab o‘tadi. Antisiklonning ta’siri respublikamiz shimolida ancha kuchli bo‘lib, Ustyurning janubi - Quyi Amudaryo, Shimoliy Qizilqum chizig‘igacha bo‘lgan huudular iqlimida yaxshi sezilib turadi. Shuning uchun Ustyurtda, Quyi Amudaryoda, Qizilqumning shimolida qish uzoq davom etadi va sovuq qattiq bo‘ladi. Qor qoplami uzoq turadi, yog‘in kam tushadi. Atmosferaning pastki qatlamlarida ko‘pincha kuchsiz shimoli-sharqiy, sharqiy shamollar esadi, havo ochiq bo‘lib, kechasi havo nur tarqatish yo‘li bilan soviydi, kunduzi Quyosh nurlari uni yana isitadi.

Respublikamizning janubiga sovuq faslida siklon harakatlari xos bo‘lib, qishi yog‘in-sochinli, o‘zgaruvchan ob-havoli, qor qoplami yupqa va qisqa muddatli bo‘ladi. Ayrim yillari Markaziy Osiyo antisiklonining sovuq havosi O‘zbekistonning janubiga ham kirib borib, havoni juda sovutib yuboradi. Shuning uchun respublikamizda havo haroratining yillik farqi juda kata (1-rasmga qarang).

Qish oylarida Markaziy Osiyo antisikloni turgan paytda O‘zbekistonga kirib kelgan havo massalari o‘z xususiyatlarini o‘zgartirib, mahalliy kontinental havo massasiga aylanadi. Bunday

paytda O'zbekistonni mo'tadil mintaqaning birmuncha sovuq havosi qoplab oladi.



*I-rasm. A-yoz faslida O'zbekiston hududiga esuvchi havo oqimlari
B- qish faslida O'zbekiston hududiga esuvchi havo oqimlari.*

Qish faslida O'zbekistonda havo haroratining ba'zan 10-20°C ko'tarilib, kunning isib ketishi, bulutli kunlarning ko'payishi janubig'arbdan siklonlar tropik issiq havo olib kelishi bilan bog'liqidir. Bunda yog'in ko'p yog'adi. Bu issiq havo sharqqa o'tib ketib, uning ketidan g'arbdan va shimoli-g'arbdan Atlantika okeani ustida tarkib topgan iliq va sernam havo massalari kirib kelib, ular ham yog'ingarchilikka sabab bo'ladi.

Qish oylarida O'zbekiston ob-havosiga Arktika havo massalari ham ta'sir etadi. Bu havo sovuq bo'lganligidan havo harorati ancha pasayib -10° - 20° C ga tushadi, ba'zan undan ham pasayib ketadi.

O'zbekistonda yozda havo massalarining almashinishi o'ziga xos bo'lib, qishdagidan farq qiladi. Tekislik cho'l zonasida past bosim

markazi (termik depressiya) vujudga keladi. Atrofdan bu depressiyaga kirib kelayotgan havo massalarining fizik xossalari qizib yotgan yer yuzasi ta'sirida o'zgaradi va issiq, quruq Turon kontinental tropik havo massasining shakllanishiga olib keladi va natijada butun O'rta Osiyo tekislik qismini issiq tropik havo qoplab oladi. O'zbekistonga nam havo kirib keluvchi Atlantika okeanidan ancha uzoqda joylashganligi, yozgi haroratning juda ham yuqori va yog'insiz davrning uzoq cho'zilganligi respublikamizda juda katta maydonlarda cho'llarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Demak, O'zbekistonda iqlimning tarkib topishida qishda atmosfera sirkulyatsiyasi, yozda esa Quyosh radiatsiyasi muhim rol o'yinaydi.

Joy relyefining iqlimga ta'siri. O'zbekiston iqlimiga xos bo'lgan xususiyatlar-serquyoshlik, kontinentallik, qurg'oqchilik respublikaning tekislik qismida yaqqol namoyon bo'ladi. Tog'lik qismida esa joyning dengiz sathidan balandligi, yon bag'irlarning Quyoshga nisbatan qanday joylashganligi, tog' vodiylarining chuqurligi va kengligi, ularning nam shamollarga nisbatan qanday joylashganligi, relyefning yana boshqa xususiyatlari iqlimning shakllanishi uchun tekislikdagidan farq qiluvchi o'ziga xos sharoit yaratadi. Toqqa ko'tarilgan sari havo tozalanadi, siyraklashadi va tiniqlashib, Quyosh nurining ta'siri kuchayadi, havo bosimi kamayadi, harorat pasayadi, yog'inlar, ayniqsa, qor ma'lum balandlikda ko'p yog'adi, qor qoplaming saqlanish davri uzayadi, radiatsiya balansi kamayadi, shamol kuchayadi.

Tog‘ tizmalar havo oqimlari yo‘lini to‘sib, nam yoki qurg‘oqchil, iliq yoki sovuq iqlim tarkib topishiga sabab bo‘ladi. Tog‘ relyefi ta’sirida o‘ziga xos tog‘-vodiylar havo sirkulyasiyasi vujudga keladi, bahor, yoz boshlanishi kechikadi, kuz, qish erta keladi. Yoz qisqa, salqin bo‘ladi, qish uzoq davom etadi. Ammo O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan umumiy iqlimi xususiyatlar tog‘larda ham asosan saqlanib qoladi. Lekin, iqlimdagisi keskinlik kamayadi. O‘zbekiston iqlimining shakllanishida O‘rta Osiyoning janubida orografik to‘sinqning mavjudligi, shimolda, shimoli-g‘arbda bunday to‘sinqning yo‘qligi katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda iqlimi sharoit insonning faol xo‘jalik faoliyatiga ham bog‘liqdir. Inson yaratgan vohalarda havoning harorati, namlik darajasi, shamolning kuchi birmuncha o‘zgaradi. Masalan, suv bilan ta’minlangan vohalarda Quyosh energiyasining ancha qismi namni bug‘latishga surf bo‘lgani uchun havo harorati yozda sug‘orilmaydigan hududlarga nisbatan 1,5-3,0°C past, havoning nisbiy namligi 10-15% ortiq bo‘ladi, shamollar kuchi va soni kamayadi. Binobarin, suv bilan yaxshi ta’minlangan, o‘simliklarga boy vohalarda o‘ziga xos voha iqlimi tarkib topadi. Hozir O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlar 4,3 mln.ga atrofida, demak shuncha maydonda tabiat, shu jumladan iqlim o‘zgargan, ayniqsa, atmosferan yer yuzasining meteorologik rejimi chuqur o‘zgarishlarga uchragan. Sug‘orish natijasida tuproq yuzasining mikroiqlimi ham o‘zgaradi.

Iqlim elementlarining hududiy va mavsumiy taqsimlanishi. O‘zbekistonning tekislik qismi subtropik iqlimli cho‘l va mo‘tadil

iqlimli cho‘l zonalarida joylashgan. Iqlimshunoslar subtropik mintaqalari bilan mo‘tadil mintaqalari o‘rtasidagi chegarani Ustyurt platosining janubi - Quyi Amudaryo (Chimboy)-Qoratog‘ yo‘nalishidan o‘tkazadilar. Bu shimoliy (mo‘tadil) va janubiy (subtropik) cho‘llar hamda tog‘lik hududlar iqlimida katta farqlar bo‘lib, ular iqlim elementlarining fasllar bo‘yicha taqsimlanishida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

Issiqlikning taqsimlanishi joyning geografik kengligiga, Quyosh radiatsiyasi miqdoriga, havo massalarining xususiyatiga va yer yuzasining tuzilishiga bog‘liqdir. Meteorologik holatning eng asosiy ko‘rsatgichi havo haroratidir. O‘zbekistonning tekislik qismida havoning yillik o‘rtacha harorati chekka shimolda 8,6°C ga, janubda esa 18°C ga teng. Tog‘lik hududlarda havo haroratining taqsimlanishiga tog‘tizmalarining yo‘nalishi, mutlaq balandligi va Quyoshga hamda havo oqimlarining yo‘nalishiga nisbatan qanday joylashganligi ta’sir ko‘rsatadi. Tog‘larda yuqoriga ko‘tarilgan sari havo harorati pasayib boradi. Shuning uchun tog‘larda havoning yillik o‘rtacha harorati tekislikka nisbatan ancha past bo‘lib, 2200-2500 metrda manfiy ko‘rsatgichga ega.

O‘zbekiston hududida issiqlikning taqsimlanishi haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun avvalo yillik o‘rtacha haroratning joylashishini bilish zarur. O‘zbekiston tekislik qismida o‘rtacha yillik harorat shimoli-g‘arbdan janubi-sharqqa qarab ko‘tarilib boradi. Agar Qoraqalpog‘istonda yillik o‘rtacha harorat (Nukusda-11,0°C, To‘rtko’lda-12,4°C) 8,6-12,4°C atrofida bo‘lsa, Buxoro-Qorako‘l

vohasida (Shofirkonda-14,2°C, Qorako'lda-14,8°C) 14,2-14,8°C, Respublikamizning Surxondaryo vodiysida (Denovda-15,9°C, Termizda-17,8°C, Sherobodda -18,0°C) esa 15,9- 18°C ni tashkil etadi. Demak, O'zbekistonda eng salqin joy Ustyurt platosida, eng issiq joy esa Surxon-Sherobod vohasida joylashgan. Bu hodisa Respublikamizning tog'li qismida buziladi. Chunki yuqoriga ko'tarilgan sari harorat pasayib boradi. Shu sababli Ohangaron platosining 2300 m baland qismida o'rtacha yillik harorat 4,0°C bo'lsa, Turkiston tizmasining 3200 m baland qismida - 0,1°C, G'arbiy Tyanshan tog'larining 3700 m baland qismida esa - 6,5°C dir [6].

O'zbekistonda qish ob-havosi o'zgaruvchan bo'lib, eng sovuq harorat yanvar oyida kuzatiladi. Yanvar oyining o'rtacha harorati ham mamlakatimizning tekislik qismida shimoli-g'arbdan janubga qarab o'zgarib, ko'tarilib boradi: Nukusda-6,9°C, Urganchda-5,1°C, Shofirkonda-1,5°C, Qorako'lda-0,4°C, Qarshida -0,2°C, Sherobodda - 3,6°C. Ushbu ma'lumotlardan ko'riniб turibdiki, O'zbekistonning tekislik qismida Surxon-Sherobod, vodiysi hamda Qashqadaryo viloyatining Kitob, G'uzor kabi joylaridan tashqari qolgan qismida, shuningdek, tog'larida yanvarning o'rtacha harorati nol darajadan pastdir.

Respublikamizda kuzatiladigan iqlimning isishi, quruqlashishi buyrak shamollahshi kasalligni davolashda, shuningdek, tog'li qismida havo nisbatan o'rtacha quruq bo'lib, o'pka, yurak-qon tomir, astma, bronxit kasalliklarini davolashda muhim rol o'ynaydi.

Dam olish, xordiq chiqarish uchun sanatoriya, dam olish uylari bor. (Tyanshan, Hisor, Farg'ona tog'larida) Bo'stonliqda Chimyon, Oqtosh; Farg'ona vodiysida Shohimardon kabi shifobaxsh joylar misol bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekistonning joylashgan geografik o'rni iqlimga qanday ta'sir etadi?
2. Nima sababdan O'zbeksitonga yozda Quyosh nuri tik tushadi?
3. Nima sababdan O'zbekistonning tekislik va tog'lik qismlarida Quyoshning nur sochib turish davri farq qiladi?
4. Iqlimi vujudga kelishida atmosfera sirkulyatsiyasining ahamiyatini tushuntiring?
5. Mahalliy shamollar qanday vujudga keladi?

§ 4. O'ZBEKISTONNING YER USTI VA YER OSTI SUVLARI. ULARDAN TURIZMDA FOYDALANISH

Reja:

1. Daryolar, ko'llar va suv omborlar
2. Yer osti suvlari
3. Ichki suvlardan turizmda foydalanish


Tayanch atamalar: *Daryolar, suv omborlar, daryolarning to'yinishi, muzlashi, ko'llar, yer osti suvlari, Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Ohangaron.*

O'zbekistonning 71% tekislik qismida tog'larda vujudga kelgan suvlar bug'lanish, dalalarni sug'orish shaxobchalarida bug'lanish va shimilish natijasida sarflanadi. Tekislik qismida yog'in kam jazirama issiq kunlari bug'lanishning ko'pligi oqibatida daryolar juda kam, yer osti suvlari nisbatan chuqurda joylashgan va sho'rtang. Mamlakatimizdagi yirik daryo, ko'l va suv omborlarning joylashgan geografik o'rni 4-kartada berilgan.

Shu sababli tekislik qismidagi tranzit daryolarni hisobga olmaganda doimiy oqimli daryolar yo'q. Suv oqimlari yer yuzasi relyefini o'zgartiradi, tuproq hosil bo'lishida, o'simliklarni rivojlanishida, xalq xo'jaligi va maishiy turmushda muhim ahamiyatga ega.

Daryolarning to'yinish xususyatiga ko'ra 4 ta tipga bo'linadi:

1. Muz-qor suvlardan to'yinadigan daryolar
2. Qor-muz suvlardan to'yinadigan daryolar
3. Doimiy qor suvlardan to'yinadigan daryolar
4. Mavsumiy qor va yomg'ir suvlardan to'yinadigan daryolar.



4-karta. O'zbekistonning ichki suvlari kartasi

Muz-qor suvlaridan to'yinadigan daryolar (4500 m dan yuqori) - Amudaryo, Zarafshon, Isfayramsov, So'x, Isfara kabi daryolar kiradi. To'lin suv davri iyul-avgust oylari bo'lib, yillik oqimning 30-50% ni iyul-sentyabr oylarida oqizadi. To'lin suv davri may-iyun oylari bo'lib, yillik oqimning 30-40% ni oqizadi. Eng kam suvi yoz oxiri va qishga to'g'ri keladi;

Qor-muz suvlaridan to'yinadigan daryolar (3400-4500 m) Sirdaryo, Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Surxondaryo, Tanxoz daryolari kiradi. To'lin suv davri may-iyun oylari bo'lib, yillik oqimning 30-40% ni oqizadi. Eng kam suvi yoz oxiri va qishga to'g'ri keladi;

Doimiy qor suvlaridan to'yinadigan daryolar (3400 m dan past) Qashqadaryo, G'uzordaryo, G'ovasoy, Sangardak daryolaridir. To'lin suv davri mart -may oylari bo'lib, yillik oqimning 60 % ni, oqizadi. Eng kam suvi avgust-sentyabr oyiga to'g'ri keladi;

Mavsumiy qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar (2000 m dan past) Zominsuv, Sheroboddaryo, Tursundaryo, Ohangaron, Keles va juda ko'p soylar kiradi. To'lin suv davri mart - aprel oylari bo'lib, yillik oqimning 80 % ni, oqizadi. Eng kam suvi yozning ikkinchi yarmida, ba'zi soylar suvi qurib qoladi.

Amudaryo O'zbekistonning eng sersuv va suv yig'adigan maydoni jihatidan eng katta daryosidir. Daryoni qadimgi *yunon va rimliklar* - Oqsu, *arablar* - Jayhun, *mahalliy xalqlar* - Omul deb ataganlar. Amudaryo Hindiqush tog'larining shimoliy yonbag'rida 4950 m balandlikda joylashgan Vrevskiy muzligidan Vahjir nomi bilan boshlanadi. So'ngra Vahandaryo deb yuritiladi. Vahandaryo Zo'rko'lidan

kelayotgan Pomir daryosi bilan qo'shilib, Panj nomini oladi. Panj daryosiga o'ngdan G'unt, Bartang, Yazg'ulom, Panch, Qizilsuv irmoqlari kelib qo'shiladi. Nihoyat Panj Vaxsh daryosi bilan qo'shilgach Amudaryo deb ataladi. Unga o'ngdan Kofirnihon Surxondaryo, chapdan esa Qunduzdaryo irmoqlari kelib qo'shiladi. Sheroboddaryo esa Amudaryoga ba'zi yillari quyiladi. Ko'hitangdaryo esa umuman yetib kelmaydi. Amudaryo tekislikka chiqqach sekin oqib, Orol dengizigacha unga birorta ham irmoq qo'shilmaydi [10].

Amudaryoning uzunligi 2540 km, shundan 1500 km tekislikdagagi qismi O'zbekiston hududidan oqib o'tadi. Amudaryoning suv yig'adigan maydoni 465 ming km² bo'lib, shundan 227,3 ming km² tog'li qismiga to'g'ri keladi. Amudaryo tog'li qismida tor o'zanda shiddat bilan oqib, o'zani o'rtacha har bir km ga 4 m, ayrim qismida 10 m pasayib boradi. Bunday joylarda daryo juda tez oqib, oqimning tezligi sekundiga ayrim qismida 6 m gacha boradi. Aksincha, tekislik qismida u nishab o'zanda sekin oqib, har bir km ga 0,2 - 0,3 m pasayadi, oqimning o'rtacha tezligi sekundiga 1-3 m ga tushib qoladi. Natijada daryo qirg'og'ini tez yuvib, o'zanini o'zgartib turadi. Bu hodisani mahalliy xalq "degish" deb ataydi: daryo qirg'og'ini sutkasiga bir necha metrgacha yuvadi. 1898 yili Amudaryo Qarki shahari yonida 6 minut ichida 10 m qirg'og'ini o'pirib yuvib ketganligi ma'lum. 1932 yili iyul oyida Amudaryo To'rtko'l shahri chetidagi eni 500 m qirg'og'ini yuvib ketgan. Natijada, Qoraqalpog'iston respublikasining poytaxti Nukusga ko'chirilgan.

Sirdaryo O'zbekistonning eng uzun (3019 km) daryosi bo'lib, suvining ko'pligi jihatidan Amudaryodan so'ng ikkinchi o'rinni

egallaydi. Sirdaryo Markaziy Tyanshanda joylashgan Oqshiroqtoshdag'i Petrov muzligidan boshlanuvchi Qorasoy hamda Tarag'ay daryolarning qo'shilishidan vujudga kelgan Norin bilan Farg'ona tizmasidan suv yig'uvchi Qoradaryoning Namangan shahri yaqinidagi Baliqchi qishlog'ida birlashishidan vujudga keladi.

Sirdaryoni *yunonlar* -Yaksart, *arablar* - Sayxun deb ataganlar. Beruniy asarlarida Sirdaryo *Xasat* shaklida tilga olinadi. Sirdaryo so'zi dastlab Rim tarixchisi Pliniy asarida "Silis" tarzida uchraydi. "Silis" yoki "Sir" so'zi "Bu daryo qirg'oqlarida yashagan qabila" nomidan olingen bo'lsa kerak degan taxminlar bor.

Sirdaryo Farg'ona vodiysida sekin oqsada, lekin nisbatan chuqur o'zan hosil qilib, qirg'oqlarini yuvib, tikka jarlar hosil qilgan. Farg'ona vodiysidan chiqib Chirchiq irmog'i qo'shib olgandan so'ng uning o'zani kengayib, ilonizi bo'lib, sekin oqadi, qirgoqlari esa pasayadi.

Sirdaryoning Farg'ona vodiysida doimiy irmog'i yo'q. Lekin, sug'orishga sarflanib, Sirdaryoga yetib kelmaydigan Chotqol va Qurama tog'laridan boshlanuvchi Chortoqsoy, Pochchaota, Kosonsoy G'ovasoy, Chatoqsoy kabi o'ng irmoqlari, Oloy va Turkiston tog'laridan boshlanuvchi Oqbo'ra, Aravansoy, Isfayramsov, Shohimardonsov, So'x, Isfara, Xo'jabaqirgan, Oqsuv kabi chap irmoqlari mavjud. Bu irmoqlar tog'lardan boshlanganligi tufayli tog' o'zanda shiddat bilan oquvchi, uzunligi 80-160 km yetuvchi daryochalardir. Sirdaryo Farg'ona vodiysidan oqib chiqqach, o'ng tomondan unga Ohangaron, Chirchiq, Keles va Aris kabi irmoqlari kelib quyiladi. Sirdaryo Orol dengiziga borib quyiladi.

Qashqadaryo Hisor tizmasining g'arbiy qismida joylashgan tortosh dovoni yaqinida 3000 m balandlikdan kichik soycha sifatida boshlanadi va Muborakka 10 km yetmasdan qurib koladi. Shu masofada daryoning uzunligi 332 km, suv yig'adigan havzasining maydoni - 8750 km² ni tashkil qiladi.

Qashqadaryo boshlanish qismidan Varganzi qishlog'igacha "V" shaklidagi vodiy hosil qilib, tor o'zanda tez oqadi. Varganzi qishlog'idan o'tgach Qashqadaryo vodiysi kengayadi, oqimi sekinlashadi va Qarshi cho'liga kirib boradi. Varganzi qishlog'idan Oqsuv irmog'i qo'shib olgunga qadar Qashqadaryo vodiysining kengligi 150 - 300 m dan oshmaydi. Oqsuv irmog'i qo'shilgandan so'ng uning vodiysi kengayib, 800 - 1500 m ga yetadi. So'ngra, Qashqadaryo vodiysi muttasil kengayib boraveradi, oqimi esa juda sekinlashib, ilon izi bo'lib oqadi. Qarshi shahridan o'tgach Qashqadaryo vodiysi juda ham kengayib ketib, uning chegarasini aniqlash ancha qiyin.

Qashqadaryo qayirlari Dug'oba qishlog'idan quyida kengayib, 300 m gacha yetadi. Qayirning ba'zi yerlari o'tloqlardan, ba'zi joylari esa shag'allardan iborat. Daryo sersuv bo'lgan yillari bu qayirlarni suv bosib ketadi.

Qashqadaryoga bir necha irmoqlari kelib qo'shiladi. Ularning eng muhimlari (chap tomondan) Jinnidaryo, Oqsuv, Tanxoz, Yakkabog', G'uzor kabi irmoqlaridir. Qashqadaryoning o'ng irmoqlari yo'q lekin bir necha soy va jilg'alar kelib qo'shiladi.

Qashqadaryo asosan qor suvlaridan to'yinadi. Shu sababli eng ko'p suv sarfi may oyiga, eng kam suv sarfi esa yanvar-dekabr oylariga

to'g'ri keladi. Qashqadaryoning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Varganzi qishlog'i yonida sekundiga $5,46 \text{ m}^3$ ni tashkil etadi. Eng kam suv sarfi sekundiga $0,60 \text{ m}^3$, eng ko'p suv sarfi esa sekundiga $98,0 \text{ m}^3$ ni tashkil qiladi.

Chirchiq daryosi Sirdaryoning eng katta va eng sersuv o'ng irmog'i hisoblanib, G'arbiy Tyanshan tog' tizimlaridagi doimiy qor va muzliklardan Chotqol, Ko'ksuv, Pskom nomi bilan boshlanadi. Chorvoq botig'ida (Chorvoq suv ombari o'mnida) Chotqol va Pskom qo'shilib, Chirchiq nomini oladi. Chorvoq botig'idan chiqqach Chirchiq daryosiga o'ng tomondan Ugom, Qizilsuv, Qoraqiya, Oqtosh, chap tomondan esa Oqsoqota, Parkentsoy, Boshqizilsoy irmoqlari kelib ko'shiladi. So'ngra Sirdaryoga borib qo'shilgancha biron ta ham irmoq kelib qo'shilmaydi. Aksincha, sug'orish shoxobchalari (Zaxariq, Shimoliy Toshkent, Bo'zuv, Toshkanal va boshqalar) orqali uning suvi sug'orishga sarflanib Sirdaryoga juda oz suv quyadi.

Chirchiq daryosining uzunligi 174 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 13240 km^2 ni tashkil etadi. Chirchiq daryosi Chimmoqliq qishlog'igacha tor o'zanda tez oqadi, so'ngra to Sirdaryogacha keng o'zanda ilon izi bo'lib oqadi. Lekin, hozir Xo'jakent va G'azalkent suv ombarlari qurilishi tufayli o'sha chuqur o'zani suv bilan to'lgan.

Chirchiq daryosi qor va muzlarning erishidan to'yinadi. Shu sababli uning suvi mart-iyun oylarida ko'payadi va yillik oqimning 53% ini o'tkazadi. Eng kam suv sarfi qish fasilda - dekabr-fevral oylariga to'g'ri keladi. Chirchiq daryosining o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Chimmoqliq qishloqi yonida sekundiga 220 kubometr, eng ko'p suv sarfi sekundiga

2160 kubometr (1959 yil 8 aprelda) ni tashkil etadi. Eng kam suv sarfi esa sekundiga 22 m^3 (1956 yid. 23 fevralda).

Chirchiq daryosining o'rtacha loyqaligi torli qismida har bir kubometr suvida 260 g bo'lsa, quyi qismida 520 g yetadi. Chirchiq daryosi (quyi qismidan tashqari) yoppasiga muzlamaydi, lekin tovush hodisasi sodir bo'lib, 8 kundan 56 kungacha davom etishi mumkin.

Ko'llar va suv ombarlari. Ko'llar nisbatan kam bo'lib ular notekis joylashgan. Aksaryati kichik bo'lib mahalliy ahamiyatga ega. Tog'larda to'siq (to'g'on), morena va tektonik ko'llar vujudga keladi. Ko'llarning soni 5360 ta bo'lib shularning 56,5% tekislik, 43,5 % tog'larda joylashgan. Yuzasi maydonining 67% tekisliklar tashkil etadi.

Tog'larning 1000-2000 m - 82 ta, 2000-3000 m - 165 ta, 3000 m - 2083 ta ko'l bor. Eng muhimlari *Isfayram havzasidagi* -Yashinko'l, Chirchiq daryo, Shovurko'l, Nilnach, Karatak, Chotqol-1, Chotqol-2, *Shohimardon yaqinida* Qubbonko'l, *Ohangaron havzasida* Aroshon, *Sherobod havzasida* Konbeshbulouq ko'li va boshqalar.

Tekislik qismida daryo vodiylari, quyi qismlarida joylashgan ular kichik, sayoz va sho'r daryo suvi. Qulay chapda suvlar to'lib o'z oxirida sayozlanib qoladi, ba'zilari qurib sho'rxokka aylanadi. Eskidaryo o'zanlaridagi ko'llar suvi daryodan tamomila ajralmas bo'lsa chuchuk bo'ladi, ajralib qolsa sho'r bo'ladi.

Ko'llarning rejimi daryo rejimiga bog'liq. Sug'oriladigan maydonlardan chiqarib tashlaydigan zovur suvlarining to'planishidan (Aydar, Arnasoy, Dengizko'l Qoraqir) esa o'ta sho'r bo'lib, tarkibida

har xil kimyoviy zaharli moddalar uchraydi. Suv sathi ekin dalalarini sug'orish davrida ko'tarilib qishda ancha pasayib qoladi.

Quyidagi 7-jadvalda mamlakatimiz hududidagi daryolar berilgan.

7-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududidagi daryolar

<i>Nº</i>	<i>Daryo nomi</i>	<i>Manbai</i>	<i>Mansabi</i>	<i>To'yi nishi</i>
1	Amudaryo	Pomir	Orol dengizi	Muz-qor
Amudaryo irmoqlari				
2	Surxondaryo	Hisor	Amudaryo	Qor-muz
3	Sherobod	Boysun	Amudaryo	Qor
4	Qashqadaryo	Hisor	Amudaryo	Qor
5	Zarafshon	Ko'ksuv	Amudaryo	Muz-qor
Surxondaryo irmoqlari				
6	To'polon	Hisor	Surxondaryo	Qor-muz
7	Qoratog'	Hisor	Surxondaryo	Qor-muz
8	Qizilsuv(Sangardak daryo)	Boysun	Surxondaryo	Qor-muz
9	Xalqajar	Boysun	Surxondaryo	Qor-muz
10	Darasoy	Boysun	Surxondaryo	Qor
11	Toshko'priksoy	Boysun	Surxondaryo	Qor
12	Ajaraysoy	Boysun	Oqqopchig'ay kanali	Qor
To'polondaryo irmoqlari				
13	Qorasuv	Hisor	To'polondaryo	Qor-muz
14	G'ova	Hisor	To'polondaryo	Qor-muz
15	Tamshush	Hisor	To'polondaryo	Qor-muz

16	Kishtut	Hisor	To'polondaryo	Qor-muz
17	Duoba	Chaqchar	To'polondaryo	Qor-muz
18	Sho'rob	Hisor	To'polondaryo	Qor
19	Oybek	Hisor	Tamshush	Qor-muz
20	Shaxtrud	Chaqchar	Tamshush	Qor-muz
21	Xovat	Hisor	Tamshush	Qor-muz
22	Og'ashaytoton	Hisor	Kishtut	Qor-muz
23	Bodomiston	Hisor	Kishtut	Qor-muz
Qoratog'daryo irmoqlari				
24	Obizarang	Hisor	Qoratog'	Qor-muz
25	Manzobsoy	Hisor	Qoratog'	Qor-muz
Sheroboddaryo irmoqlari				
26	Gazak	Tubere Oland	Sherobod	Qor
27	Laylaksoy	Ko'hitang	Sherobod	Qor
28	Maydontol	Ko'hitang	Sherobod	Qor
29	Xanjarsoy		Sherobod	Qor
30	Kagni	Takasaqirt	Oqqopchig'ay kanali	Qor
Qashqadaryo irmoqlari				
31	Oqsuv	Hisor	Qashqadaryo	Qor-muz
32	Jinidaryo	Oqota va Sherdog'	Qashqadaryo	Qor-muz
33	Tanxozdaryo	Hisor(G'oziko'l)	Qashqadaryo	Qor
34	Yakkabog'daryo	Hisor	Qashqadaryo	Qor
35	G'uzordaryo	Chaqchar	Qashqadaryo	Qor
36	Langar	Hisorning tarmoqlari	Qashqadaryo	Qor

37	Oyoqchidaryo	Zarafshon	Qashqadaryo	Qor
Oqsuv, Langar, Yakkabog'daryo irmoqlari				
38	Qorasuv	Hisor	Oqsuv	Qormuz
39	Tumshush	Hisor	Oqsuv	Qormuz
40	Guldara	Hisorning tarmoqlari	Langar	Qor
41	Qizildaryo	Hisor	Yakkabog'daryo	Qor
42	Tirna	Hisorning tarmoqlari	Yakkabog'daryo	Qor
G'uzordaryo irmoqlari				
43	Katta O'radaryo	Chaqchar	G'uzordaryo	Qor
44	Kichik O'radaryo	Sariqiya	G'uzordaryo	Qor
45	Igrisuv	Chaqchar	Katta O'radaryo	Qor
46	Oqsuv	Chaqchar	Katta O'radaryo	Qor
47	Oqrobod	Tubere Oland	Kichik O'radaryo	Qor
48	Kan	Tubere Oland	Kichik O'radaryo	Qor
Amudaryo irmoqlari				
49	Daryo	Sandiqli qumlar	Tubere Oland	Qor
50	Torqopchig'ay	Daryo	Tubere Oland	Qor
Zarafshon irmoqlari				
51	To'sunsoy	Janubiy Nurota	Sug'orishga sarf.	Qor
52	Oqsoy	Janubiy Nurota	Sug'orishga sarf.	Qor
53	Sag'anaq	Janubiy Nurota	Sug'orishga sarf.	Qor
54	Oqdaryo	Zarafshon	Sug'orishga sarf.	Qor
55	Ilonsoy	Zarafshon	Sug'orishga sarf.	Qor
Amudaryo o'zanlari				
56	Ko'hnadaryo	Amudaryo	Orol dengizi o'zani	
57	Daryoliq	Amudaryo	Sariqqamish ko'li	
58	Ko'llar	Amudaryo	Daryoliq	
59	Davdan	Amudaryo	Qumlarga	
60	Ko'kdaryo	Amudaryo	Orol dengizi o'zani	
61	Qozoqdaryo	Amudaryo	Jiltirbosh ko'li	
Sirdaryo irmoqlari				
62	Sirdaryo	Markaziy Tyanshan	Orol dengizi	Qormuz

63	Norin	Markaziy Tyanshan	Sirdaryo	Qormuz
64	Qoradaryo	Farg'ona va Oloy	Sirdaryo	Qormuz
65	Ohangaron	Chotqol va Qurama	Sirdaryo	Qor
66	Chirchiq	Chotqol va Otoynoq	Sirdaryo	Qormuz
Farg'ona vodiysidagi daryo va soylar				
67	So'x	Oloy	Sug'orishga sarf.	Muz-qor
68	Shohimardon	Oloy	Sug'orishga sarf.	Muz-qor
69	Isfara	Turkiston	Sug'orishga sarf.	Muz-qor
70	Achehisuv	Turkiston	Sug'orishga sarf.	Qormuz
71	Isfayramsoy	Oloy	Sug'orishga sarf.	Muz-qor
72	Oqbura	Oloy	Sug'orishga sarf.	Muz-qor
73	Aravansoy	Oloy	Sug'orishga sarf.	Muz-qor
74	Qurshab	Oloy	Qoradaryo	Muz-qor
75	Moylisuv	Farg'ona	Qoradaryo	Qor
76	Tentaksoy	Farg'ona	Qoradaryo	Qor
77	Ko'gart	Farg'ona	Qoradaryo	Qor
78	Chodaksoy	Qurama	Sug'orishga sarf.	Qor
79	G'ovasoy	Chotqol	Sug'orishga sarf.	Qor
80	Kosonsoy	Chotqol	Sug'orishga sarf.	Qor
81	Podshoota	Chotqol	Sug'orishga sarf.	Qor
82	Chortoqsoy	Chotqol	Sug'orishga sarf.	Qor
83	Kenko'lsoy	Qurama	Sug'orishga sarf.	Qor
84	Ingichka	Qurama	Sug'orishga sarf.	Qor
85	Sarvaksoy	Qurama	Chodaksoy	Qor
86	Rizaksoy(Qizilsuv)	Qurama	Chodaksoy	Qor
87	Kuyduksoy	Qurama	Chodaksoy	Qor

88	Sansalaksoy	Qurama	Kuyduksoy	Qor
89	Sansalak	Qurama	Kuyduksoy	Qor
90	Suyuqsuv	Qurama	Kuyduksoy	Qor
91	Sharsoy	Qurama	Kuyduksoy	Qor
92	Sasivorsoy	Qurama	Kenko'lsoy	Qor
93	Islik	Qurama	Kenko'lsoy	Qor
Ohangaron irmoqlari				
94	Qoraqiyasoy	Qurama	Ohangaron	Qor
95	Olmaliqsov	Qurama	Ohangaron	Qor
96	Qizota	Qurama	Ohangaron	Qor
97	O'rgaz	Qurama	Ohangaron	Qor
98	Shovvoz	Qurama	Ohangaron	Qor
99	Kendir	Qurama	Ohangaron	Qor
100	Layak	Qurama	Ohangaron	Qor
101	Navgarzon	Qurama	Ohangaron	Qor
102	Qumko'l	Qurama	Ohangaron	Qor
103	Kamchiq	Qurama	Ohangaron	Qor
104	Qaindi	Qurama	Ohangaron	Qor
105	Qayqi	Qurama	Qaindi	Qor
106	Kyonko'l	Qurama	Ohangaron	Qor
107	Ulug'lisoy	Qurama	Ohangaron	Qor
108	Tallisoy	Qurama	Ohangaron	Qor
109	Chiylisoy	Qurama	Ohangaron	Qor
110	Oqtoshsoy	Qurama	Ohangaron	Qor
111	Mulaturak	Qurama	Oqtoshsoy	Qor
112	Uchayriqsov	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
113	Kenchsozsov	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
114	Qiziltoshsov	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
115	Qorosoy	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
116	O'rtaliqsov	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
117	Qiziltorsov	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
118	Zekirko'l	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
119	Uchsov	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
120	Qo'yotoshsov	Chotqol	Oqtoshsoy	Qor
121	Arashon	Chotqol	Ohangaron	Qor
122	Toshsov	Chotqol	Ohangaron	Qor
123	Kelimchek	Chotqol	Ohangaron	Qor

124	Lochinqiya	Chotqol	Ohangaron	Qor
125	Qizilcha	Chotqol	Ohangaron	Qor
126	Dokantsoy	Chotqol	Ohangaron	Qor
127	Jakindek	Chotqol	Dokantsoy	Qor
128	Qorabav	Chotqol	Ohangaron	Qor
129	Aqchasoy	Chotqol	Ohangaron	Qor
130	Shovvozsov	Chotqol	Ohangaron	Qor
131	Qoraboshsov	Chotqol	Ohangaron	Qor
Chirchiq irmoqlari				
132	Chotqol	Chotqol va Otoynoq	Chirchiq	Qormuz
133	Piskom	Pskom	Chirchiq	Qormuz
134	Ugom	Ugom	Chirchiq	Qor
135	Ko'ksuv	Pskom va Ko'ksuv	Chirchiq	Qor
136	Qizilsuvsov	Qorjantov	Chirchiq	Qor
137	Qoraqiyasoy	Qorjantov	Chirchiq	Qor
138	Oqtoshsov	Qorjantov	Chirchiq	Qor
139	Qoranqulsov	Chotqol	Chirchiq	Qor
140	Glavasoy	Chotqol	Chirchiq	Qor
141	Oqsoqotasoy	Chotqol	Chirchiq	Qor
142	Parkentsov	Chotqol	Chirchiq	Qor
143	Zarkentsov	Chotqol	Chirchiq	Qor
Chotqol irmoqlari				
144	Teraklisoy	Chotqol	Chotqol	Qor
145	Toshkesken	Chotqol	Teraklisoy	Qor
146	Oqbuloq	Chotqol	Teraklisoy	Qor
Pskom irmoqlari				
147	Oygaying	Pskom	Pskom	Qormuz
148	Maydontol	Talas Olatov	Pskom	Qormuz
149	Ixnachko'l	Pskom	Pskom	Qor
150	Shobirsov	Pskom	Oygaying	Qormuz

Zarafshon daryosini quyi qismida: Dengizko'l, Somonko'l, Kultako'l, Sho'rko'l, Qoraqir, Xo'janobko'l, Farg'ona - Axsikentko'l, Damko'l, *Quyi Amudaryoda* - Sariqamish, Karp, Ziyko'l, Abilko'l, Oqko'l, Sudochye, Buzatovko'l, Zariko'l, Tubonko'l kabilardir. Bularning maydoni bir necha yuz gektardan 10 km² yetadi.

Orol: tektonik ko'l suv sathi 53,4 m. Maydoni – 66,1 ming km, o'rtacha chuqurligi – 16,1 m, chuqur yeri 492 km, eng keng yeri 292 km sho'rligi 10-11 % oo suv sathi - 1062 km³. Shimoliy - sharq, sharq va janubiy qirg'oqlari tekis va past. G'arbiy qismi baland va tik. G'arbiy qirg'og'iga Ustyurt balandligi jarligi tushadi. Chinklar 190-195 m balandda turadi.

1961 yil suv sathi 53,4 m (Amudaryo 38,6 km³, Sirdaryo 13,2 km³) ikki daryo 51,8 km³ suv olib kelib quygan yog'indan 5,8 km³ suv vujudga kelgan. 1 yilda 57,8 km³ suv kelib 58,6 km³ suv bug'langan. 1975 yilga kelib - 10,6 km³ (Amudaryo 10 km³, Sirdaryo 0,6 km³), 1985 yil 2,4 km³ (1980-88 yillar Sirdaryo umuman suv quymagan), 1986 yil 0,4 km³ suv quyilgan. 1992 yilga kelib suv yuzasi 15,3 m ga pasayib sho'rligi 34-37 % oo suv qirg'oqdan 50-100 km ga chekingan, 1988 yili 23 km³ (Amudaryo 16 km³, Sirdaryo 7 km³ suv quygan) Bug'lanish esa 32-33 km³ (1991 yil) bu esa Orol suvining pasayyotganidan dalolat beradi. Xalq xo'jaligida suvni tejab Orolga oqizilmasa suv sathi 20 m ga pasayib maydoni 23,3 ming km² tushib, ko'lda 162 km³ suv qoladi sho'rligi 77 % ga ko'tariladi va quydagi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda:

Orol ko'lining hamma qirg'oqlari bir xil emas. Uning shimoli-sharqiy, sharqiy va janubiy qirg'oqlari tekis va past. Aksincha, g'arbiy qirg'og'i baland va tik. Chunki, Orolning g'arbiy qirgoriga Ustyurt balandligini sharqiy jarligi (chinklari) tik tushgan. Ba'zi yerlarda Ustyurtning chinklari Orol dengizidan 190-195 m. balandlikda turadi. Orol dengizining shimoli-sharqiy, sharqiy va janubiy qirg'oqlari past, egri-bugri bo'lib, qo'ltiqlari, kichik orollar juda ko'p. Orolorda 313 dan ortiq katta va kichik orollar mavjud. Ularning eng kattalari - Ko'korol, Vozrojdeniye, Borsakelmas orollaridir. Bu orollarning maydoni Orol suv sathining pasayishi munosabati bilan kattalashib bormoqda [20].

Yer osti suvlaring turlari **1. Grunt suvlari** yer osti suvining eng ustki qatlami hisoblanib, yer betiga yaqin joylashgan. U odatda suv o'tkazmaydigan qatlamning ustida yig'iladi. Bu yerga suv yer yuzidan va yog'inlardan, daryo, ko'l, ariq, suv omborlaridan sizib keladi va to'yintirib turadi. Chunki, grunt suvining ustki qismida suv o'tkazmaydigan jinslar deyarli yo'q. Grunt suvleri bosim kuchiga ega emas, ular faqat og'irlik kuchi ta'sirida sizib yuradi. O'zbekiston hududida grunt suvleri uning tabiiy sharoitiga, xususan, litologik tarkibi va relyefiga bog'liq holda quyidagi uchta mintaqada (zonada) hosil bo'ladi: tor mintaqasi; tog' oldi va tog' oraligqlaridagi mintaqqa, cho'l (tekislik) mintaqqa. Eng ko'p grunt suvining to'planishi O'zbekiston tog'larining 1500 m dan 3000-3500 metrgacha bo'lgan balandliklariga to'g'ri keladi.

2. Qatlamlar orasidagi suvlar. Nisbatan chuqurda, suv o'tkazmaydigan ikki qatlam jinslar orasidagi bo'shliqlarda suzib

yuruvchi suvgaga qatlamlar orasidagi suvlar deyiladi. Bunday suvli qatlamlar ikki-uch va hatto o'n-o'n beshdan ortiq qatlamlardan iborat bo'lishi mumkin. O'sha qatlamlar orasidagi suvlar bosim kuchiga ega bo'lsa, artezian suvlari deb yuritiladi. Artezian suvlari mavjud bo'lgan joylar artezian havzasi deb yuritiladi. O'zbekiston hududida bir qancha artezian havzalari joylashgan. Ularning eng muhimlari Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent oldi, Mirzacho'l, Qizilqum, Qarshi va boshqalar [11].

3. Minerallashgan termal suvlar. Bunday yer osti suvining turi ancha chuqurda (1500-3500 m va undan ham chuqurda), asosan mezozoy va paleozoy davri yotqiziqlari orasida joylashgan. Ularning harorati 40-70°C ga yetib, tarkibida har xil minerallar erigan holda uchraydi. Mineral suvlari tarkibida karbonat kislotasi, vodorod sulfidi, yod, brom, bor, litiy, bariy, radioaktiv moddalar va boshqa tuzlar erigan holda mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ichki suvlarni hosil bo'lishida relyef va iqlimiylar omillar qanday ta'sir etadi?
2. Nima uchun baland tog'lardan boshlanuvchi daryolarning suvi yozda ko'payadi?
3. Nima uchun tekislik hududlarida daryolar irmoqlari mavjud emas?
4. Nega Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolariga nisbatan loyqa?
5. Nima sababdan O'zbekiston daryolari tog'li qismida yoppasiga muzlamaydi, aksincha, tekislik qismida muzlaydi?

§ 5. O'ZBEKISTONNING TUPROQ, O'SIMLIK VA HAYVONOT OLAMI

Reja:


1. O'zbekiston hududida tuproqlarning tarqalish qonuniyatları
2. O'simliklarning tarqalish qonuniyatları
3. Hayvonot dunyosini hudud bo'yicha tarqalish qonuniyatları

Tayanch atamalar: *Tekislik, tog' oldi tuproqlari, adir, tog', bo'z tuproq, sur-qo'ng'ir tuproq, cho'l tuproqlari.*

O'zbekistonning tabiat (resurslari) unsurlari va uning xususiyatlari uning hamma qismida bir xil bo'lmasligi relyefining murakkabligi, tog' jinslarining kelib chiqishi va litologik tuzilishining hamda gidrologik sharoitining xilma-xilligi, arid tipli kontenental iqlim va o'simliklarning mavjudligi har xil tuproq turlarining vujudga kelishiga sababchi bo'lgan.

O'zbekiston tekislik qismi bilan tog'li qismi orasida ham tabiiy unsurlarning farqi juda katta. Shu sababli tekislik qismida tuproqning zonallik xususiyati mavjud bo'lib, cho'lga xos tuproq turlari shakllansa, aksincha, tog'li qismida balandlik mintaqalanish vujudga kelgan (5-kartaga qarang).

Mamlakatimiz tekislik qismida ham qoldiq tog'lar, balandliklar, vodiylar botiqlar mavjud bo'lib, ularda tuproq hosil bo'lish jarayoni bir-biridan farq qiladi. Buning ustiga yilning ko'p qismi issiq quruq va serostob bo'lganligidan tuproq hosil bo'lish jarayoni sust bo'ladi. Yoz qurg'oqchil, harorat yuqori bo'lganligidan mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 15-20 metrgacha ortiq bo'lib, tuproq tarkibida har xil tuzlar to'planib, tuproq ko'p joyda sho'rashgan.



O'zbekiston hududining yer osti suvlari nisbatan chuqr joylashgan tekisliklarda sur-qo'ng'ir, tog' oldi tekisliklari va adirlari bo'z, tog'larda jigar rang, qo'ng'ir tog' o'rmon kabi avtomorf tuproq turlari joylashgan. Aksincha, yer osti suvlari yuza bo'lgan joylarda *gidromorfli tuproqlar*-o'tloq, botqoq, botqoq-o'tloq kabi tuproq turlari mavjud. Gidromorfli tuproq turlari yana joyning gidromorfologik sharoitiga bog'liq holda tog' oldi tekisliklarida ham uchraydi.

O'zbekistonda arid iqlim sharoitida vujudga kelgan sur - qo'ng'ir tusli taqir, qumli kabi tuproqlarida chirindi miqdori nihoyatda kam bo'lib tuproqning ustki qatlamida 1,0% atrofida mavjud. Bunga asosiy sabab iqlimi sharoitlarni noqulayligi tufayli o'simliklarning nihoyatda siyrak o'sishidir.

O'zbekiston hududida yana sug'oriladigan joylarda madaniy sug'oriladigan tuproqlaring turi vujudga kelgan. Chunki, kishilar ming yillar davomida tuproqni sug'organ har xil o'g'itlar solib, ishlov berib tabiiy xususiyatlarini o'zgartirib yuborgan. Bunday tuproq turlariga voha-o'tloq, voha-botqoq, voha-bo'z kabi tuproqlar kiradi.

O'zbekistonning tekislik cho'l qismidagi tuproqlarning o'ziga xos tomonlari shundaki, chirindi miqdori kam bo'lishidan tashqari yuqori korbonotli sho'rslashgan va ba'zi yerlerida sho'rxoklar mavjud. O'zbekistonni cho'l qismi tuprog'ining 40 % sur-qo'ng'ir tusli tuproqqa, 36 % qumlarga, 5,4 % taqirli tuproqqa, 3,18 % qumli cho'l tuproqqa, 3,8 % sho'rxokka, 0,5 % taqirlarga to'g'ri keladi. Demak, O'zbekistonning cho'l qismida eng ko'p tarqalgan tuproq bu sur-qo'ng'ir tuproq turidir. Bu tuproq turi mamlakat yer fondining 25-30 % ni ishg'ol qilib, bo'r,

paleogen, neogen davrlarining qumtosh gil, mergel oxaktosh va qadimiy prolyuvial, ellyuvial yotqiziqlarda tashkil topgan. Sur-qo'ng'ir tuproqlar Ustyurt platosi Qizilqumdag'i qoldiq tog' etaklari va balandliklari, Qarshi, Malik cho'llaridagi qoldiq tog' etaklarida joylashagan.

Sur-qo'ng'ir tuproq tarkibida chirindi miqdori kam bo'lib, ustki qatlamida gumusning miqdori 0,3-0,7% gacha boradi. Sur qo'ng'ir tuproq sho'rtang bo'lib, uning tarkibida kalsiy karbonat ko'p, lekin u chuqurlashgan sari kamayib aksincha gips miqdori ortib boradi. Sur qo'ng'ir tuproqning 40-60 sm chuqur qismidan boshlab butun tuproqning 60%, ba'zi joylarda esa 80% qismi gipsdan tashkil topadi. Gipsli qatlamning qalinligi odatda 25 -80 sm. Ustyurt platosida esa hatto 2,0 m ga yetadi.

Sur qo'ng'ir tuproq tarqalgan ba'zi joylarda tuproq ustida tez eriydigan tuzlar uchraydi, binobarin bunday sharoitda sur qo'ng'ir tuproq sho'rxok va sho'rtoq tuproqqa aylanadi.

O'zbekiston hududining ko'pgina qismida qum va qumli cho'l tuproqlari joylashgan. Bunday joylar qatoriga Qizilqum, Amudaryo, Qashqadaryo va Zarafshon daryolarining qadimiy deltalar, Surxondaryoning quyi qisman Markaziy Farg'ona hududlari kiradi.

Respublikamizning cho'l qismidagi allyuvial tekisliklarda, Ustyurt platosining janubiy qismida, Amudaryo va Zarafshon daryolarining quyi qismidagi taqirlar va taqirli tuproqlar uchraydi. Taqir va taqirli tuproqlar egallagan maydon respublika yer fondning 4% ini ishg'ol qiladi.

Taqirli tuproq turlari cho'l zonasidagi qadimiy quruq deltalarda, daryo qayirlarida va marza qumlar orasida, tog' oldi tekisliklarida

uchraydi. Taqirli tuproq turi tarkibida chirindi kam (0,5-0,8 %) chirindi saqlovchi qatlam yupqa (10-12 sm) va karbonatlidir.

Taqirlar asosan allyuvial va prolyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan, tarkibida gilli jinslar ko'p bo'lgan joylarda uchraydi. Taqirlar yuzasi qattiq bo'lib, yorilib ketgan. Chunki, taqirlar yuzasi bahorda yog'in suvlari bilan to'lib yozda ular bug'lanib ketadi. Qurib qotib yorilib-yorilib ketadi, hatto ustidan ot yursada izi tushmaydi. Chirindi miqdori juda kam (0,4-1,0 %).

O'zbekiston hududining ba'zi joylarda xususan quyi Amudaryoning qayir allyuvial yotqiziqlari ustida o'tloq-taqir, taqir-o'tloq tuproq turi uchraydi. Bunday tuproq turi joylashgan maydon respublika hududining 1,02 % ni ishg'ol qiladi. O'tloq-taqir, taqir-o'tloq tuproqlar ko'proq gurunt suvi yer betiga yaqin 2-5 m bo'lgan joylarda uchrab u yoki bu darajada sho'rashgan. Chirindi miqdori kam bo'lib 0,7-0,9 % ni tashkil etadi.

Mamlakatimizning Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qahqadaryo, Surxondaryo kabi daryolarining quyi qayirlarida o'tloq tuproqlar ham uchrab, tarkibida chirindi miqdori 2 % gacha boradi. Bu tuproq maydoni O'zbekiston yer maydonining 3,97 % ni ishg'ol qiladi. Lekin, bu tuproq turi ko'p joylarda sug'oriladigan o'tloq tuproqqa aylantirilgan.

O'zbekiston hududining cho'l qismidagi botiqlarda qadimiy ko'llar o'mida yer osti suvi yuza bo'lgan joylarda esa botqoq-o'tloq tuproqlar uchraydi. Bu turi respublika yer fondining 0,15 % ini tashkil qiladi.

Mamlakatimizning daryo vodiylarida, deltalarida, kichik berk botiqlarida, tog' oldi qiya tekisliklarida, qoldiq platolar va tog'lar

orasidagi botiqlarda qisman esa bo'z tuproq mintaqasining quyi qismilarida sho'rxoklar uchraydi. Sho'rxoklar O'zbekiston yer fondining 2,83 % ini ishg'ol qiladi. Sho'rxoklar gurunt suvlarini yer yuzasiga yaqin (0,3 m) hamda yog'inga nisbatan mumkin bo'lan bug'lanish bir necha hissa ko'p joylarda vujudga keladi. Chunki, grunt suvi yer betiga yaqin bo'lgan joylarda bug'lanish tufayli suv bug'ga aylanib ketib tuzlar esa tuproq yuzasida to'planaveradi natijada sho'rxoklar vujudga keladi. Sho'rxok tuproqlar tarkibida suvda tez eriydigan xilorli, sulfatli va natriyli tuzlar ko'p bo'lib, uning kimyoviy xususiyatini yomonlashtiradi.

Tuproqlar tarkibida tuzlar miqdori 3 % dan oshsa, sho'rxoklar vujudga keladi. Oqibatda tuproq yuzasi oppoq va yupqa tuz qatlami bilan qoplanadi. Sho'rxoklarda chirindi deyarli bo'lmaydi faqat o'tloq va botqoq sho'rxoklardagina gumusli qatlam vujudga kelib ajriq va qiyiq o'sadi. Qolgan sho'rxoklarda onda sonda holda sho'ralar o'sishi mumkin. Sho'rxoklar vohalar atrofida ham uchrab ilg'or agrotexnik va meliorativ usullarni qo'llab dehqonchilikda foydalansa bo'ladi. So'ngi yillarda O'zbekistonning sug'oriladigan yerlari orasida ham agrotexnika qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida tuproq qayta sho'rashmoqda.

O'tloq voha tuproqlari asosan Amudaryo, Zarafshon va Qashqadaryolarning quyi qismlarida Qarshi, Sherobod cho'lida uchraydi. Taqir-o'tloq sug'oriladigan tuproq turi quyi Amudaryo va quyi Zarafshonda o'tloq-voha tuproq turi esa Qashqadaryoning quyi qismida va Sherobod cho'lida uchraydi. Bunday tuproqlar tarkibida chirindi miqdori 1-1,3 % ni tashkil etadi. Lekin, o'tloq-voha tuproqlarini sug'orilib, ishlov berilib har xil o'g'itlar solinishi natijasida o'zining

tabiiy xususyatlarini o'zgartirib madaniy voha tuprog'iغا aylangan. Shu sababli madaniylashgan agro qatlam 2-3 m ga yetadi. Bu agrar qatlam orasida har xil sopol idishlar qoldig'i g'isht ko'mir suyak va boshqa qoldiqlar uchrab turadi. O'tloq voha tuprog'i ba'zi joylarda noto'g'ri agrotexnik usullarni qo'llanilishi tufayli sho'rashgan, binobarin ulardan yuqori hosil olish uchun sho'rini yuvib turishi kerak.

O'zbekiston tog'li qatlamida relyefning balandlashuvi tufayli havo harorati pasaya boradi, aksincha, yog'in miqdori ortadi. Oqibatda cho'lga xos o'simlik turlari o'zgarib o'z o'rmini har xil o'tlarga buta va o'rmonlarga tog'larning yuqori qismida esa o'tloqlarga bo'shatib beradi. Binobarin, landshaftning balandlik mintaqalanishi vujudga kelib uning bir unsiri hisoblangan tuproq turlari ham yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarib uchta mintaqasini hosil qiladi. Bo'z tuproqli adir mintaqasi, tog' jigarrang va qo'ng'ir tog' o'rmon mintaqasini va och tusli qo'ng'ir o'tloq baland tog' (yaylov) mintaqasi.

O'zbekistonning adir qismida bo'z tuproq mintaqasi joylashgan. Bo'z tuproqli adir mintaqasi tog' etaklari bo'ylab 1200-1400 m balandliklargacha ko'tariladi. Relyefning balandlashib borishi natijasida yog'in miqdori ortadi, o'simliklar turi ko'payib, qalin o'sadi. Bular o'z navbatida tuproq paydo bo'lishi jarayoniga, binobarin, tuproqdagি chirindi miqdoriga ta'sir etadi.

Bo'z tuproq korbanatli bo'lib, karbonat miqdori uning quyi qismiga qarab ortib boradi. Agar bo'z tuproqning ustki qismida karbonat miqdori 10-15% bo'lsa, quyi qismida 25 % ga yetadi. Bo'z tuproq tarkibida

chirindi miqdori 1-2% dan 4-5% gacha boradi. Bo'z tuproq tarqalgan maydon respublika yer fondining 26-51% ni ishg'ol qiladi.

Bo'z tuproq o'zining morfologik va kimyoviy tarkibiga ko'ra pastdan yuqoriga qarab och tusli, tipik va to'q tusli bo'z tuproq turlariga bo'linadi. Joyning geomorfologik va gidrogeologik xususyatlariga ko'ra bo'z tuproq mintaqasida yana yarim gidromorfli o'tloq, botqoq-o'tloq botqoq tuproq turlari ham uchraydi.

Och tusli bo'z tuproqning mutloq balandligi 250-400 m bo'lган tog' oldi daryolari baland qayirlarida, past tog' etaklarida keng tarqalgan. Bu joylarda tuproq hosil qiluvchi jins lyoss va keltirma konuslarning allyuvial-proyuvial yotqiziqlari hisoblanadi. Och bo'z tuproq tipik bo'z tuproqdan chimli ustki qatlami och bo'z tusligi chirindi miqdori kamligi, chirindi saqlovchi qatlamning yupqaligi karbonatli qatlam yuzasiga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Och tusli bo'z tuproqda chirindi miqdori ustki qismida 1,5-1,7% so'ngra chirindi miqdori kamayib 190 sm chuqurlikda 0,1-0,35% ga tushib qoladi. Och tusli bo'z tuproqning ko'p qismi sug'oriladigan oz qismi lalmikor erlarga to'g'ri keladi. Och tusli bo'z tuproq tarqalgan maydon respublika yer fondining 4,48% ini ishg'ol qiladi.

Tipik bo'z tuproq mamlakatimizning 300-400 m dan 800 m balandda bo'lган tog' oldi tekisliklarida daryolarning baland qayirlarida keng tarqalgan. Bu tuproq turini hosil qiluvchi jins asosan lyoss va lyossimon yotqiziqlarda hisoblanadi. Tipik bo'z tuproq och bo'z tuproqdan tarkibida chirindi miqdorining ko'pligi, chirindi saqlovchi qatlam qalinligi va biroz tuk tusligi bilan ajralib turadi.

Tipik bo'z tuproqning ustki qatlamida chirindi miqdori 1,5 dan 2,5% gacha, ayrim joylarda 2,88% gacha yetadi. Buning ustiga gumus saqlovchi qatlam qalin bo'lib, 60-70 sm gacha, ayrim hollarda 90-100 sm chuqur qismida ham uchraydi.

Tipik bo'z tuproq och bo'z tuproqqa nisbatan karbonatli bo'lib, tuzli va gipsli qatlam ancha chuqurda joylashgan. Tipik bo'z tuproqning ko'p qismi sug'orib dehqonchilik qilinad, bir qismida esa lalmikor ekinlar ekib foydalilanildi.

Tipik bo'z tuproq tarqalgan hududlarga ko'ra och bo'z tuproq maydonidan kattaroq bo'lib, O'zbekiston yer fondining 6,77% ini ishg'ol qiladi. To'q tusli bo'z tuproq O'zbekiston hududining 600-800 m dan 1400-1600 m balandda joylashgan tog' oldi qiyaliklarini va past tog'larda tarqalgan. To'q tusli bo'z tuproq asosan lyossimon qumoq yotqiziqlar tarqalgan joylarda vujudga kelgan bo'ib, tipik bo'z tuproqdan chirindisining ko'pligi, chirindi saqlovchi qatlamning qatinligi binobarin, ustki qismi to'q tusligi bilan ajralib turadi.

To'q tusli bo'z tuproqning ustki qatlamida chirindi miqdori 2,3-3% ga, ayrim joylarda esa hatto 4,5% gacha boradi. Chirindi saqlovchi qatlam esa 120-130 sm, chuqurlikgacha joylashgan. Bu tuproq och va tipik tuproqqa nisbatan ishqorli yaxshi yuvilgan bo'lib, sho'rlangan tuproq deyarli uchramaydi. Gipsli qatlam esa ancha chuqurda joylashgan.

To'q tusli bo'z tuproq O'zbekistonda och va tipik bo'z tuproqqa nisbatan kamroq maydonni ishg'ol qilib, respublika yer fondining 2,33% ini egallaydi.

O'zbekiston hududidagi Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Chirchiq, Ohangaron vodiylarida, Qarshi va Mirzacho'l, Jizzax cho'llarida sug'oriladigan bo'z tuproq keng tarqalgan. Bu tuproq uzoq yillardan beri sug'orilib ishlov berilib, har xil o'g'itlar solinib uning tabiiy holatini yani fizik va kimyoviy holatini o'zgartirib yuborgan, ustki qismida 1-1,5 m qalinlikda, deyarli bir xil madaniy qatlama vujudga keltirilgan Sug'oriladigan bo'z tuproqda chirindi miqdori yuqori qatlamida 1-2% ga yetadi.

Sug'oriladigan bo'z tuproq tarqalgan mintaqaning quyi qismida grunt suvining siljishi qiyin bo'lgan joylarda agrotexnika qoidalariga to'liq rioya qilmaslik tufayli tuproqni qayta sho'rplashish jarayoni mavjud. Bunday joylarda tuproq mileoreatsiyasiga muhtojdir. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar ko'proq xlor-sulfat tuzlari bilan sho'rplashgan. Bo'z tuproqli adir mintaqasi o'tloq-bo'z, botqoq-o'tloq tuzlari bilan sho'rplashgan. Bo'z tuproqli adir mintaqasi o'tloq bo'z, botqoq-o'tloq bo'z, botqoq-bo'z kabi gidromorf tuproq turlari ham uchraydi. Bunday bo'z tuproq turlari Zarafshon, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Surxondaryo, Qahsqadaryo kabi daryolarning eski yuqori qayirlarida, deltalarida, tog' etaklaridagi tekisliklarning quyi qismlarida joylashgan.

O'tloq bo'z tuproqlarning yer yuzasiga yaqin bo'lgan grunt suvlari bilan namlanib, ustki qismida ancha qalin o'tloq o'simliklari o'sadi. Bu esa o'z navbatida o'tloq bo'z tuproqlar tarkibida chirindi miqdorining 2,5-3% gacha, hatto, o'tloq-to'q bo'z tuproqda esa 4,5-5% gacha bo'lishiga sababchi bo'lgan.

O'tloq-bo'z tuproq tarqalgan va relyefi bir oz chuqur bo'lgan joylarda botqoq-o'tloq va botqoq bo'z tuproq turi uchraydi. Bunday joylarda grunt suvi yer betiga yaqin joylashganligi tufayli tuproq o'ta namlashgan bo'ladi. O'tloq-botqoq va botqoq tuproq tarkibida organik moddalar ko'p to'planib torf hosil bo'lishiga sababchi bo'ladi.

O'tloq, o'tloq-botqoq va botqoq tuproqlar O'zbekiston umumiyl maydonining 3,37% ini ishg'ol qilib ko'p qismi sug'oriladigan yerkarda to'g'ri keladi. Lekin, sug'oriladigan o'tloq-botqoq va botqoq tuproqlar tarqalgan joylarda uning sho'rini qochirish uchun yer osti suv sathini pastga tushirish maqsadida zovur-drinajlar qurishni talab qiladi.

Jigarrang va qoramfir-ko'ng'ir tog' o'rmon tuproq mintaqasi O'zbekiston tog'larida 1200-1600 m dan 1800-3000 m balandlikdagi joylarda uchraydi. Bu tuproq mintaqasi tog'larning shimoliy yon bag'irlarida 1500-2600 m gacha janubiy yonbag'irlarida esa 2800-3000 m balandlikgacha ko'tariladi. Bunday balandliklarda harorat yozda cho'l va adirga nisbatan pastroq, yog'in miqdori esa ko'p. Iqlimiyl sharoitda o'simliklari zich va qavat bo'lib o'sadi. Birinchi qavatida har xil o'tlar qalin bo'lib o'ssa, ikkinchi qavatida do'lana, namatak, bodom, pista, oleha, archa, yong'oq, zarang kabi buta va daraxtlar o'sadi. Bu mintaqada tuproq hosil qiluvchi jinslar qumoqlar, sarg'ish-qo'ng'ir tusdag'i gillar va shag'allar hisoblanadi.

Bu mintaqadagi tuproqlar tabiiy sharoitiga bog'liq holda tarqalgan. Tog'larning nisbatan qurg'oqchilroq qisimlarida jigarrang tuproq turi aksincha, namroq va balandroq keng bargli o'rmonlar sarob bo'lgan qismida esa qoramfir qo'ng'ir tog' o'rmon tuproq turi tarqalgan.

Jigarrang tuproq turi gumus saqlovchi qatlarning qalinligi donadorligi, gumus miqdorining ko'pligi tufayli rangini qo'ng'ir-jigarrang va to'q qo'ng'ir tusdagi bilan bo'z tuproqdan ajralib turadi.

Jigarrang tuproq turi tarqalgan mintaqalarda yog'in miqdorining nisbatan ko'pligi tufayli tuproqning yuqori qatlamida suvda tez eriydigan tuzlar yuvilib pastki qismida tushadi, binobarin bu tuproq turining yuqori qatlamida karbonatlar juda kam, aksincha, ostki qatlamida to'planib, ko'payadi. Bunday jarayonlar o'z navbatida jigarrang tuproq turida sho'rplashish hodisasiga yo'l qo'yilmaydi.

Jigarrang tuproq ba'zi yonbag'ri tikroq yuzasi nisbatan parchalangan o'rtacha balandlikka ega bo'lgan tog'larda kishilarning noto'g'ri xo'jalik yuritish (o'rmonlarni noto'g'ri kesishi) bir yerda surunkasiga mol boqishi, yerlarni noto'g'ri haydashi natijasida eroziyaga uchragan.

Jigarrang tuproqlarni eroziyadan saqlash uchun zudlik bilan quyidagi choralarни amalgalash kerak.

Yonbag'ri tik bo'lgan joylarni xaydab ekin ekmaslik, yoki ko'p yillik yem -hashak ekish, o'rmonzorlar tashkil etish, mol boqishni tartibga solish va x.k.

O'zbekiston tog'larining yuqori qismida, xususan G'arbiy Tyanshanning sernam yong'ozsorlari, butazorlari tagida qoramir qo'ng'ir tog' o'rmon tuproqlari joylashgan, morfologik jihatdan jigarrang turiga yaqin.

Qoramir qo'ng'ir tog' o'rmon tuprog'ining chirindi miqdori 14% ga qadar donodorligi va unumdonorligi bilan ajralib turadi. Bu

tuproqlardan agrotexnika qoidalariга rioxay qilib, ekin ekilsa yuqori hosil olish mumkin.

O'zbekistonda jigar rang, qoramir-qo'ng'ir tog' o'rmon tuproqlari 3,68% maydonni egallaydi.

Tog'larning eng baland qisimlarida och tusli qo'ng'ir tuproqlar mintaqasi joylashgan. Tuproq uncha qalin emas, chunki skletli delyuvial jinslar negizida vujudga kelgan. Relyefi qulay nam, o'simliklar qalin o'sgan tog'larning shimoliy, g'arbiy yonbag'rida keng tarqalgan bo'lib, tarkibida gumus miqdori 5-7% gacha bu qatlama qalinligi 30-60 sm ga yetadi.

Tog'larning quyoshga qaragan janubiy yonbag'irlarida tuproq yaxshi rivojlanmagan ko'p joylarda tup ona jins yer betiga chiqib qoyalar ochilib, shag'al va qurumlar ishg'ol qilgan. Bunday joydag'i och tusli qo'ng'ir tuproqlar qatlami yupqa chirindisi 2-3% ni tashkil etadi.

Baland tog'li mintaqaning qorlarga yaqin joylarda buloq sizotlar atrofida tog'li o'tloq va torfli botqoq tuproqlar uchraydi. Torfli botqoq tuproqning ustki qismida 18-20%, 10 sm gacha bo'lgan quyi qismida 1-3% gacha chirindi mavjud.

Och tusli qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan maydon respublikamizning tuproq maydonini 1,19% ni tashkil qiladi.

Tog' va tog' oldi qismlaridagi tuproq maydonining 15,44% i suv eroziyasiga uchragan. O'zbekiston yer maydonining sug'orma dehqonchilik qilish uchun o'zlashtirish mumkin bo'lgan yerlari 18 mln gektarni tashkil etadi (jami 44,18 mln gektardan). Hozircha yer fondining 4,2 mln gektaridangina sug'orma dehqonchilikdan

foydalanimoqda, shundan 1,6 mln gektari cho'l zonasiga 2,6 mln gektari (62%) bo'z tuproqlar mintaqasiga to'gri keladi.


O'zbekistonda bo'z tuproqlar tarqalgan maydon 8 mln ga shundan 6,5 mln gektari och, tipik va to'q bo'z tuproqlardir, qolganlari o'tloq-bo'z, bo'z-o'tloq, botqoq-o'tloq tuproqlari.

Sug'orilayotgan maydonlarning 60% dan ortig'i o'tloq voha tuproqlariga tog'ri keladi. Sug'oriladigan tuproqlarning 50% i u yoki bu darajada sho'rangan. 2,1 mln ga xavfli darajada 0,7 mln ga o'rtacha va kuchli darajada eroziyaga uchragan. O'zbekiston hududining 6,6 mln ga tuprog'i lalmikor zonada joylashgan bo'lib 1,1-1,3 mln ga da haydalib dehqonchilik qilinmoqda. Bunday yerlar Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo kabi hududlarda joylashgan. Lalmi yerlarning 20% xavfli darajada eroziyaga uchragan.

O'zbekiston yer fondining ko'p qismi yaylovlargaga tog'ri keladi. Yaylovlarning 42% sur-qong'ir tuproqli 50% qumli, qumoq, o'tloq va bo'z tuproqlarga, 8% boshqa tuproqlarga to'g'ri keladi. Yaylovlarni 27% noto'g'ri foydalanish tufayli qumlar ko'chib qayta cho'llanmoqda va tuproq eroziyasiga uchramoqda. O'zbekiston tuproqlarini muhofaza qilish ifloslanishdan saqlash, hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biridir. O'zbekiston tuproqlari shamol suv, kimyoviy eroziyaga uchrab zaharli moddalar bilan ifloslanishidan tashqari tog' kon sanoati ta'sirida ham zarar ko'rmoqda bunday yerlar 1500 ga tashkil etadi. Har yili 40 000 mln tonna hajmda tog' jinslari, shlaklar, kollar, nokerak moddalar atrofga chiqarib tashlanmoqda. Bu yerlarda sanoat chiqindilaridan qayta

foydalanimoqda, foydali ma'danlarni ajratib olishga erishish, buzulgan yerlarni rekultivatsiya qilish zarur.

O'simlik dunyosi. O'zbekiston hududining kattaligi, tabiiy sharoitini hamma qismida bir xil emasligi uning o'simlik qoplamiga ta'sir etadi. Tabiiy geografik sharoitiga bog'liq holda o'simlik turlari mamlakat teislik va cho'l qismidan uning tog' qismi tomon o'zgarib boradi. O'zbekistonda o'simliklar o'sishi uchun ko'pchilik qismida noqulay tabiiy sharoit bo'lishiga qaramay o'simliklarning 146 oylaga mansub bo'lgan 4148 turi mayjud. Vaholangki, Qirim yarim orolida 2000 tur, Uzoq Sharqda 1966 tur, Oltoyda esa 1787 o'simlik turi bor. O'zbekiston hududida o'simlik va gemorfologik tuzilishiga bog'liq holda tekislikdan tog'ga ko'tarilgan sari o'zgarib boradi (6-kartaga qarang).



6-karta. O'zbekistonning o'simliklari kartasi

Osimliklarning balandlik mintaqasi bo'yicha gebotanik olim K.Zokirov tadim etgan: cho'l, adir, tog', yaylov mintaqalanish bo'yicha o'rganiladi. Balandlik mintaqasi o'simligi hudud geomorfologik tuzilishiga, iqlimiyl xususiyatlariga, tuproq qoplamiga bog'liq xolda tarqalgan. Tog'lii hududlarda o'simlik qoplami relyefga (tog' yonbg'rining qiyaligiga, quyoshga nisbatan holatiga, tog' jinsiga va boshqalarga) bog'liq holda joylashsa, tekisliklarda tuproqning mexanik tarkibiga, sho'ranganligiga yer osti suviga, iqlimga bo'liq holda joylashgan

Cho'l mintaqasi. O'zbekiston yer maydonini 70% ni ishg'ol etadi va 400-500 m balanlikni o'z ichiga oladi. Qizilqum, Qarshi, Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Usnyurt, Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon va Quyi Surxondaryo hududlari kiradi.

Cho'l mintaqasining yozi quruq, jazirama, seroftob, yog'inga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish ko'p. Qishi esa shu geografik kenglikda joylashgan O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlarga nisbatan sovuq. Bu mintaqada yog'in miqdori kam bo'lib, uning g'arbiy qismida 80-100 mm, sharqida 250-300 mm, tog' oldi qismlarida esa 300-350 mm ga yetadi. Aksincha, mumkin bo'lgan bug'lanish g'arbida 1000-2000 mm, qolgan qismlarida 1000 mm atrofida.

Cho'l mintaqasida namgarchilik yetarli bo'lgan bahor faslida efemer (bir yillik o'tlar) va efemeroitlar (ko'p yillik o'tlar) o'sadi. Bunday o'simlik turlariga arpag'on, lolaqizg'aldoq, taroqbosh, qo'shoyoq, qoramoshqoq, isfarak, chitir kabi efemeler, kovrak, iloq kabi efemeroitlar kiradi. Efemer va efemeroitlar mart, aprel oylarida o'sib,

gullaydi, may oyining o'rtalaridan boshlab gullarini, so'ngra urug'larini to'kib, qurib qoladi.

Cho'l mintaqasining asosiy qismini qumli, toshloq cho'llar, qisman esa sho'rxok, taqir va to'qaylar tashkil etadi. Bularning tabiiy sharoiti bir-biridan farq qilganligi tufayli ulardan har xil o'simliklar formatsiyalari o'sadi.

Qumli cho'llarda juzg'un yoki qandim, quyonsuyak, tereskan, qizilcha, astragal, iloq (qum qiyog'i), selin, cherkez, saksovul kabi o'simlik turlari o'sadi. Juzg'un (qandim) buta o'simlik bo'lib, ko'chib yuruvchi qumliklarda, kichik marzasimon qumliklarda o'sadi. Juzg'unning 50 ga yaqin turi mavjud bo'lib, bo'yи 2 metrga yetadi va dumaloq bo'lib o'sadi. Uning ildizi, har tomonga gorizontal holda tarqalib, uzunligi 20 m gacha yetadi va qumni mustahkamlaydi [20].

Do'ng qumlar mavjud bo'lган yerlarda bo'yи 4-5 metrga yetuvchi oq saksovul, oq saksovul botiqlarda esa qora saksovul o'sadi. Oq saksovul yerlarda yana daraxtsimon cherkez, astragal kabilar, o'tlarda esa qiyoq, oq shuvoq, qora mox kabilar ham uchraydi.

Toshloq cho'llari Ustyurt platosida va Qizilqumdagи qoldiq tog'lar atrofida joylashgan. Toshloq cho'llarda o'simliklar siyrak o'sib, turlari ham kam. Asosiy o'simliklari burgan, qora boyalich, shuvoq, partak, singren, sag'an, seta, isiriq kabilardir. Bahorda esa efemerlar qoplab oladi. Ustyurt platosida yuqorida qayd qilingan o'simliklardan tashqari saksovul va tatar rovvochi ham uchraydi.

Sho'rxoklar o'sadigan o'simliklar formatsiyasini golofitlar bo'lib, tanasida oppoq tuzi bo'lган o'simliklарdir. Bunday o'simliklar turkimiga

boyalich, burgan, sarisazan, qorasho'ra, baliqko'z, sho'r ajriq, qora saksovul, yulg'un, kabilar kiradi. Bu o'simliklar ichida qora saksovul uzoq yil (50 yilgacha) yashaydi va bo'yи 1 metrgacha yetadi. Qora saksovul 25 yil o'sib, rivojlanib borib, so'ngra u asta-sekin quriy boshlaydi. Qora saksovulning tanasi o'gir bo'lib, suvda cho'kadi.

Shuningdek, to'qay osimliklari ham mavjud. Qizilmiya (solodka), chuchukmiya, ajriq, yantoq, qamish, savag'ich, qo'g'a, kendir, turong'il, tol, jiyda, yulg'in, jing'il, daraxt va butalarga chirmashib o'suvchi ilonpechak, qo'yechaklaridir. To'qaylarda yana chakandani (oblepixa) ham uchrash mumkin.

Adir balandlik mintaqasi o'z ichiga absalyut balandligi 400-500 metrdan 1200 metrgacha, ayrim joylarda esa 1500-1600 metrgacha bo'lган yerlарини olади. Relyefning balandlashuvi tufayli yog'in miqdori ortadi, yozgi harorat esa cho'lga nisbatan pastroq bo'ib, tipik va to'q bo'z tuproq keng tarqalgan. Adir mintaqasida cho'lga nisbatan o'simlik turlari ko'p bo'lib, qalin o'sadi. 1 km² maydonda 15-20 turga mansub bo'lган 30 ming o'simlik uchraydi. Adirda efemer va efemeroид o'simliklaridan rang, qo'ng'rbosh, yaltirbosh, no'xatak, chuchmoma, lola, oqquvray, gulxayri, shashir, qoqi kabilar qalin o'sib, iyul oyigacha vegetatsiyani davom ettiradi. Bularidan tashqari yana shuvoq, yovoyi bug'doy, taktak (yovoyi arpa), jasmin, cho'l yalpizi, ferul, chalov, mingbosh, achhiqmiya, otquloq, ermon, zubturum (bargizub), qo'ziquloq, karrak, qiltiq, yetmak, shirach kabi o'simliklar ham o'sadi. Adirning yuqori qismida toshloqli yerlarda astragal, chiya, soylarda zirk, qo'shyaproq, na'matak kabi butalar, do'lana, bodomcha, pista kabi

daraxtlar, ariq bo'ylarida yalpiz, qirqbo'g'im ham uchraydi. Daryo vodiylarida esa tol, terak mavjud. Cho'l va adir mintaqalaridagi vohalarida qayrag'och, sada (sadaqayrag'och), majnuntol, tol, terak, chinor kabi manzarali daraxtlar o'sadi.

Tog' balandlik mintaqasi. O'zbekiston hududida 1200 m dan (ayrim joylarida 1500-1600 m) dan 2700-3000 m gacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. Tog'larning shimoliy yonbag'ri bilan quyoshga qaragan janubiy yonbag'ri orasida tafovut katta. Janubiy yonbag'rida nurash tufayli vujudga kelgan shag'al va qurumlar ko'p. Iqlimi yususiyatlar ham relyefga bog'liq holda uchraydi va yog'in miqdori ortadi. Yoz faslida, harorat pasayadi, yog'inlar ko'proq tog'larning g'arbiy, shimoli-g'arbiy yonbag'rilariga tushadi. Bular o'z navbatida tuproq qoplamiga ta'sir etadi. Tog'larning qurg'oqchil qismida jigarrang, aksincha, nam qismida esa qo'ng'ir tog' o'rmon tuproqlari uchraydi. Tog'larning nam shimoliy va shimoli-g'arbiy yonbag'rilarida kserofit o'simliklar uchrasa, zaxkash botiqlarda, yog'in ko'proq tushadigan tog' yonbag'irlarida bargli o'rmonlar va har xil butalar o'sadi.

Tog' balandlik mintaqasining quyi qismida ko'proq o'tloq o'simliklar, xususan, bug'doyiq, kovrak, shirach-eremurs, ko'kcho'p (isfarak), gulxayri, lolalar, anjabir, arslonquyruq, yerchoy, binafsha, taktak (tog' arpa), tariqbosh, qasmaldaq, tulkiquyruq, chayir, yalpiz, shuvoq, chalov kabilar o'sadi.

Tog' mintaqasining nisbatan qurg'oqchil qismida qizil tikanak, astragal, tog' yalpiz, betaga, chalov, shuvoq kabi o'tlar uchraydi. Respublikamizda archazorlarning maydoni 500 ming gektardir.

O'zbekiston tog' mintaqasida, ayniqsa, Oloy-Turkiston va Zarafshon-Hisor tizmalarida archaning quyidagi uch turi-Zarafshon (o'rik archa) archasi, yarimsharsimon archasi 1800-2700 metr balandliklarda, Turkiston archasi esa 2600-3000 metr balandliklarda o'sadi.

Bargli o'rmonlarda ichida eng ko'p tarqalgan paleogen-neogen davridan qolgan relekt o'simliklar-yong'oqzorlardir. Yong'oqzorlar bilan birga zarang, yovoyi olma, bodom, o'rik, tog'olcha, do'lana, terak, Turkiston qayni kabilar, toshloq yerlarda temir daraxt ham o'sadi.

Yaylov balandlik mintaqasida subalp va alp o'tloqlari mavjud. Subalp o'tloqlari nisbatan tuproq yaxshi rivojlangan, namgarchilik joylarda vujudga kelib, qo'ng'irbosh, mushukquyruq, yovoyi arpa, yovoyi suli, qo'ziquloq, oq momiq, taran, sassiqquvray, pushti, qo'qongul, bir oz qurg'oqchil joylarda chayir, shuvoq, betaga, tikanli astragal butasi o'sadi.

Yaylov balandlik mintaqasining yuqori qismida (3500 m dan yuqorida) alp o'tloqlari uchraydi. Namgarchilik bo'lgan yerlarda to'ng'izsirt (kobreziya o'tining bir necha turlari, gunafsha, qoqio't, yulduzo't, sariqayıtovon, yovvoyi ko'knori kabilar o'sadi. Qurg'oqchil, toshloq yerlarda qiziltikan, toshyorar, astragal kabi o'simliklar uchraydi.

O'zbekistonda noyob, endemik, relikt o'simlik turlarini saqlab qolib, himoya ostiga olish uchun 1978 yili O'zbekiston "Qizil kitobi"ga mamlakatimizda muhofazaga olish zarur bo'lgan 272 tur o'simlik kiritilib, ular haqida mukammal ma'lumotlar (qisqacha tavsifi, tarqalishi, miqdori, kamayib ketish sababi, muhofaza qilishga qaratilgan choralar) berilgan.

O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simlik turlari 4 ta toifaga (tabiatni muhofaza qilish Xalqaro uyushmasi ishlab chiqqan klassifikatsiyaga ko'ra) ajratilgan:

1. **Yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi** (Omonqo'ton, Qorovin shirachi, Turkiston yovvoyi noki) turlari. Bunday o'simlik turlari ayrim yig'ib olish qiyin bo'lган joylarda yoki madaniy sharoitda saqlanib qolgan.

2. **Yo'qolib borayotgan turlar** (anor, Zarafshon regeli, Pskom piyozi, tog'piyozi, dilband, O'zbekiston lolasi, sariq shirach, yovvoyi anjir). Bunday o'simlik turlari yo'qolib ketish xavfi bo'lib, saqlab qolish uchun muhofaza choralarini talab etadi.

3. **Noyob turlari** (omonqora, Abolin va Buxoro astragali, yovvoyi uzum, chinnigul, mingdevona, sumbul, kovul, chilonjiyda, lolalar, Chimyon lolasi, Boysun shirachi, sug'ur o'ti, guli salim va boshqalar). Bunday o'simlik turlari ma'lum kichik maydonlarda saqlanib qolgan, binobarin, tezda nazorat ostiga olinmasa yo'qolib ketishi mumkin.

4. **Kamayib borayotgan turlar** - yetmak, anzur piyozi, parpi, oq parpi, fufanak, burmaqora va boshqalar. Bunday o'simlik turlari ba'zi tabiiy sabablar va insonning ta'siri ostida maydoni hamda miqdori kamayib ketishi mumkin, binobarin vaqtqi-vaqtqi bilan nazorat qilib turishni talab etadi.

Hayvonot dunyosi. O'zbekiston faunasining o'ziga xos tomoni shundaki, uning turlari ko'p bo'lib, sutmizuvchilarining 97 turi, sudurilib yuruvchilarining 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud.

O'zbekiston hayvonlari paleoarktika zoogeografik oblastning Markaziy Osiyo kichik oblastiga kiradi. O'zbekiston hududida paydo bo'lgan hayvon turlariga ingichka barmoqli yumronqoziq, ko'k sug'ur, Bobrinskiy qo'shoyog'i, xo'jasavdogar, qum bo'g'ma iloni, Turkiston gekkoni, katta kurakburun baliqlar, Orol shipi va boshqalar kirib, ular boshqa joylarda deyarli uchramaydi.

O'zbekistondagi ba'zi hayvon turlari katta qumsichqon, qo'shoyoq, qo'ng'ir yumronqoziq, antelopa, sayg'oq, qora sassiqko'zan, olako'zan, yovvoyi mushuk manur (dala mushugi) kabi hayvonlar Qozog'iston tekisliklaridan kirib kelgan. Burma shoxli echki, qunduz, afg'on dala silhqoni, mayna kabi hayvonlar esa Afg'oniston faunasiga xosdir. O'zbekiston tog'larida yashovchi Himolay ulori, Tibet quzg'uni, Sibir echkisi, ilvirs kabi hayvonlar Markaziy Osiyodan kirib kelgan.

O'zbekiston hududida yashovchi sirtlon, chiyabo'ri, kobra (ko'zaynakli ilon) kabi hayvon turlari Hindistondan kirib kelsa, oq silhqon va qo'ng'ir ayiq Yevropaning shimoliy hududi uchun xosdir.

Cho'l hayvonlari. Cho'l hayvonlari uzoq davom etgan quruq, jazirama yozga, qumli, sho'rxok, gilli, toshloq sharoitiga moslashgan.

Cho'l hayvonlarining aksariyati cho'l sharoitiga shunchalik moslashib ketganki, ularning rangi qum tusiga (qo'ng'ir, malla, sarg'ish rangga) o'xshab ketgan. Cho'lda yoz faslida kunduzi tuproq 70-80°C gacha qizib ketrganligi sababli ko'pchilik hashorat, kaltakesak, ilon, ayrim sutmizuvchi va qush turlari kunduzi soya salqin joylarda yoki inlarida jon saqlab, kech kirishi bilan faol hayot faoliyatini boshlaydi

bunday hayvon turlariga chirildoq kaltakesak, qum bo'g'ma iloni, qo'shoyoqlar, uzunquloq kirpi, cho'l mushuklari va boshqalar kiradi.

Cho'l havonlarining ba'zilari gekkon kaltakesaklari, ingichka barmoqli qum yumronqozig'i kabi hayvonlar qumga, ayniqsa, ko'chib yuruvchi qumlarda yashashga moslashgan. Chunki, ularning barmoqlari tarmoqsimon bo'lib, qum ustida tez harakat qiladi.

Adir balandlik mintaqasi. Mintaqada hayvonlari cho'l hayvonlaridan farqlanadi. Sababi hududning balandlashishi tufayli tabiat unsurlarining xususiyatlari o'zgaradi: yozgi harorat pasayadi, aksincha, yog'in miqdori ortadi, natijada o'simliklar zinch o'sib bo'yli baland bo'ladi. Binobarin hayvonlar uchun oziqa miqdori ortib boradi. Lekin, hayvonlar tabiatning harakatchan unsuri bo'lganligi tufayli cho'Iga hos bo'lgan ba'zi turlar (cho'l toshbaqasi, dumaloqbosh kaltakesak, sariq ilon, malla yumronqoziq, echkiemar va boshqalar) adir mintaqasining quyi qismida ham yashaydi.

Adir balandlik mintaqasida sutemizuvchilardan tulki, bo'rsiq, quyon, sariq sassiqko'zan Turkiston kalamushi kabilalar yashaydi. Turkiston agamasi, sariq ilon, chipor ilon, kulvar ilon (gyurza) Turkiston kobrasi va boshqalar uchraydi.

Adir balandlik mintaqasida qushlar ko'p bo'lib ularning eng muhimlari burgut, kaklik, miqqiy, bedana, ko'k qarg'a, ukki, dala chumchug'i, tuvaloq, qirg'iy, burgut, qironqora boltayutar, ilon burgut, itolg'a, so'fi to'rg'ay boyo'g'li (boyqush) kabilalar yashaydi.

Tog' balandlik mintaqasi. Bu balandlik mintaqada yoz salqin, namroq, qish sovuq, o'simliklar, ayniqsa, daraxtlar ko'p o'sib,

o'rmonlarni hosil qiladi. O'rmonlar tagida esa har xil o'tlar qalin o'sib, serhosil binobarin, hayvonlar uchun ozuqa moddalar serob. Lekin, tog' mintaqasining relyefi noqulayligi va haroratning pastligi tufayli ba'zi hayvon turlari, chunonchi sudralib yuruvchilar kam. Oloy tog' iloni, Himolay va Turkiston agamasi uchraydi. Tog' mintaqasida o'rmon sichqoni, Turkmaniston kalamushi, oq sichqon, oq suvsar, tog' suvsari, qunduz, o'rmon olmaxoni, ko'rshapalak, o'rmon sonyasi; yirik sutemizuvchilardan qo'ng'ir ayiq, chipor sirtlon, silovsin, qoplon, yovvoyi qo'y, alqor, burmali tog' echkisi, to'ng'iz bo'ri, tulki, bo'rsiq, quyon kabilalar uchraydi. Qushlardan burgut yapaloqqush, tasqara, itolg'a, qumri, kaklik, zarg'aldoq, boltatumshuq, bulbul, tog' chumchug'i kabilalar yashaydi.

Yaylov balandlik mintaqasi. Mintaqaga 2800-3000 m dan balandda bo'lgan tog'larni o'z ichiga oladi, bu balandliklar relyefi juda ham murakkab bo'lib, doimiy qor bilan qoplangan tog' cho'qqilari, tik tog' yonbag'irlarida chuqr va qoyalari mavjud. Yaylov mintaqasida Oloy tog' iloni, chimqiroq ilon, Himolay agamasi, ko'k qurbaqa, kemiruvchilardan qizil, ko'k va Menzbir sug'uri va oqsuvsar yashaydi.

Yaylov mintaqasida yirik sut emizuvchilardan qo'ng'ir ayiq, ilvirs, tog' takasi, arxar, muflan, qoplon, bo'ri, qushlardan ulor, qumay, boltayutarn, tog' zaxchasi kabilalar yashaydi.

To'qayzorlarda ko'proq ko'k qurbaqa, yer kalamushi, kichik kaltakesaklar, suv iloni, qora ilon, qushlardan, baliqchiquishlar, birqozon-pelikan, g'ozlar, o'rdaklar, qirg'ovul, kakkular, zag'izg'on, qirg'iy, qora qarg'a kabilalar ham uchraydi. Suv va to'qayzorlarda,

mo'yna beruvchi ondatra, nutriya kabi hayvonlar, vohalarda qushlardan musicha, zag'cha, qarqinoq, bulbul, bedana, chumchuq, boyo'g'li, laylak, sudralib yuruvchilardan, sariq ilon, chipor ilon, bo'zrang kaltakesak, sutemizuvchilardan, bo'ri, tulki, quyon, ko'rshapalak, tipratikon kabilar yashaydi. Bulardan tashqari vohalarda yana sichqon, kalamushlar, chigirtka va boshqa hashoratlar uchraydi. Suv havzalarida, baliqlarning 70 yaqin turi mavjud. Ularning eng muhimlari Amudaryo va Sirdaryoda uchraydiganlari ilonbaliq, zog'ora baliq, ship, sazan (zog'ora baliq), laqqa baliq, oddiy cho'tan qora baliq (marinka), ilonbosh kabilar.

Amudaryo va Sirdaryo havzasida Kattako'rg'on, Quyimozor, va Tolimarjon suv omborlarida, Amu-Buxoro, Qarshi magistral kanallarida mo'ylov baliq (so'g'yon), Sirdaryo, Chirchiq daryolarida Katta Farg'ona, Janubiy Mirzacho'l kanallarida Sirdaryo kurakburun (filburun) balig'i uchraydi.

Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sherobod kabi daryolarda, Amudaryoda katta kurakburun balig'i, Amudaryo fareli (gulmoyi) yashaydi.

O'zbekistonligi barcha daryolarning tog'li qismida esa marinka balig'i uchraydi.

Respublikamiz suv havzalarida va ko'llarida oddiy oqqayroq, kumush rang tovon baliq, sazan, oddiy laqqa, oddiy sudak kabi baliqlar yashaydi. So'ngi yillarda O'zbekiston suvlarida iqlimlashtirilgan ilonbosh, oddiy do'ngpeshona, oq Amur baliqlari ham uchramoqda. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga mamlakatimizda yashaydigan

sutemizuvchilarining 22 turi, qushlarning 31 turi, sudralib yuruvchilarning 5 turi, baliqlarning 5 turi kiritilgan.

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekistoning turli mavzudagi tabiiy xaritalarini bir-biriga taqoslab nima uchun tuproqlari bir xil emasligini tushuntirib bering?
2. Nima sababdan O'zbekiston tekislik cho'l qismidagi tuproqlar tarkibida har xil tuzlar mavjud bo'lib sho'rlangan?
3. Qanday tabiiy sharoitda gidromorfli tuproqlar vujudga keladi?
4. Nima sababdan sur-qo'ng'ir tuproqlarda chirindi kam?
5. Nima sababdan tipik bo'z tuproqlarda gumus miqdori nisbatan ko'p va chirindi saqlovchi qatlam qalin?

§ 6. O'ZBEKISTONDA ALOHIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDDULARDAN TURIZMDA FOYDALANISH

Reja:

1. O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishning chora-tadbirlari
2. Qo'riqxona, milliy bog', tabiat yodgorliklariga tavsif

Tayanch atamalar: Cho'l, adir, tog', yaylov, tabiiy resurslar, qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyurtmaxona, rezervatlar.

Tabiiy resurs deb jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalilanigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rabi turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalariga aytildi. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanish holati, ularning mayjudlik darajasi, ulardan foydalanish xususiyati jahon iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo'shadi.

Insoniyat rivojlanishi bilan uning tabiatga bo'lgan munosabati ham o'zgarib bormoqda. Shuning uchun ham har bir davlat o'z mamlakatining tabiiy boyliklarini asrash maqsadida muhofaza qilinadigan hududlarini tashkil qilgan. Bu hududlarni esa Davlat qo'mitasining boshqarmalari boshqaradi. Yerding va (yoki) suv kengliklarining (akovatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi.


Bugungi kungacha yer yuzida turli noyob hayvonlar insonning noto'g'ri munosabati va tazyiqi oqibatida butunlay yo'qolib ketgan va yo'qolib xavfi ostida turibdi. Buning misoli sifatida XX asrgacha yo'q bo'lib ketgan tur, stellerov sigiri, qalin junli karkidon, xaltali bo'ri, sayyor kaptar kabi hayvonlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu ko'rsatkich faqat yer yuzida emas, balki mamlakatimizda ham mavjud. Jumladan, Turon yo'lbarsi, gepard, Turkman kuloni, Orol sulaymon balig'i kabi hayvonlar umuman yo'q bo'lib ketdi. Qoplon, sirtlon, to'xta tuvaloqlar esa yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi hayvonlardir. Ana shunday ayanchli oqibatlarning oldini olish va bioxilma-xillikni saqlab qolish uchun alohida muhofaza qilinadigan hududlar tashkil etilgan.

Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish rejimi o'rnatiladi. Yerding va suv kengliklarining ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi dolmiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish sohasida qonunlari, shu jumladan "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi, "Ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar turlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Xalqaro ahamiyatga ega suv-botqoq yerlar to'g'risida"gi, "Butunjahon

merosni to'g'risida"gi va yana bir qator konvensiyalar bo'yicha uning xalqaro majburiyatlarini amalga oshirish hisoblanadi. Bular O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etildigan tabiiy hududlar to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi va boshqalar. 2004-yil dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilindi. "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi (03.12.2004-yil) Qonunga binoan O'zbekiston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi (7-kartaga qarang):



7-karta. Alehida muhofazaga qilinən həndi dər

- davlat qo'riqxonalari;
- majmua (landshaft) buyurtmaxonalari;
- tabiat bog'lari;
- davlat tabiat yodgorliklari;
- ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish;
- muhofaza etiladigan landshaftlar;
- ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar kiradi.

Davlat qo'riqxonalari. Bugungi kunda “Alovida muhofaza qilinadigan hududlar” tizmida qo'riqxonalar markaziy o'rinni egallab, ularning umumiy maydoni 2164 kv km ni tashkil qiladi. Davlat qo'riqxonalari qadimiy va eng kuchli tartibda muhofaza qilinadigan hududlardan bo'lib, doimiy harakatda bo'lgan muhofaza qilinadigan mintaqalarni nomoyon etadi. Bu hudud ayrim o'simlik va hayvon turlarini yoki ekotizmlarni himoya qilishga qaratigan. Ularda har qanday xo'jalik faoliyati man qilinadi (nazorat qilinadigan ilmiy tadqiqot ishlaridan tashqari).

Davlat qo'riqxonalari tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo'lgan, tipik ekologik tizimlar, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o'rganish uchun mo'ljallangan, umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat qo'riqxonalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 6 ta davlat qo'riqxonalari mavjud:

- Chotqol davlat biosfera qo'rixonasi (Toshkent viloyati);

- Zomin davlat qo'rixonasi (Jizzax viloyati);
- Nurota davlat qo'rixonasi (Jizzax viloyati);
- Qizilqum davlat qo'rixonasi (Buxoro va Xorazm viloyatlari);
- Surxon davlat qo'rixonasi (Surxandaryo viloyati);
- Hisor davlat qo'rixonasi (Qashqadaryo viloyati);

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari. Alovida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo'rixona mavjud:

«Saygachi» majmua (landshaft) buyurtma qo'rixonasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi)

Tabiat bog'lari. Alovida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat bog'lari hisoblanadi.

Tabiat bog'lari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladigan milliy tabiat bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'lari bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida 5 ta davlat milliy tabiat bog'i mavjud:

- ✓ Xorazm davlat milliy tabiat bog'i (Xorazm viloyati);

- ✓ *Zomin davlat milliy tabiat bog'i (Jizzax viloyati);*
- ✓ *Zarafshon davlat milliy tabiat bog'i (Samarqand viloyati);*
- ✓ *Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i (Toshkent viloyati);*
- ✓ *Kitob geologik milliy tabiat bog'i (Qashqadaryo viloyati)*

Milliy bog'lar. Alovida ekologik, ilmiy, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan, o'simliklarning noyob va qimmatli, shu jumladan manzaralii turlarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda oqilona foydalanishga mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy bog'lardir.

"Milliy bog'" iborasi AQSHning alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida XIX asrda paydo bo'ldi (Ielleuston bog'i, 1872 yil). Ularni tashkil etishning asosiy tamoyillari nodir tabiiy ob'ektlarni "millatning foydasi va yaxshiligi uchun" ya'ni odamlarning erkin kirishi va ayni vaqtida oddiy xo'jalik maqsadida foydalanishni taqiqlash yo'li bilan paydo bo'ldi (22,50). Milliy bog'ning qo'riqxonadan farqi shuki, unda insonning xo'jalik faoliyatidan faqat turizmga ruxsat beriladi, qolganlari taqilanganadi.

O'zbekiston Respublikasida 1 ta milliy bog' mavjud:

- ✓ *Do'rmon milliy bog'i (Toshkent viloyati)*

Davlat tabiat yodgorliklari. Noyob, o'mini to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat tabiat yodgorliklari hisoblanadi.

"Tabiat yodgorliklari" so'zi birinchilardan bo'lib, A.Gumbolt tomonidan qo'llanilgan va XX asr boshlarida keng qo'llanila boshlandi (6,60). "Tabiatni muhofaza qilish" qo'llanmasida tabiat yodgorliklarining birinchi marta soddalashtirilgan termini qo'llaniladi "tabiat bo'laklari bo'lib, ilmiy yoki madaniy-tarixiy ahamiyatga ega (yuz yillik o'rmon, cho'l o'rtasidagi o'rmonchalar, qo'riq arning o'zgarmagan qismi, g'orlar, geologik yalong'ochlangan joylar, sharsharalar, qoyalar, daralar, o'rmon parklar va hokazolar)" (2, 132-133). Keyinroq chiqarilgan tabiatni muhofaza qilish haqidagi Qonunning tabiatni qo'riqlash qismida katta o'zgarishlar kiritilib, unda yozilgan "Davlat qo'riqxonalarining va qo'riqlarning rejimi katta maydonlarga hamda kichik hududlarga ham qonundir (o'rmonchalar, ko'llar, havza chekkalari va hokazolar) va alovida inshootlar (sharsharalar, g'orlar, nodir geologik ochiq joylar, nodir va tarixiy qimmatli daraxtlar va hokazolar) muhofaza etiladigan tabiat yodgorliklari" deb e'lon qilinadi (14, 102-103).

O'zbekiston Respublikasida 11 ta davlat tabiat yodgorliklari mavjud:

- ❖ *Vardanzi davlat tabiat yodgorligi (Buxoro viloyati);*
- ❖ *Mingbuloq davlat tabiat yodgorligi (Namangan viloyati);*
- ❖ *Chust davlat tabiat yodgorligi (Namangan viloyati);*
- ❖ *Yozyovon davlat tabiat yodgorligi (Farg'onha viloyati);*
- ❖ *Yangibozor davlat tabiat yodgorligi (Xorazm viloyati);*
- ❖ *Varaxsha davlat tabiat yodgorligi (Buxoro viloyati);*
- ❖ *Paykent davlat tabiat yodgorligi (Buxoro viloyati);*

- ❖ *Zilxa davlat tabiat yodgorligi (Farg'ona viloyati);*
- ❖ *Akbarobod davlat tabiat yodgorligi (Farg'ona viloyati);*
- ❖ *Bo'stonbuva davlat tabiat yodgorligi (Buxoro viloyati);*
- ❖ *Urung'och davlat tabiat yodgorligi (Toshket viloyati).*

Buyurtma qo'riqxonalar. Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar buyurtma qo'riqxonalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 12 ta davlat buyurtma qo'riqxonalar mavjud:

- *Arnasoy davlat buyurtma qo'riqxonasi (Jizzax viloyati);*
- *Dengizko'l davlat buyurtma qo'riqxonasi (Buxoro viloyati);*
- *Qora-qir davlat buyurtma qo'riqxonasi (Buxoro viloyati);*
- *Sudoche davlat buyurtma qo'riqxonasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi);*
- *Muborak davlat buyurtma qo'riqxonasi (Qashqadaryo viloyati);*
- *Oqtau davlat buyurtma qo'riqxonasi (Navoiy viloyati);*
- *Karnabcho'l davlat buyurtma qo'riqxonasi (Navoiy viloyati);*
- *Qumsulton davlat buyurtma qo'riqxonasi (Buxoro viloyati);*
- *Xadicha davlat buyurtma qo'riqxonasi (Buxoro viloyati);*
- *Qo'shirobod davlat buyurtma qo'riqxonasi (Samarqand viloyati);*
- *Nurobod davlat buyurtma qo'riqxonasi (Samarqand viloyati);*
- *Omonqo'ton davlat buyurtma qo'riqxonasi (Samarqand viloyati).*

Tabiiy pitomniklar. O'simliklar va hayvonlarning ayrim turlariga zarur sharoit yaratish yo'li bilan ularni saqlab qolish, takror ko'paytirish

va tiklash uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiiy pitomniklar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 1 ta davlat tabiiy pitomnigi mavjud:

- ❖ *Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi (Buxoro viloyati).*

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar. O'rmon fondining eroziyaga qarshi barpo etilgan o'rmonlar, shahar o'rmonlari, shaharlarning, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining yashil mintaqalari atrofidagi o'rmonlar, alohida qimmatli o'rmonlar, yong'oqzorlar, mevali daraxtzorlar, ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o'rmonlar egallagan yerlari, shuningdek, ovchilik xo'jaliklarining o'simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan yer uchastkalari ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar jumlesi kiradi.

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tasarrufida 71 ta o'rmon xo'jaligi, va 5 ta ov xo'jaliklari mavjud.

Davlat biosfera rezervatlari. Hududlarni barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish maqsadida davlat biosfera rezervatlari - biologik rang-baranglikni saqlash, tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilishi mumkin. Davlat biosfera rezervatlari xalqaro biosfera rezervatlari tarmog'iga qo'shilishi va atrof tabiiy muhitning global monitoringida ishtirok etishi mumkin (2-rasmga qarang).

O'zbekiston Respublikasida 2 ta biosfera rezervati mavjud:

- *Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (Qoraqalpog'iston Respublikasi);*

➤ *Ugom-Chotqol davlat biosfera rezervati (Toshkent viloyati).*

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mamlakatimizda olib borilayotgan bunday islohatlarga faqat mas'ul xodimlar emas, balki har bir fuqoro ham o'z hissasini qo'shishi shart. Jumladan, məktəb o'quvchilari va o'qituvchilari tabiatni muhofaza qilish, shu bilan bir qatorda uning bir bo'lagi bo'lgan hayvonot olami borasidagi tadbir va ommaviy kechalarga befarq bo'lmasdan, ularda faol ishtirok etishi, turli ekoharakatlarda faol qatnashishlari lozim.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Alovida muhofaza etiladigan hududlar deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekistondagi qo'riqxonalarga ta'rif bering?
3. Milliy bog' nima?
4. Biosfera rezervati deganda nimani tushunasiz?
5. Davlat tabiat yodgorliklari nima?

§7. O'ZBEKISTON AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Reja:

1. O'zbekiston aholisi va uning hududlar bo'yicha joylashishi
2. Aholining tabiiy ko'payishi va tashqi migratsiyasi
3. Aholining milliy tarkibi
4. Mehnat resurslar

Tayanch so'zlar: *aholi, tabiiy ko'payish, milliy tarkib, demografik holat, migratsiya, emmigratsiya, zichlik, urbanizatsiya, geodemografik to'lqinlar, agroshaharlar, intensiv, tug'ilish koeffitsienti, mehnat resurslari.*

O'zbekiston kelajakda buyuk davlat bo'lishi uchun qulay tabiiy sharoit ham, xilma-xil tabiiy boyliklar ham yetarlidir. Ammo bu boyliklar odamlarning aqliy va jismoniy mehnati orqaligina kishilar ehtiyojiga, jamiyat ravnaqiga xizmat qilishi mumkin. Millionlar mehnatini oqilona tashkil etish uchun aholi soni, tarkibi va mamlakat bo'ylab joylashishi hisobga olinishi lozim. Ma'lum joyda, ya'ni yer shari, uning ayrim qismlari: qit'alar, mamlakatlar, shaharlar, rayonlarda istiqomat qilayotgan kishilar guruhi **aholi** deb ataladi. Aholini geografik jihatdan o'rghanishda aholining quyidagi jihatlariga e'tibor berish kerak::

➤ **Aholi** – ishlab chiqarish subyekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi;

➤ **Aholi** – ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlarning ma'lum qismini iste'molchisi;

➤ *Aholi* - butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur;

➤ *Aholi* – tabiiy resurs – xo'jalik tizimining bog'lovchi bo'g'ini bo'lib hisoblanadi.

Har bir tarixiy davrda yer yuzi aholisi ham miqdoriy, ham sifatiy rivojlanishni boshidan kechirgan. Buning natijasi sifatida zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida faoliyat ko'rsata oladigan, o'ziga xos madaniyat va hayot tarziga ega bo'lgan insonlar shakllangan.

Aholining hududiy joylashuvi deb aholining hududlar bo'ylab iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda tarqalishiga aytildi. Unga tabiiy sharoit, tarixiy, demografik omillar hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy sharoit omilini aholining hududiy joylashuvida qadimdan katta ta'sirga ega bo'lgan omil sifatida ko'rib o'tish mumkin. Joyning iqlimi, relyefi, turli tabiiy resurslari hamda tuproq qatlami aholini turli mintaqalar bo'ylab tarqalishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Amerikalik mashhur olim U.Ayzard fikricha, u yoki bu hududning xo'jaligi murakkab jumboq bo'lib, uni yechishni aynan aholi bo'g'inidan boshlamoq kerak. Darhaqiqat, aholi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir, u bilan ishlab chiqarish "boshdan-oyoq", chambarcham bog'liq. Chunki, mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish bo'lmaydi, ishlab chiqarish esa aholi uchun kerak. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi ham, ularni iste'molchisi ham aynan ana shu aholi, ya'ni kishilarning ma'lum hududdagi birligidir.

Aholini iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganishda uning uch asosiy xususiyati e'tiborga olinishi zarur:

- ✓ aholi - ishlab chiqaruvchi kuch (aholining iqtisodiy funksiyasi);
- ✓ aholi - asosiy iste'molchi (ijtimoiy, sotsial funksiyasi);
- ✓ aholining o'z-o'zini takror barpo qilishi (demografik jihat).

O'zbekiston Respublikasi aholi soni bo'yicha dunyo miqyosida o'rtacha demografik salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Mamlakatimizning demografik tarixi uning aholisini turli davrlarda har xil sur'atlarda o'sib borganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, 1897 yilda o'tkazilgan Umumrossiya aholi ro'yhati ma'lumotlari bo'yicha hozirgi O'zbekiston hududida 3948 ming kishi istiqomat qilgan. 1913 yilga kelib, ya'ni 15 yildan so'ng bu raqam 4331 mingga yetgan. 1926 yil aholi ro'yxati natijalari esa bu yerda 4629 ming kishini qayd etgan va o'tgan davr mobaynida aholi soni yiliga o'rtacha 2,1 ming kishidan ortib borgan.

Keyingi davrlarda respublika aholi sonining o'sishiga sobiq Ittifoqda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy voqealar jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Ikkinci jahon urushi arafasida (1939 y.). O'zbekiston aholisi 6347 ming kishini tashkil etgan holda, u 20 yildan so'ng, ya'ni 1959 yilda 8119 ming kishidan iborat bo'lgan. Bu davr oralig'ida umumiyo ko'payish 1772 ming kishi, o'rtacha yillik ko'payish esa 88,6 ming kishiga teng bo'lgan. Ushbu qiyosiy raqamlar respublika aholi soni o'sishining birmuncha jadallahganidan dalolat beradi (nisbiy ko'rsatkichlarda yillik o'rtacha ko'payish 1,25 %). Tabiiyki, urush

jarayonida front va front orqasida aholi o'limi ko'p bo'limganda respublika aholisi bundan ham tezroq o'sib borgan bo'lar edi.

Navbatdagi ikki aholi ro'yhati oralig'ida (1970-1979 yy.) O'zbekiston aholisi 11.774 ming kishidan 15.389 ming kishiga yetgan. Mutloq ko'payish 3615 ming, o'rtacha bir yillik ko'payish 402 ming, nisbiy o'sish 130,7 %, o'rtacha yillik ko'payish esa 3,00 foizga barobar bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston aholisining eng tez (intensiv) ortib borishi aynan shu davrda qayd etiladi.

Sobiq Ittifoqda o'tkazilgan so'nggi aholi ro'yhati (1989 y.) O'zbekiston hududida 19.780 ming kishini ko'rsatgan. 1979-1989 yillar mobaynida respublika aholisi 4391 ming kishiga ortgan va yillik o'rtacha ko'payish 2,55 foizni tashkil qilgan. Bu esa oldingi davrga qaraganda 0,45 foizga kam demakdir.

O'zbekistonda demografik jarayonlarning rivojlanishi yoki o'zgarib borishi keyingi yillarda ikki asosiy siyosiy-iqtisodiy omillar tufali yuz bergen. Bu ham bo'lsa O'zbekiston Respublikasining 1991 yilda siyosiy mustaqillikka erishishi va uning milliy iqtisodiyotini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariiga o'tishidir.

1989-2000 yillarda mamlakat aholisi 123,8 foizga o'sgan, bir yillik ko'payish pasayib borish jarayonida davom etib, 1,95 foizga barobar bo'lgan. Shu davrda demografik rivojlanish bo'yicha respublikamizning janubiy mintaqalari -Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari yetakchilik qilgan. Ularda umumiy o'sish, mos ravishda, 139,2 va 136,0 foiz bo'lgan. Ushbu hududlarda aholi sonining tez ko'payib borishi (boshqa viloyatlarga qaraganda) keyingi yillarda ham davom etib,

mamlakat aholisi hududiy tarkibida uning janubiy yo'nalishda birmuncha "surilishiga" olib kelgan [16].

Ko'rileyotgan davrda Namangan, Andijon, Samarcand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham aholi sonining o'sib borishi respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriroq darajada kechgan. Ayni vaqtda Navoiy, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkich pastroq bo'lgan. Poytaxt - Toshkent shahrida esa o'sish juda sust bo'lib, bu yerda bir yillik ko'payish atigi 0,10 foizga teng bo'lgan, xolos.

2001-2015 yillar davomida respublika aholi o'sish sur'atining pasayishi yanada intensivlashgan. Ba'zi yillarda bir yillik ko'payish hatto 1,10-1,15 foizga ham tushib qolgan, eng so'nggi yillarda esa bu ko'rsatkich birmuncha ko'tarilib, 1,40-1,50 foizga yetgan. Biroq, shunga qaramasdan umumiy xulosa qilish mumkinki, respublikamiz aholisining ko'payish sur'ati o'tgan asrning 70 yillariga qaraganda 2,0-2,2 marta qisqargan [17].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bunday jarayon butun jahon aholisida ham kuzatilmogda. Qator Yevropa mamlakatlari esa aholi sonining qisqarishi, ya'ni depopulyatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday vaziyat MDH mamlakatlarda ham, xususan Rossiya, Belarusiya va Ukrainada keskin tus olgan. Tahlillar ko'rsatishicha, o'ziga xos "geodemografik to'lqinlar" hatto qo'shni Qozog'iston Respublikasining deyarli barcha viloyatlarida ham kuzatilmogda va bu mamlakatda asosan uning O'zbekistonga tutash

hududlari, ya’ni Janubiy Qozog’istonda aholi sonini mutloq ko‘payishi yoki uning turg‘unlashuvi kuzatilmogda, xolos.

Respublikamizda ham bunday geodemografik to‘lqinlar kuzatiladi. Bu yerda aholi soni o‘sish sur’atining pasayishi avvalo Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qayd etilib, mamlakatning boshqa hududlarida bu jarayonning asta-sekin so‘nib borishi yoki tezligining qisqarishi qayd etiladi. Boshqacha qilib aytganda, O‘zbekistonidagi yangi demografik o‘zgarishlar (tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning pasayib borishi) markazda boshlanib, ma’lum vaqt davomida u bosqichma-bosqich boshqa viloyatlarga tarqaladi. Toshkent shahri va poytaxt viloyatida kuzatilgan vaziyat respublikaning janubiy viloyatlari - Surxondaryo va Qashqdaryoda birmuncha vaqt o‘tgandan so‘ng kuzatiladi yoki takrorlanadi. Qayd etish joizki, bu ikki “demografik qutb” o‘rtasida jarayon o‘zgarishining tezlik muddati tobora qisqarib bormoqda.

So‘ngi yillarda mobaynida Qoraqalpog‘iston Respublikasi (1,7 mil.) hamda Buxoro (1,8 mil.), Sirdaryo, Toshkent (2,8 mil.) viloyati va Toshkent 2,4 mil.) shahri aholisining o‘sishi mamlakat o‘rtacha darajasidan past bo‘lgan va ularning jami respublika aholisidan ulushi qisqargan. Aholining nisbatan jadal o‘sishi Qashqdaryo, Surxondaryo (2,4 mil.), Samarqand kabi viloyatlarda kuzatiladi. Natijada, bu hududlarning demografik salohiyati yanada ko‘tarilgan.

Respublika hududining tabiiy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining turli-tumanligi aholi joylashuviga ham ta’sir qiladi. Tarixan aholi mamlakatimizning sug‘oriladigan voha va

vodiylarida zikh joylashgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Farg‘ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida ham ancha yuqori.

Buxoro va Jizzax viloyatlarida ham aholi zichligi uncha yuqori emas, Surxondaryo va Qashqdaryoda esa u o‘rtacha ko‘rsatkichdan birmuncha yuqori. Biroq shunga qaramasdan, hatto bu hududlarning ham ichki, qadimdan sug‘orildaigan rayonlarida (masalan, Vobkent, Shofirkon, G‘ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Qarshi, Yakkabog‘ tumanlarida) aholi ancha zikh joylashgan. Umumiylarida respublika aholi joylashuvi ko‘p jihatdan gidrografik shahobchalar-sug‘oriladigan daryo va irrigatsiya inshootlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, yirik shaharlar, ayniqsa, Toshkent aglomeratsiyasi doirasidagi qishloq tumanlarida ham aholi joylashuvi juda zikh (1 km^2 ga 700-750 kishini tashkil etadi) [15].

Korazmda sezilarli bo‘lgan, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax hamda Namangan viloyatlarida birmuncha ko‘tarilgan.

2009 yilni respublikamizda “Qishloq taraqqiyoti va farovonliga yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan urbanistik vaziyatda keskin o‘zgarish yuz berdi. Yangi urbanistik siyosat tufayli O‘zbekistonda birdaniga 966 qishloq aholi punktiga “shaharcha” maqomi berildi. Ularning hozirgi real holatini hisobga olib, “agroshaharlar” yoki “qishloq shaharlari” deb atash mumkin.

Shuningdek, urbanizatsiya jarayoni va uning yakuniy ko‘rsatkichi, odatda, hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shahar hosil qiluvchi omillarning mavjudligiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan

Qoraqlopg'iston va qisman Navoiy viloyatida mazkur ko'rsatkichning birmuncha yuqoriligi ko'rileyotgan hududlar sanoat salohiyatidan emas, balki bu joylarda intensiv qishloq xo'jaligini rivojlantirish sharoitlarining cheklanganlidan darak beradi. Faqat poytaxt – Toshkent viloyatida u haqiqiy real voqelikni aks ettiradi. Chunki bu yerda, boshqa viloyatlarga qaraganda, sanoat tarmoqlari nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Ammo bunday xulosani Namangan va Farg'ona viloyatlari uchun qo'llash uncha to'g'ri bo'lmaydi.

Aholining tabiiy ko'payishi. O'zbekiston aholi soni bo'yicha jahondagi 240 ga yaqin davlatlar ichida dastlabki 41 ta mamlakat orasida turadi. Aholi o'lganlar soniga nisbatan tug'ilganlar sonining ortiqligi hisobiga doimo ko'payib boradi. Bir yil davomida tug'ilganlar va o'lganlar orasidagi nisbat bo'lib, statistik ma'lumotlarda asosan % ko'rsatkichida taqdim etiladi. O'lim va tug'ilishning o'zaro nisbatini aks ettiradigan mazkur ko'rsatkich ham turli davlat va mintaqalarda bir qator omillar ta'sirida bir-biridan farq qiluvchi miqdorga egadir. Bunday ko'payish aholining *tabiiy ko'payishi* deyiladi. Aholi *migratsiya* hisobiga ham ko'payadi.

Migratsiya (lotincha so'zdan olingan bulib, «miggation»-«ko'chish» ma'nosini bildiradi) deb kishilarning yashash, ishlash, o'qish maqsadida ma'muriy chegaralardan o'tgan holda bir manzilgohdan ikkinchi manzilgohga doimiy yoki vaqtinchalik ko'chishiga aytildi. Migratsion jarayonlarda ishtirok etuvchi aholi guruhlari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- ✓ Oilaviy yoki boshqa sabablarga ko'ra doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ko'chib ketgan emmigrantlar. Migrant-mehnatkashlar;
- ✓ immigrantlar;
- ✓ qochoqlar;
- ✓ studentlar, stajyor-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar;
- ✓ Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar - turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va hokazolar.

Migratsiya yo'nalishiga ko'ra tashqi (*bir davlatdan ikkinchi davlatga, bir qit'adan ikkinchi qit'aga aholining ko'chishi*) va ichki (*bir davlatning ichida aholining hududlar bo'ylab ko'chishi*) migratsiyaga ajratiladi. Tashqi migratsiyada ishtirok etuvchi aholi emmigrantlar, immigrantlar va reimigrantlar guruhlariga ajratiladi.

Aholi migratsiyasi- aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo'lib, unga kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. *Aholi migratsiyasi* aholini joylashishi, yerni xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irqlar, tillar va xalqlarning paydo bo'lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog'liq. Ishlab chiqarishni joylashtirishdagi o'zgarishlar bevosita mehnat resurslarini hududiy qayta taqsimlash ehtiyojini keltirib chiqaradi, bunga esa migratsiya yordamida erishiladi.

Yo‘nalishiga ko‘ra tashqi aholi migratsiyasi va ichki aholi migratsiyasi farqlanadi. Tashqi aholi migratsiyasi mamlakatdan chiqib ketish (muhojirlik), ichki aholi migratsiyasi esa mamlakat doirasida, viloyat va tumanlararo yashash joyining o‘zgarishi hisoblanadi. Migratsion jarayonlarda ishtirok etuvchilar - migrantlar (muhojir), migratsiya oqimi shakllanuvchi hudud - migrantlar chiquvchi, ular borgan hudud - migrantlar o‘rnashuvchi region deyiladi. Muayyan mamlakatdan boshqa biron-bir mamlakatga aholining ko‘chib ketish jarayoni emigratsiya, unda ishtirok etganlar esa emigrantlar deyiladi. Aksincha, biron-bir boshqa mamlakatdan ma’lum mamlakatga aholining ko‘chib kelishi immigratsiya, unda ishtirok etganlar immigrantlar(kelgindilar) deyiladi.

O‘zbekistonda Aholi migratsiyasi jarayoni yangi zavod va fabrikalarning qurilishi, 50-60 yillarda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Bekobod, Angren, Olmaliq, Yangiyer va boshqa sanoat shaharlarining barpo etilishi hamda ularni ishchi kadrlar bilan ta’minlash maqsadida sho‘rolar davrida sobiq ittifoqning markaziy sanoat rayonlaridan aholini ommaviy ko‘chirib keltirish hisobiga bo‘ldi. Natijada bu shaharlarda tub joy aholisi ozchilikni tashkil etib, ko‘pchiligi Respublika tashqarisidan yo‘llanma bilan kelgan kishilar bo‘ldi. 1966 yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng Toshkent shahar aholisi ham ikki baravardan ziyod ortdi. Urush yillarida o‘z yurtlaridan qochoq bo‘lganlar va badarg‘a qilinganlar ham O‘zbekistonda qo‘nim topdilar.

2022 yilning 1 yanvar holatida O‘zbekistonda umumiyl aholi sonining 49,7 foizi ayollar hisobiga to‘g‘ri kelgan:

- ❖ Ayollar soni - 17,5 mln nafar;
- ❖ Erkaklar soni - 17,7 mln nafar.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, respublika hududlarining doimiy aholisi soni:

- ✓ Samarqand viloyati - 4 mln nafardan ortiq;
- ✓ Farg‘ona viloyati - 3,89 mln nafar;
- ✓ Qashqadaryo viloyati - 3,4 mln nafar;
- ✓ Andijon viloyati - 3,2 mln nafar;
- ✓ Toshkent viloyati - 2,9 mln nafar;
- ✓ Namangan viloyati - 2,9 mln nafar;
- ✓ Toshkent shahri - 2,8 mln nafar;
- ✓ Surxondaryo viloyati - 2,7 mln nafar;
- ✓ Buxoro viloyati - 1,9 mln nafar;
- ✓ Qoraqalpog‘iston R. - 1,9 mln nafar;
- ✓ Xorazm viloyati - 1,9 mln nafar;
- ✓ Jizzax viloyati - 1,4 mln nafar;
- ✓ Navoiy viloyati - 1,03 mln nafar;
- ✓ Sirdaryo viloyati - 0,8 mln kishi.

Davlat statistika qo‘mitasining mamlakatdagi demografik vaziyat to‘g‘risidagi hisobotida 2022 yil 1 aprel holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda doimiy aholi soni 35,4 mln kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 738,3 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko‘paygani aytib o‘tildi. Yil boshida aholi soni 35,27 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, uch oyda 130 mingga yaqin ko‘paydi. Xususan, shahar aholisi 18,02 mln kishiga (jami

aholining 50,9 foizi), qishloq aholisi esa 17,4 mln kishiga (49,1 foiz) yetdi.

O'zbekistonda doimiy aholi soni har kuni o'rtacha qariyb 2 ming kishiga oshmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 iyul holatiga respublikamizning doimiy aholisi 36 372 276 kishini tashkil etgan. Respublikamizning doimiy aholisi soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,2% ga oshgan. Mamlakatimiz aholisi 2023 yil boshidan buyon 347,3 ming kishiga ko'paygan. O'zbekiston aholisi 2023 yilning har bir oyida o'rtacha 57,9 ming kishiga oshgan. 2023 yilning har bir kunida doimiy aholi soni o'rtacha 1,9 ming kishiga ko'paymoqda.

O'zbekistonda 1 km² yer maydoniga Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 iyul holatiga O'zbekistonda 1 km² yer maydoniga o'rtacha 81 nafar doimiy aholi soni to'g'ri keladi. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda o'rtacha 1,7 kishiga ortgan (2022 yil 1 iyul holatiga 1 km² ga 79,3 kishi). 2023 yilning 1 iyul holatiga respublikamizning doimiy aholisi 36 372 437 kishini tashkil etmoqda. Shahar joylarda – 18 557,5 ming kishi. Qishloq joylarda – 17 814,9 ming kishi.

Davlat statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2022 yil 9 dekabr holatiga doimiy aholi soni 36 milliondan oshdi. Shundan erkaklar 18,1 mln kishi, ayollar 17,9 mln kishiga etgan. Qayd qilish joizki, O'zbekiston aholisining 35 milliondan 36 millionga etishi uchun 1 yildan sal ko'proq vaqt ketdi.

2021 yil sentyabr oyida O'zbekiston aholisi 35 millionga etgan edi. Mamlakatimiz aholi soni bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 41-o'rinda qayd etilgan.

Bugungi kunda:

- ❖ Shahar joylarda - 17,9 mln kishi;
- ❖ Qishloq joylarda - 17,4 mln kishi istiqomat qilmoqda.

Eslatib o'tamiz, 1 oktyabr holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisining mehnatga layoqatli qatlami aholi umumiylar sonining 57,8 foizini, ya'ni 20 mln kishidan ko'proqni tashkil etadi. Shuningdek, mehnat yoshigacha bo'lganlar 31,1 foiz, mehnat yoshidan kattalar esa 11,1 foizga yetgan.

Davlat statistika qo'mitasini O'zbekistondagi erkaklar va ayollar soni haqidagi so'ngi ma'lumotlarni keltirib o'tdi. Unga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatida respublika doimiy aholisi 36 024 946 kishiga yetdi:

- ayollar 17 896 368 nafarni
- erkaklar 18 128 578 nafarni tashkil etdi.

Ma'lum qilinishicha, 2023-yilning 1-yanvar holatiga doimiy aholi tarkibidagi erkaklar soni ayollar sonidan 232 210 nafarga ko'p.

O'zbekistonning doimiy aholisi sonida mehnatga layoqatli yosha to'limagan bolalar - 31,5%, mehnatga layoqatli yoshdagilar - 57,4% va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar - 11,1% ni tashkil qiladi.

O'zbekistonda aholi zichligi - har kv km ga 78,9 nafar kishi. Bu 2021 yilning shu davriga (77,3 kishi) nisbatan 1,6 kishiga ko'pdir. Hududlar kesimida aholining eng yuqori zichligi Toshkent shahrida har kv km ga 6428,2 nafarni tashkil etadi. Viloyatlar kesimida oladigan

bo‘lsak, Andijon viloyatida - 760,1, Farg‘ona viloyatida - 578,9, Namangan viloyatida - 395,8, Samarqand viloyatida - 241,5. Eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyatida - 9,3, Qoraqalpog‘istonda - 11,7, Buxoro viloyatida - 49,3, Jizzax viloyatida - 68,4 va Qashqdaryoda - 119,8 kishida qayd etilgan.


Tug‘ilish. Yanvar-mart oylarida 203,7 mingta tug‘ilish qayd etildi, bu 2021 yilning shu davriga (179,6 ming) (2-rasmga qarang) nisbatan keskin (13,4 foiz) o‘sdi degani.

Har 1000 aholiga tug‘ilish koeffitsienti 23,4 promilleni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 2,4 promillega oshdi (2021 yilda - 21 promille). Respublikada ko‘p hollarda bitta farzand - 97,8%, ikkita bola (egizak) - 2,1% hollarda, uch va undan ortiq bola - 0,1% hollarda tug‘ilgan. Ketma-ket uch oy davomida o‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda bir oz ko‘proq tug‘ildi - o‘rtacha 51,4% ga nisbatan 48,5%.

Chaqaloqlar otalarining yoshi bo‘yicha 9,8 foizi 25 yoshgacha, 84,2 foizi 25–39 yosh va 6 foizi 40 va undan katta yoshdagilardir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning 37,3 foizining onalarining yoshi 25 yoshgacha, 61,7 foizida 25–39 yosh va 1 foiz chaqaloq onalarining yoshi 40 yosh va undan yuqori bo‘lgan.

O‘lim. Yanvar-mart oylarida 40,4 mingta o‘lim qayd etildi, bu 2021 yilning shu davriga (40,2 ming) nisbatan bir oz ko‘proq (0,5 foizga). Eslatib o‘tamiz, 2020 yilning dastlabki uch oyida bu raqam 37,5 ming nafarni tashkil qilgan. Har 1000 aholiga o‘lim darajasi 2021 yilning shu davriga nisbatan 0,1 promillega (4,7 promille) kamaygan holda 4,6 promilleni tashkil etdi. Ro‘yxatga olingan o‘limlarning 61,5

foizi qon aylanish tizimi kasalliklari, 9,2 foizi nafas olish tizimi kasalliklari, 6,7 foizi o‘smlar, 4,4 foizi baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlar, 3,6 foizi ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, 1,5% - yuqumli va parazitar kasalliklar va 13,1% - boshqa kasalliklar natijasida qayd etilgan. Yosh guruhlari bo‘yicha halok bo‘lganlarning 14,1 foizini 20 yoshgacha va 20-59 yoshgacha bo‘lgan yoshlari, 24,7 foizini 40-59 yoshdagilar, 61,2 foizini 60 va undan katta yoshdagilar tashkil etgan.



2-rasm. A) Yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni. B) Yanvar-mart oylarida kuzatilgan o‘lim (Manba: Davlat statistika qo‘mitasi).

Nikoh va ajrimlar. Yil boshidan buyon 3 oy davomida 57,9 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan nikohlar darajasi 2021 yilning shu davriga nisbatan 0,4 promillega (7 promille) kamaygan holda 6,6 promilleni tashkil etadi. Shuningdek, 12,2 mingta ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan ajralishlar koeffitsiyenti 1,4 promilleni bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021 yilning birinchi uch oyiga (1,1 promille)ga nisbatan 0,3 promillega

ko'pdır. Farzandsız oilalarning ajrashishlari soni 5447 tani, bir bolali - 3623 tani, ikki va undan ortiq farzandlı oilalarniki - 3094 tani tashkil etadi. Ajrashgan erkaklarning o'rtacha yoshi 39,9 yoshni, ayollarniki 33,5 yoshni tashkil etadi. Ajralishlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo'lgan yoshlarga to'g'ri keladi, bu ajralishlarning 50,5 foizini tashkil qiladi.

Aholining milliy va etnik tarkibi. Aholining tabiiy va mexanik harakatidagi o'zgarishlar uning milliy, jins va yosh tarkibiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat, bu yerda 100 dan ortiq millat va elat vakillari teng huquqli bo'lib yashaydilar. 1989 yil aholi ro'yxatiga muvofiq, o'zbeklar jami aholining 71,4 foizini tashkil etgan. 1990-yillarda bir vaqtlar ko'chib kelgan boshqa millat vakillarining migratsiyasi tufayli o'zbeklarning ulushi ko'paymoqda.

O'zbekiston doimiy aholisi tarkibida o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va ruslar eng yirik etnik guruhlarni tashkil qiladi. 1989 yildan 2021 yilga qadar o'zbek millatiga mansub aholi soni ikki baravardan ziyodga ko'payib 29,2 mln dan oshgan. Respublika aholisining hozirgi etnik tarkibi 3-rasmida o'z aksini topgan.



3-rasm. O'zbekistonning etnik tarkibi.

So'nggi ma'lumotlarga qaraganda jami aholisining 82% respublikaning tub millati - o'zbeklarga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning barcha hududlari ko'p millatli. Nisbatan sanoatlashgan viloyat va shaharlarda mahalliy xalqlardan tashqari boshqa millat vakillari ham ko'p (Toshkent, Navoiy viloyatlari, Toshkent, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Zarafshon, Farg'ona va boshqa shaharlar). Shu bilan birga, Xorazm viloyati aholisi asosan bir millatli - 97,3 foiz aholi o'zbeklardan iborat. O'zbeklarning hissasi Toshkent shahri va viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida kamroq.

O'zbekistonda 626 ming atrofida qoraqalpoq millati yashaydi. Ularning aksariyati (94,2 %) Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan. Mamlakatimizda qadimdan tojiklar ham juda ko'p (1,4 mln ga yaqin) yashab kelgan. Ularning asosiy qismi Surxondaryo, Samarqand, Namangan va Farg'ona viloyatlarida joylashgan. Tojiklar, shuningdek, qisman Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ham yashaydi. Qozoqlar ko'proq Qoraqalpog'istonda hamda Navoiy va Toshkent viloyatlarida, qirg'izlar Jizzax, Farg'ona va Andijon viloyatlarida, turkmanlar - Surxondaryo va Qashqadaryo, Qoraqalpog'istonda joylashgan. Bulardan tashqari, respublikamizda ukrain, tatar, koreys, boshqird, arman, ozarbayjon va boshqa millat vakillari ham bor. Ularning ko'pchiligi shahar joylarida istiqomat qiladi.

Aholining jinsiy tarkibi tenglashib bormoqda. Shaharliklar orasida ayollar ko'proq (50,2 foiz), qishloqlarda esa jinslar o'rtasidagi farq deyarli sezilmaydi. O'zbekistonda tug'ilish nisbatan yuqoriligi sababli aholi tarkibida yoshlar ulushi katta. Respublika aholisining taxminan 16

foizini 8 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy siyosatida sog'lom, barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarga katta ahamiyat berilmoqda.

Aholining demografik tarkibi uning yosh va jinsiy tarkib holatlarini tahlil etish orqali o'rghanib chiqiladi. Bu tarkibiy ko'rinishning qay tarzda shakllanishi avvalo, davlatga xos bo'lgan demografik vaziyat (tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari, migratsiya, nikohga kirish va ajralishlar holati) bilan bog'liq. Insonlarni umumiy holda uch yosh guguhiba ajratish odatiy holat hisoblanadi. Bular quyidagilar:

- ✓ Bolalar (0-14 yosh);
- ✓ Kattalar (15-64 yosh);
- ✓ Qariyalar (65 yosh va undan yuqori).

Aholining irqiy tarkibi. Ijtimoiy tarkib ko'rinishlaridan farqli ravishda biologik kategoriya hisoblanadi. Ya'ni inson organizmining tashqi muhitga nisbatan reaksiyasi asosida insonning tashqi belgilaridagi farq ularning turli irqiy ko'rinishlarga mansubligini ko'rsatib beradi. Irqlarni ajratuvchi asosiy fiziologik belgilarni quyidagilardir:

- ✓ tana rangi;
- ✓ soch qoplami xususiyati;
- ✓ boshning yuz qism tuzilishi;
- ✓ tana qismlari proporsiyasi;
- ✓ kaftlar va tovondagi asosiy chiziqlarning joylashuvi;
- ✓ barmoqlardagi chiziqlar;
- ✓ qon guruhi;
- ✓ tishlar va jag' tuzilishi;

✓ tanada mavjud bo'lgan mikroelementlar, oqsillar miqdori va b.

Qabila va urug'lar - inson avlodining eng qadimiy oddiy ijtimoiy uyushmalari;

Elat - etnoslarning tarixiy evolyutsion shakllanishidagi alohida oraliq bosqich. Ular qabila va urug'lar hamda yetuk darajada ijtimoiy shakllangan millatlar orasidagi birlashtiruvchi xalqadir;

Millat - yagona tili, hududi, milliy iqtisodiyoti, madaniyat va san'ati, mentaliteti va milliy o'zligini anglash xususiyatlari yuqori darajada shakllangan bo'lib, ko'pchilik holatlarda tarixan o'z siyosiy davlatchilik an'analariga ega bo'ladi.

Aholining diniy tarkibi oliy ilohiy mavjudotga e'tiqod qilishi asosida kelib chiqqan, insonlarning ahloqiy normalarini tartibga soladigan madaniyat shakliga asoslangan holda rivojlangan. Dinlar sodda (primitiv), mahalliy va dunyoviy dinlarga ajraladi. Diniy e'tiqodning eng sodda ko'rinishi bo'lgan primitiv dinlar hozirda asosan qabila va urug'lar orasida saqlanib qolgan. Totemizm, aniyemizm, fetishizm kabi ko'rinishlari mavjud.

Mahalliy dinlar (*ma'lum bir yoki bir necha qardosh etnik birliklar orasida tarqalgan diniy ko'rinishlar*) esa asosan bir davlat yoki mintaqaga doirasida tarqalgan. Mahalliy dinlar orasida induizm dini e'tiqodchilar soniga ko'ra peshqadamlik qiladi. Sikxizm, konfutsiylik, iudaizm, sintoizm dinlari ham mahalliy dinlar sirasiga kiradi.

Mehnat resurslari. Mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagisi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri 16 yoshdan 55

yoshgacha bo‘lgan ayollar, 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

Kishilar yoshining ulg‘ayishiga qarab mehnat resurslariga dastlab qo‘shiladilar, so‘ngra (yoshi o‘tgach) undan chiqadilar. Ko‘pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda 16-59 yoshdagilar mehnat resurslariga kiritiladi. Mehnat resurslari o‘sishi aholining ko‘payishiga bog‘liq. Aholi tarkibida yoshlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mehnat resurslari shunchalik tez o‘sadi. XX-asr oxiri XXI-asr boshlarida O‘zbekistonda mehnat resurslari har yili 320-350 ming kishi atrofida ko‘payib bordi. Ularning asosiy qismini mehnat yoshiga qadam qo‘yanlar tashkil etadi.

Mehnat resurslari soni miqdoriy ifoda bo‘lsa, mehnat yoshidagilarning bilim saviyasi, malakasi, kasbiy mahorati va ishbilarmonligi uning sifatini yaratadi. Ta’lim-tarbiya, malakan oshirish, sog‘liqni ta’minlash, uni mustahkamlash uchun sarflar inson kapitaliga investitsiya bo‘lib, mehnat resurslarini takroran yaratishga xizmat qiladi. Mehnat resurslari mehnat bozori orqali taqsimlanadi. Mehnat resurslari bandligi - mehnat yoshidagi kishilarning ish bilan ta’milanishi, ularning tovar va xizmatlar yaratishda ishtirok etishi va mehnat resurslari tarkibidagi ishslashga talabgor bo‘la turib ish topa olmaganlar ishsizlar hisoblanadi.

XXI-asr boshlarida O‘zbekiston mehnat resurslari tez o‘sishi bilan tavsiflandi. 2003 yilda respublikada mehnat resurslari 13181,0 ming kishini tashkil etdi. 2022 yil yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonda mehnat resurslari soni jami 19,4 mln kishini tashkil etgan.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, bu raqam o‘tgan yil mos davriga nisbatan taqqoslanganda 0,8 foizga oshgan. 2022 yil yanvar-iyun oylarida respublika hududlarida mehnat resurslari soni bo‘yicha Samarqand etakchilik qilyapti - 2,1 mln kishi. Ushbu ko‘rsatkich qolgan hududlar kesimida quyidagicha ko‘rinish oldi:

- Farg‘ona - 2 mln kishi;
- Toshkent shahri - 1,9 mln kishi;
- Qashqadaryo - 1,8 mln kishi;
- Andijon - 1,7 mln kishi;
- Toshkent - 1,6 mln kishi;
- Namangan - 1,5 mln kishi;
- Surxondaryo - 1,4 mln kishi;
- Qoraqalpog‘iston - 1 mln kishi;
- Buxoro - 1 mln kishi;
- Xorazm - 1 mln kishi;
- Jizzax - 788 ming kishi;
- Navoiy - 569 ming kishi;
- Sirdaryo - 486 ming kishi.

Respublikada mehnat resurslarining soni ko‘p, biroq ularning jami aholi tarkibidagi ulushi oz. Buning sababi tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning yuqoriligidadir. Natijada, “demografik yuk” yoki mehnatga layoqatli aholi bilan mehnatga layoqatsizlar nisbati o‘ziga xos. Masalan, agar Boltiq dengiz bo‘yi davlatlarida oilada 3 kishidan 2 kishi ishlasa, bizda, aksincha, 6 kishidan 2 yoki 3 kishi ishlashi mumkin, xolos.

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasining aholisi va uning tabiiy ko'payishiga ta'rif bering?
2. O'zbekiston Respublikasining aholisi migratsiyasi, urbanizatsiya darajasi qanday?
3. O'zbekiston Respublikasining aholisi etnik va diniy tarkibi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Tabiiy va mexanik ko'payishni farqi nimada?

§8. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO'JALIGINING UMUMIY

TAVSIFI

Reja:

1. Sanoat va uning yetakchi tarmoqlari
2. Qishloq xo'jaligi va uning yetakchi tarmoqlari

Tayanch atamalar: *Sanoat, sanoat tarmoqlari, sanoat punkti, iqtisoslashuv, kooperatsiya, kambinatsiya, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, agrar, industrial.*

Ma'lumki, sanoat jahonni turli mintaqalari va davlatlar iqtisodiyotining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Sanoat o'zi uchun hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi, Shuningdek, xomashyo, yoqilg'ini qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yog'och tayyorlash, sanoatda yoki qishloq xo'jaligida olingan mahsulotlarga ishlov berish va uni qayta ishlash bilan band korxonalar (fabrika, zavod, elektrostantsiya, shaxtalar, konlar va b.) majmui hamdir.

Sanoat - milliy iqtisodiyotning moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi muhim tarmog'idir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida texnika taraqqiyoti sanoatga bog'liq bo'lib, milliy iqtisodiyotning moddiy ishlab chiqaruvchi tarmog'i hisoblanadi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi texnika taraqqiyoti va mamlakatning mudosa qudrati sanoatga bog'liq.

Sanoat o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingen, ekip o'stirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ularidan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi. Sanoat tarmog'i yirik ishlab chiqarish instituti bo'lishi bilan birgalikda, aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish joylarini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rindiki, qo'shimcha qiymat va qayta ishlashning o'sishi bilan sanoatda band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida O'zbekiston xalq xo'jaligi, uning iqtisodiy rivojlanish darajasi zinapoyasimon yo'lni bosib o'tgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, O'zbekiston o'tmishda Yer kurrasidagi aholi xo'jalik faoliyati g'oyat qizg'in kechgan eng qadimiy o'lkalardan biri bo'lgan. Mamlakatimizning G'arb bilan Sharq mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyoti uchun qulay bo'lgan geografik o'rni, xushmanzara tabiat, boy va rang-barang tabiiy resurslari, mehnatkash va dono xalqi umumbashariy taraqqiyotga asrlar osha o'z ulushini yaratgan. Bundan ming yil oldin Sharqning buyuk allomasi *Abu Rayhon Beruniy* tomonidan Ma'mun akademiyasining ochilishi, hamda o'sha davrda tibbiyot ilmining dahosi bo'lgan *Abu Ali*

ibn Sinoning jahonshumul kashfiyotlari va boshqalar xalqimizning boy madaniy merosidan guvohlik beradi.

Binobarin, mamlakatimiz xalq xo'jaligi XX asrda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Biroq mamlakat xalq xo'jaligi va uning tarmoqlar taraqqiyoti yo'nalishlarini belgilash o'zgalar qo'lida edi. Negaki, 1860 yillarning o'rtalarida ruslar tomonidan mamlakatimizning birinchi marta va 1917-1920 yillarda esa ikkinchi marta bosib olinishini va yurtimizda o'ziga xos mustamlakachilikning qaror topishi xalq xo'jaligining o'zgalar ehtiyojiga muvofiqlashtirib rivojlantirishga olib keldi.

Sanoat ishlab chiqarishning tarixiy rivojlanishi va uning asosiy yakunlari to'g'risida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi O'zbekiston hududida „uy sanoatining rivoji bundan 12-15 ming yil muqaddam-mezolit davrida boshlangan. Bu davrda juda oddiy mehnat qurollari va buyumlari tayyorlangan.

Mustamlakachilik yillarida O'zbekistonning xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirildi. Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga, sanoatda esa paxta yalpi hosilini birlamchi qayta ishlash (ya'ni Rossiya to'qimachlik sanoati uchun xomashyo - paxta tolasi ishlab chiqarish)ga asosiy e'tibor qaratildi. 1913 yilda mamlakatimiz hududida 425 ta sanoat korxonasi mavjud edi. Mamlakatimiz xo'jaligi mustaqillik yillarida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bozor iqtisodiyotining birinchi bosqichidayoq (1991-1994) iqtisodiy islohotlarga oid qonunlar qabul qilindi, uning huquqiy negizi yaratildi. Islohotlar hayotning barcha jabhalarini qamrab oldi. 1995 yildan boshlab O'zbekiston jamiyatni

isloq qilishning ikkinchi bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu bosqich bozor munosabatlariga o'tish mamlakat xalq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirishni, milliy valyutani barqarorlashtirishni va uning ichki konvertasiyasini ta'minlash bilan bog'liq davlat mulkini xususiyashtirishni yakunlash hamda iqtisodiyotga xomashyo yetishtirib berishdan tayyor mahsulot chiqarishga yo'naltirish ko'zda tutildi. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning yuqorida qayd qilingan ikkinchi bosqichida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va mamlakatimiz xo'jaligi uzoq tarmoqlari o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarishda aholi keng iste'mol mollariga ko'ra ularning ehtiyojini nazarda tutib o'zgarishlar qilish va boshqa hayotiy masalalar xo'jaligida qator tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, mamlakat xalq xo'jaligining yetakchi sohasi - sanoatda importning o'rnni bosa oladigan tovarlar ishlab chiqarish: neft mahsulotlari, g'alla ishlab chiqarishni ko'paytirish, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirishga qaratildi.

Sanoat va uning yetakchi tarmoqlari. O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari mavjud. Geografik omillar jumlasiga yer yuzasi tuzilishining holati, iqlimning nisbatan yumshoqligi, tabiiy resurslar (foydatli qazilma, ma'dan mineral va yoqilg'i resurslari), suv resurslari va ular bilan ta'minlanganlik darajasi, shuningdek, iqtisodiy resurslarga mehnat resurslari, transport va uning rivojlanish holati kiradi.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohalarining tez sur'atlar bilan o'sishi, mehnat resurslarining katta qismi, aynan, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida bandligi oshib

borayotganligiga qaramay sanoat ko'plab davlatlar uchun asosiy iste'mol va eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlat bo'lib hisoblanmoqda. Tarmoq rivojlanishiga katta miqdordagi kapital quyilmalarning unga tomon yo'naltirilganligi, davlatlar tomonidan ilmiy texnik tadqiqotlar uchun ajratadigan mablag'larning o'sib borishi sabab bo'limoqda. Mamlakatimizda sanoatning asosiy tarmoqlari jumladan:

- ✓ tog'-kon sanoati;
- ✓ yoqilg'i-energetika majmuyi;
- ✓ metalluriya majmuyi;
- ✓ mashinasozlik majmuyi;
- ✓ kimyo sanoati;
- ✓ o'rmon va yog'ochsozlik majmuyi;
- ✓ qurilish materiallari sanoati;
- ✓ yengil sanoat tarmoqlari;
- ✓ oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlar rivojlangan.

Yuqorida sanab o'tilgan tarmoqlar o'z navbatida undiruvchi va gayta ishlovchi sanoat tarmoqlari tarkibiga kiradi. *Undiruvchi sanoat* asosan sanoat tarmoqlari uchun xomashyo tayyorlab beruvchi sohalardan tashkil topadi. Uning tarkibiga tog'-kon, o'rmon sanoatlari bilan bir qatorda, ovchilik, dengiz mahsulotlarini ovlash sohalari ham kiritiladi. *Qayta ishlovchi sanoat* tarkibiga kiruvchi 300 dan ortiq tarmoqlar, shuningdek, kichik tarmoqlarda ishlab chiqarish va iste'mol uchun zarur bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari tarkibida mashinasozlik majmuasi tarmoqlari

yetakchilik qiladi. Keyingi o'rirlarni kimyo, oziq-ovqat, yengil, metallurgiya sanoat tarmoqlari egallaydi [15].

Sanoatni hududiy tashkil etish, o'sha hududda mavjud bo'lgan tabiiy, moddiy va mehnat resurslar bilan qay darajada ta'minlanganligiga, ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllarining rivojlanish darajasiga sanoat, shaharlar va aloqa yo'llarining tarixan tarkib topgan joylashuviga hududning iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilganlik darjasini kabi omillarga bog'liq. Shuningdek, sanoat korxonalarining joylashishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bular xomashyo, yoqilg'i-energetika, suv, ishchi kuchi, transport va iste'mol omillaridir. Bu iqtisodiy geografik mohiyatiga ko'ra, bir-biridan farq qilishiga qaramay, bular bir-biri bilan chambarchas bogliq. Agar xomashyo, yoqilgi-energetika, suv omillarini ko'rib chiqsak, uning ko'lami hudduda mavjud omillarning zaxiralari qarab fikr yuritsa, ishchi kuchi va iste'molchi omillari aholining ushbu qismi egallagan hududning katta-kichikligiga qarab aniqlanadi. Transport omili esa yuqorida ko'rsatilgan omillar orasida o'zaro aloqalar uchun xizmat qiladi. Bundan kelib chiqib, shartli ravishda xomashyo, yoqilgi-energetika, suv, ishchi kuchi va iste'molchi omillarini joylashtirish, transport omilini esa *masofa omili* deb atash mumkin.

Ishlab chiqarish jarayoni o'zaro bog'langan korxonalarni bir-biriga yaqin joylashtirish - bir shaharda yoki yonma-yon turgan shaharchalarda qurish oqibatida *sanoat tugunlari* vujudga keladi.

Sanoat tuguni tarkibidagi korxonalar yagona transport tarmoqlaridan, energiya va suv manbalaridan birgalikda

foydalananadi (ba'zan xomashyo boyliklari ham umumiy bo'ladi), ishchi kuchlarini ishlab chiqarishga to'laroq jalb qiladi. Bularning hammasi mehnat unumdoorligini oshirishga, mablag'larni tejashga, korxonalar egallaydigan maydonni qisqartirishga olib keladi. Sanoat tugunlari - sanoat korxonalarini joylashtirishning eng maqbul shakllaridan hisoblanadi.

Sanoat rayonlarining katta-kichikligi har xil bo'ladi. Angren-Olmaliq, Toshkent-Chirchiq, ayniqsa, katta sanoat rayonlaridir. Demak, korxonalari oz sonli bo'lgan shaharcha *sanoat punkti* hisoblanadi. Bir qancha korxonalari bo'lsa-yu, ammo ishlab chiqarish jarayoni bog'lanmagan, suv va energiya ta'minoti umumiy bo'lmagan shahar *sanoat markazi* deyiladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi qishloqlarda yashaydi. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlash uchun ixtisoslashgan korxonalarni ko'proq qishloq joylarda barpo qilgan ma'qul. Shu bois, ulkan kombinatlardan ko'ra tor ixtisosdagagi o'rtacha hamda kichik korxonalar barpo etishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida *ixtisoslashuv*, ya'ni ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot chiqaradigan tashkiliy shakli vujudga keladi. Ixtisoslashgan korxonalarda ishchilarning mehnat malakalaridan yaxshiroq foydalaniadi, mahsulot birligiga qilinadigan sarf kam bo'ladi va pirovard natijada mehnat unumdoorligiga erishiladi. Bunday ixtisoslashgan korxona o'ziga xomashyo, detallar, mashina qismlari va boshqalarni yetkazib

beradigan boshqa korxonalar bilan **kooperativlashuv** aloqalarini o'rnatadi.

Ixtisoslashuv va kooperativlashuv ijtimoiy mehnat unumdorligini oshi-radi. Fan-texnika kashfiyotlarini ishlab chiqarishga peshma-pesh tatbiq qilish uchun ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari tashkil qilinadi. Bunda mashinalar va materiallarning yangi turlarini yaratuvchi ilmiy tadqiqot institutlari bilan ularni ishlab chiqaruvchi korxonalar o'zaro birlashadi. Shu bilan birga turli tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining kuchayishi ro'y beradi. Ishlab chiqarish jarayoni o'zaro bog'langan tarmoqlardan tarmoqlararo majmualar tarkib topadi.

Mamlakatimizda sanoat tarmog'idan keyin turadigan soha bu qishloq xo'jaligidir.

Qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan yerlar – qishloq xo'jalik yerlari deyiladi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari respublika relyefidan kelib chiqgan holda viloyatlar negizida nihoyatda xilma-xildir. Olimlar uning taxminan 50 qismini ajratganlar. Biroq, ularni 2 ta katta guruhga birlashtirish mumkin. Birinchidan, bu rivojlangan tovar qishloq xo'jaligi bo'lib, u o'z navbatida intensiv dehqonchilik va chorvachilikni, bog'dorchilik hamda tomorqa xo'jaligini xalq, shuningdek, intensiv dehqonchilik bilan yaylov chorvachiliginu ham o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, bu an'anaviy ya'ni, ichki iste'molga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi bo'lib, u yerlar asosan plug va omochda ishlanadigan bir munkcha qoloq dehqonchilikni, yaylov chorvachiligini, ko'chmanchi

hamda yarim ko'chmanchi chorvachilikni o'z ichiga oladi. Agar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollarini sonini oshirish hisobiga ko'paysa, bunday qishloq xo'jaligi **ekstensiv** deyiladi. Aksincha, qishloq xo'jaligi mahsulotining hajmini maydon birligida agrotexnika vositalaridan ko'proq masuldor zotlarini yaratish hisobiga oshsa, bunday qishloq xo'jaligi **intensiv xo'jalik** deyiladi.

Mustaqillikka qadar O'zbekiston qishloq xo'jaligi, asosan, **ekstensiv** yo'lbilan rivojlandi.

Ekstensiv xo'jalik yuritish usuli natijasida yoqilg'i, energiya, inson omili, ayniqsa, suv ko'p sarflandi. Suv sarfining ko'payishi Orol fojiasini keltirib chiqargan sabablardan bo'ldi. Yerdan foydalanishdagagi xatoliklar esa tabiatning ifloslanishi va tuproq unumdorligining pasayishiga olib keldi. Demak, **ekstensiv yo'l** muayyan vaqt taraqqiyotini ta'minlasa-da, uning jiddiy salbiy oqibatlari ham bo'ladi. Shu sababli davlatimiz intensiv xo'jalik yuritish usuliga o'tish vazifasini ilgari surmoqda.

Intensiv xo'jalik yuritish usulidan foydalangan holda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyaga asoslangan qo'shma korxonalar tashkil qilinmoqda.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim va yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, unda aholining 1/3 qismiga yaqini band. O'zbekistonning iqlimi, yer-suvi va mehnat resurslari qishloq xo'jaligining muhim serdaromad va ko'p mehnat talab qiladigan paxtachilik, bog'dorchilik, sabzavot, polizchilik, qorako'lchilik kabi

tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkon beradi. Bular Respublika qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridir. O'zbekistonda tabiiy va iqtisodiy omillarga ko'ra qishloq xo'jaligi obikor dehqonchilik, cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalariga bo'linadi. Obikor dehqonchilik mintaqasi mamlakat hududining 1/10 qismini tashkil qilgan holda, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 85%ini yetkazib bermoqda. Bu mintaqaga paxtachilik, sholikorlik, makkajo'xorichilik, bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilik, chorva ozuqalarini yetishtirishga ixtisoslashgan.

Adir va tog' mintaqasi respublika hududining 1/5 qismini ishg'ol qilib bahorikor g'allachilik, mevachilik va chovachilikka ixtisoslashgan. Respublika yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 7,9% ga yaqinini yetkazib beradi. Cho'l va yaylov mintaqasi respublikada 3/5 qismini ishg'ol qilib, chovachilikka, asosan qorako'lchilikka ixtisoslashgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, chet el texnika va texnologiyalarini olib kirishga katta imkoniyatlarni qo'lga kiritdi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng qadimgi tarmoqlaridan biri. U hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o'rnlarni egallaydi.

Qishloq xo'jaligi deganda asosan uning ikki tarkibi, ya'ni dehqonchilik va chovachilik tushuniladi. Qishloq xo'jaligi, bir tamondan faqat dehqonchilik va chovachilik emas, ikkinchidan, u hududiy nuqtai nazardan jahon xo'jaligi, milliy xo'jalik, mintaqaviy va mahalliy xo'jalikdan keyingi taksonomik birlik sanaladi. Iqtisodiyotning bunday hududiy tarkibi xuddi shunday ierarxik ko'rinishga ega bo'lib,

tizim-tarkib yondoshuvga mos keladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, shahar xo'jaligi ham o'ziga xos talqin qilinadi. U ko'proq kamunal xo'jaligi, ichki transport, maishiy sohalarni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- ❖ eng qadimgi, an'anaviy xalq mashg'uloti;
- ❖ mavsumiy xarakterga ega;
- ❖ qishloq xo'jaligining rivojlanishi ob-havo, iqlim sharoitlariga bog'liq;
- ❖ qishloq xo'jaligining holati, o'z navbatida, sanoatga, ayniqsa, yengil va oziq-ovqat sanoat rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi;
- ❖ ushbu tarmoqning hududiy tashkil etilishi areal xarakterga ega (sanoat nuqta shaklida, transport chiziqsimon, tasmasimon);
- ❖ qishloq xo'jaligining, odatda, mehnat unumdorligi sanoatga nisbatan past;
- ❖ qishloq xo'jaligi aholini iste'mol mollari bilan, sanoatni esa xomashyo bilan ta'minlaydi;
- ❖ qishloq xo'jaligi hududlari uchun xomashyo kerak emas, uning asosi agroqlimiy resurslar ya'ni harorat, namlik va tuproq hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining yuqorida xususiyatlari ushbu tarmoqning asosiy iqtisodiy va iqtisodiy geografik ko'rsatkichlarini, rivojlanishi va joyolanishini belgilab beradi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning zimmasiga yalpi ichki mahsulotning 1/6 qismiga yaqini to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda respublikamizda iqtisodiyotni sanoatlashtirish dasturini amalga oshirish natijasida qishloq xo‘jaligining nisbiy ko‘rsatkichlari ya’ni ulushi pasayib borish tendensiyasiga ega. Mamlakatimiz iqtisodiyoti agrar-industrial shakldan tobora, asta-sekin industial-agrar yo‘nalish kasb etmoqda.

Shuningdek, uni rivojlantirishda ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatning sanoati rivojlantirishda shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak uning istiqbolini ko‘rish qiyin emas. Mamlakatimiz yer usti va yer osti boyliklari zahiralarining ko‘p va xilma-xilligi, mehnat resursining kattaligi, transport tarmoqlarining yaxshi rivojlanganligi, shuningdek, mamlakatda yagona temir yo‘l tizimini yaratish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda barpo qilinayotgan yuzlab qo’shma korxonalar ana shu istiqboldan darak beradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Sanoat nima? Sanoat tarmoqlariga nimalar kiradi?
2. Sanoat tuguni, sanoat punkti nima?
- 3.O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligining qaysi tarmoqlari shakllangan?
4. Ekstensiv va intensiv tarmoqlar bir-biri bilan qanday farq qiladi?

§9. O‘ZBEKISTONNING TURISTIK OBYEKLARI

Reja:

1. O‘zbekistonning turistik salohiyati
2. O‘zbekistonning turistik obyeklari

Tayanch atamalar: Turizm, rekreatsiya, kurort, ziyoratgohlar, tabiiy obyeklar, tarixiy va monumental obyeklar.

O‘zbekiston Yevroсиyo materigida joylashgan davlatlar orasida Markaziy Osiyoning marvaridi hisoblanadi. Uning tarixiy, madaniy boyliklari, ajoyib tabiat, o‘ziga xos an‘analar, hatto milliy taomlarigacha bu zaminda turizmni rivojlantirish istiqbollari baland ekanligini ko‘rsatib turadi. O‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O‘zbekiston Buyuk ipak yo‘lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, isti’lochilar va zabt etuvchilarning yo‘lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O‘zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an‘ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun xushmanzara sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston dunyo turistik bozoridagi o‘rmini mustahkamlash maqsadida mustaqillik yillarida mamlakatimiz Prezidentining bevosita tashabbusi bilan ichki turizmni rivojlantirish istiqbollari belgilab berildi. Bugungi kunda mazkur yo‘nalishlardan biri sifatida ming yillik boy va bebaho tarixiy, madaniy va ma’naviy merosimizni jahon hamjamiyatiga tanishtirish, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifatini jahon standartlari

darajasida tashkil etishga qaratilgan tizimli va maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shular qatorida aynan mustaqillik yillarida ekologik turizmni rivojlantirishning muhim choralar ko'rildi. Zero, bugungi kunda yurtimizda xalqaro sayyohlik, ichki sayyohlik yo'nalishlari bilan birga ekologik sayyohlik obyektlari ham ochilmoqda.

Shuningdek, turizmni rivojlantirishni faollashtirishga yordam beradigan asosiy turizm yo'nalishlari bugungi kunda kengaymoqda. Turistik biznesning tarkibiy qismi sifatida ko'ngilochar, ommaviy tadbirlar sohasining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari jahon tajribasida yuqori ko'rsatkichlarni egalab kelayotgani yaqol misoldir. Mamlakatimizning diqqatga sazovor joylarga boy ekanligining o'zi Yevropa Ittifoqi mamlakatlardan keluvchi sayyohlarning katta oqimi uchun yetarli emas. Hududda uchta muhim narsa: *yangicha infratuzilma, tashqi bozorga chiqish va malakali kadrlar tayyorlashga* sarmoya kiritishdan cho'chimaslik kerak. Infrastruktura zamonaviy yo'llar, havo va temir yo'l kommunikatsiyalari mavjudligini, keng imkoniyatli, shu jumladan, zanjirli mehmonxonalar, SPA xizmatlari, restoranlar barpo etishni, shuningdek, har bir hududda yuqori tezlikda ishlaydigan internet aloqa maydoni yaratishni nazarda tutadi.

Respublikamizda turizmni, iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida rivojlantirish uchun tabiiy, tarixiy, ijtimoiy turistik obyektlarni salohiyati juda katta. Mamlakatimizda ko'plab tarixiy obidalar, me'moriy yodgorliklar, diniy qadamjolar, ziyyaratgohlar, rekreatsion resurslari dam olish sog'lomlashtirish maskanlari, ekoturistik maqsadlarda to'liq foydalanimoqda deb bo'lmaydi. Bugungi kunda

yuzga yaqin muzeylar ishlab turibdi va ularning yarmi mamlakatning poytaxtida joylashgan. Ularning har biri o'zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Ayniqsa, Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo'lib, uning ulkan ko'k gumbazi Samarqandning qadimiy gumbazini eslatadi. Uning eksponatlari O'zbekiston hududida o'rta asrlardagi davlatchilik shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat va san'atning rivojlanishini aks ettiradi.

O'zbekiston ajdoddlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan faxlanadi. *Xivadagi Ichan-Qal'a* majmuasi, *Buxorodagi* tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCOning "Butun dunyo me'rosi" ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshoatlar o'tmish zamonlarini o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi. Mamlakatimizda hozirgi paytda 4000 dan ortiq tarixiy obidalar, hashamatli me'moriy binolar mavjud. Ammo ulardan bor yo'g'i 500 tasi turistlarni qabul qila oladi. Faqatgina 200 taga yaqini xalqaro talablarga javob bera oladi. Bular ham *Samarqand*, *Buxora*, *Xiva*, *Shahrisabz*, *Toshkent*, *Termiz*, *Marg'ilon* kabilardir.

Toshkent - O'zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlardan biri. Olis o'tmishdagidek hozirgi paytda ham Toshkent o'zimizning O'zbekiston Havo Yo'llari va xalqaro aviakompaniyalar yordamida xalqaro transport yo'nalishlarining chorrahasidir.

Toshkent dunyoning eng qadimi shaharlaridan biridir. 2009-yilda u o'zining 2200 yilligini nishonladi. Bir paytning o'zida Toshkent zamonaviy ishlab chiqarish markazidir, bu yerda 500 dan ortiq kompaniyalar turli xil mahsulotlar, samolyotdan- traktorgacha, televizordan-to'qimachilik va oyoq kiyimlargacha ishlab chiqaradi.

Toshkent bugungi kunda tez sur'atlarda tarixiy yodgorliklar va zamonaviy osmono'par binolarning o'zaro uyg'unligida zamonaviy rivojlangan xalqaro megapolisga aylanmoqda.

Samarqand asrlar mobaynida O'zbekiston shaharlari Buyuk Ipak yo'li va qadimi transkontinental magistral hayotida muhim rol o'ynadi. Birgina Samarqand esa "*Buyuk Ipak yo'lining yuragi*" deb nom oldi.

Samarqand "*Islom me'morchiligi marvaridi*", "*Dunyo ko'zgusi*" kabi nomlar bilan ta'riflangan. Qadimiyligi bilan Rim, Afina va Vavilonga teng bo'lgan shahardir.

Samarqand buyuk qo'mondon va Chingizzondan keyingi markaziy Osiyoning hukmdori Amir Temur davrida Buyuk Movarounnahr davlati poytaxti etib tanlanganda o'zining eng yuqori gullab-yashnash nuqtasiga yetdi. Bu vaqtda keng qamrovdagi shaharsozlik ishlari amalga oshirildi. Buyuk hukmdor Samarqandda o'z davrining eng mohir hunarmand va ustalarini to'pladi. Ular yaratgan ishlar asrlar mobaynida yashab kelmoqda. Amir Temurning nevarasi Ulug'bek bu an'analarni davom ettirdi. Bugunda Samarqandagi yodgorliklar ko'rkan va ulkan. Bu shaharda qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda saqlanib qolgan qadimgi tarixning nafasini his etish mumkin.

Afsonaviy *Registon maydoni* Markaziy Osiyoning takrorlanmas me'moriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo'lgan. Bu yerda bir necha asrlik uch ulkan binolari *Ulug'bek*, *Sherdor* va *Tillaqori* madrasalari qad ko'targan.

Go'ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvaridi. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi, jumladan, sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug'bek qabrlari joylashgan. Havorang lolalarning yaproqlari tig'iz qilib joylashtirib chiqilgan g'unchaga o'xshash *Go'ri-Amir* maqbarasi sayyoohlар uchun juda taniqli joy hisoblanadi.

Registon maydoni, *Go'ri-Amir*, *Bibi-Honim*, *Shoxi-Zinda* maqbaralari, *Ulug'bek rasadxonasi* va shuningdek bir qancha yodgorliklar shaharga tashrif buyuruvchilarni e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Qadimdan **Buxoro** vohaning zich aholiga ega markazi bo'lib kelmoqda. Uning yoshi 2500 yoshda. Qulay muhut va 140 dan ortiq qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo'lib qolaveradi. Huddi to'r bilan qoplangan *Ismoil Samoniy maqbarasi*, ulkan qo'rg'on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi *Ark*, *Minorai Kalon*, *Labihovuz* kabi ko'plab masjid va madrasalar, karvon-saroylar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo'q marvaridlaridan biri hisoblanadi.

Xiva Buyuk ipak yo'li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahardir. U "*Ochiq osmon ostidagi muzey*" deb nomlanadi. Shahar markazidagi ko'plab me'moriy yodgorliklar joylashgan *Ichon-Qal'a*

majmuasi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. Buyuk Ipak Yo'lining chorrahasida joylashganligi va bu yerdan karvon yo'lil o'tganligi sababli Ichan-Qal'aga dunyoning to'rt tomoniga qaragan to'rtta darvozalar qurilgan. Qal'a devorining balandligi xuddi haqiqiy sharq ertaklaridagi kabi shaharga ko'rakam ko'rinish berib turadi.

Mamlakatimizdagi barcha minoralar osmonga yetay deydi, va ularning orasida O'zbekistondagi eng uzun minora Islom-Xo'jadir. Uylarning tekis tomlari uzra maqbara va masjidlarning charaqlagan ko'k gumbazlari viqor bilan turadi.

Xivada Xon saroylaridan bir qanchasi saqlanib qolgan bo'lib, ulardan eng mashhuri marosimlar o'tkaziladigan, Xon dam oladigan va Xon xaramlari yashaydigan zal joylashgan ulkan *Tosh-xovli* saroyidir. Tashqi tomon va devor mozayka bezakli toshlar bilan qoplangan. Shaharning ajoyibligini bilish, tor ko'chalarini o'rganish va "ochiq osmon ostidagi muzey" ning asl taftini his qilish uchun bir kun ham kamlik qiladi.

Termiz Ko'p qirrali O'zbekiston tarixi shubhasiz uning geografik joylashishini ham aks ettiradi. U mamlakatning eng janubiy shahridir. Termiz Amudaryo sohilining o'ng tomonida, karvon yo'lida asos solingan bo'lib, asosiy port sifatida 2500 yildan buyon shu vazifani bajaradi.

Eramizning boshlarida Termiz Markaziy Osiyoning asosiy buddizm markazi bo'lган. Qora-Tepadagi toshga o'yilgan *budda monastiri*, Fayoz-tepadagi *Budda ibodatxonasi*, ko'plab ohakli loydan

qilingan *budda haykallar qoldiqlari* sayyoҳ va budda sig'inuvchilar uchun mashhur joylardan biridir.

Termiz faqatgina o'zining budda dini yodgorliklari bilangina mashhur emas. Bu yerda o'rta asrlar boshiga tegishli bo'lgan bir qancha qiziqarli tarixiy yodgorliklar ham bor. Ularning orasida *Hakim at-Termiziyning qabri*, *Sulton Saodat ansamblı* (X-XVII asrlar) va afsonaviy *Qirq-Qiz qal'asi* (IX asr) mavjud.

Qoraqolpog`iston hozirgi davr va qadim o'tmishni bog'lovchi tirkishtadir. Uning qiziqarli va takrorlanmas joylari, kutilmagan topilmalari va kashfiyotlari bilan o'zining afsona va sirlarini bo'lishishga tayyor.

Qoraqolpog`istonda joylashgan *Qirq-Qiz*, *Ayoz-Qal'a*, *Janbus-Qal'a*, *Ichon-Qal'a maqbarasi*, betakror *Tuproq-qal'a* va boshqa tarixiy-me'moriy yodgorliklar ilmiy va ma'daniy qiziqishni uyg'otadi, mahalliy va chet el sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Respublikada 9608 dan ziyod madaniyat obyektlar mavjud. Shundan 7300 dan ziyodi qadimiy arxitektura va arxeologik obyektlar hisoblanib, ularning 200 tasi YUNESKO ning jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Jumladan, YUNESKO ning "Jahon merosi" ro'yxatiga Xivadagi *Ichon Qal'a* 1990 yilda, Buxoroning tarixiy markazi 1993 yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000 yilda, Samarqand shahri 2001 yilda ushbu ro'yxatga kiritilgan. Ularning asosiy qismi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shahrlarida joylashgan.

Yurtimizning geografik tuzilishi juda xilma-xil bo'lib, sharqda - G'arbiy Tyanshan tog'larining davomi, janubda - Turkiston, Hisor

tog‘larining o‘ziga xos tabiatini sayyoohlari uchun dam olish, xordiq chiqarish, sog‘lomlashtirish maskanlardan biri hisoblanadi. Respublikaning g‘arb va shimol tomonlari cho‘l-sahrolar bilan tutashgan bo‘lsa-da, yassi tog‘lar bilan o‘ralib, Chimqo‘rg‘on, Arnasoy, Kattaqo‘rg‘on kabi suv omborlari, katta-kichik sun‘iy ko‘llarning nam havosi ekologik jihatdan tabiiy muvozanatni saqlab turadi.

Yurtimiz hududlarida minglab mo‘jizaviy va g‘ayritomuz maskanlar mavjud. Masalan *Sangijumon toshi* o‘zining g‘aroyibligi bilan *Saksoniya Shveysariyasida* shamol kuchi bilan vujudga kelgan *tosh darvoza va qo‘ziqorinsimon* toshlardan qolishmaydi.

Turkiston va Morguzar tog‘lari tutashgan xushmanzara joyda *Zomin tog‘-o‘rmon davlat qo‘riqxonasi* joylashgan. Qo‘riqxonada yilning barcha fasllarida, yoz-u qishda, o‘zining yam-yashil libosi bilan atrofdagi hududdan ajralib turuvchi archazorlar o‘sadi. Go‘yoki, tabiat o‘zining bor go‘zalligini shu yerga in’om etgandek. Archazorlar orasidagi yolg‘iz so‘qmoqdan borar ekansiz, ko‘z oldingizda ajoyib manzara namoyon bo‘ladi ya’ni xalq orasida “*Qirqqiz qal’asi*”, “*Savat ko‘targan kelinlar*”, “*Kuyovtosh*”, “*Qirq go‘zal*” nomlari bilan ma’lum bo‘lgan tabiat yodgorliklariga duch kelasiz. Ushbu tabiat yodgorliklari vujudga kelgan hudud Guralash va Zomin massivlari (dengiz sathidan 2000-3200 m balandlikda) deb atalib, Zomin va Sangzor daryolari vodiylarida joylashgan. *Qizilto‘rg‘ay* daryosining o‘ng tomonida, uning o‘zanidan 300-700 m balandlikda joylashgan va tabiatning nodir yodgorliklaridan hisoblangan “*Qirqqiz qal’asi*” (maydoni 3-4 hektar) bu yerda alohida o‘rin egallaydi. Qal’aning janubi-sharqida qiz tasviri

haykal sifatida (balandligi 12 m, belining diametri 1 m, yerga tegib turgan etagining diametri 2 m ga yaqin) ko‘tarilgan.

Morguzar tog‘ining noyob tabiat yodgorliklaridan biri “*Kuyovtosh*” deb ataladi. U Guralash soyining quyi oqimida, dengiz sathidan 1000-1900 m balandlikda joylashgan. Bu yerdagi past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar, adirlar, keng daryo vodiylari va xushmanzara vohalar birlashib, ko‘rkam manzarani hosil qiladi. Vodiylarda keng (200-800 m) terrasalar vujudga kelgan. Geologik tuzilishiga ko‘ra hudud, asosan, to‘rtlamchi davrning yumshoq g‘ovak va uzoq tog‘ jinslaridan tashkil topgan. Daryolar o‘zanlarida qum aralash shag‘al toshlar bilan birga sellar ishi natijasida keltirilgan xarsang toshlar ham uchraydi. Biroq, qattiq tog‘ jinslari (ohaktoshlar, dolomitlar, marmarlar) ko‘p tarqalmagan. “*Kuyovtosh*” ustunsimon shaklga ega va Guralash soyining o‘ng qirg‘og‘idagi ikkinchi terrasasida, Qorashaqshaq qishlog‘idan 4-5 km sharqda hosil bo‘lgan. Uning balandligi va diametri 10 m lar chamasida. “*Kuyovtosh*” joylashgan hududning iqlimi yumshoq, yillik yog‘ingarchilik miqdori 400-500 mm, o‘rtacha yillik harorati 10-11 daraja. yoz oylari salqin bo‘lib, buloqlar ko‘p. Bunday maskanlarda xorijiy va mahalliy turistlar soni talaygina.

O‘zbekiston turistik salohiyati jihatidan sayyoohlarning dam olishi uchun imkoniyati keng davlat hisoblanadi. Quyidagi 8-jadvalda ko‘rish mumkin.

Turistik obyektlar

<i>Nº</i>	<i>Turizmning turlari</i>	<i>Turistik obyektlar haqida qisqacha tavsif</i>
1	<i>Davolash-sog'lomlashtirish</i>	<p>“<i>Zomin</i>” (Jizzax viloyati) bu joylarni tog‘li landshfat va bir asrlik ignabari daraxtlari uchun “o‘zbek Shveysariysi” deb atashadi. Daraxtlarning xushbo‘yligi va shifobaxshligi tog‘ havosini yanada to‘yintiradi</p> <p>“<i>Oqtosh</i>” (Toshkent viloyati) bu yana bir keng bargli daraxtzorlarga boy ommabop tog‘ kurorti bo‘lib, bu yerda Oqtosh va Ayubsoy tog‘ daryolari oqib o‘tadi.</p> <p>“<i>Chimyon</i>” sihatgohi (Farg‘ona viloyati) davolash ishlari bu yerda topilgan vodorod sulfid manbalari va shifobaxsh loylar asosida amalga oshiriladi.</p>
2	<i>Rekreatsion turizm</i>	<p><i>Xo‘jakent</i> (Toshkent viloyati) yodgorliklar ko‘p uchraydi, masalan qadimiy odamlar tomonidan qoyaga o‘yilgan rasmlar, ko‘p asrlik chinorlar va sharshara.</p> <p><i>Chorvoq</i> (Toshkent viloyati) yozda ham, qishda ham dam olish mumkin; ko‘l xushmanzara tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan, qariyb 100 kilometrlik qirg‘oq bo‘yi liniyasida ko‘p sonli dam olish maskanlari bor. Ular orasida “<i>Chorvoq oromgohi</i>” qulayligi va shinamligi bilan alohida ajralib turadi. Bu yerda qumli plyajda dam olish mumkin.</p>
3	<i>Ekologik turizm</i>	<p><i>Urung‘och ko‘llariga</i> (Toshkent viloyati) sayyohat paytida ko‘z oldingizda qorli tog‘ cho‘qqilari bilan o‘ralgan tog‘ ko‘llarining mahobatlari ko‘rinishi namoyon bo‘ladi. Bu yerda osoyishitalik va tabiat manzaralaridan baha olishinigiz mumkin.</p> <p><i>Zomin Milliy bog‘i</i> (Jizzax viloyati) bo‘ylab sayyohat qilar ekansiz, bu yerdagi betakror tabiat manzaralarini tomosha qilib, sof tog‘ havosidan baha olasiz.</p>
4	<i>Ekstremal turizm</i>	<p><i>Chimyon cho‘qqisi</i> (Toshkent viloyati) faol dam olishni yoqtiruvchilarga mo‘ljallangan. Chimyon – O‘zbekiston tog‘ turizmi markazi. Qishda bu yerda chang‘i uchuvchilarni, yozda esa tog‘ cho‘qqisiga yo‘l olgan sayohatchilarni uchratish mumkin.</p> <p><i>Oqsoqota</i> (Toshkent viloyati) bu keng dara bo‘lib, chuqurligi 30 km dan ortiq. Bu yerda tik qiyaliklar, salqin o‘rmonlar va qayinazorlarni tomosha qilishingiz mumkin bo‘ladi.</p>

5	<i>Tog‘-chang‘i turizmi</i>	<p><i>Chimyon va Beldersoya</i> (Toshkent viloyati) Bu yerda bir necha mehmonxona turidagi zamonaivy pansionatlar va mehmonxonalar bor. Chimyondagi trassalar tog‘ ko‘chkilarini yo‘lidan chetda joylashgan, shu sababli ular deyarli xavfsiz.</p> <p><i>Qumbet</i> (Toshkent viloyati) tog‘ cho‘qqisi dumaloq shaklda bo‘lib, uning yon bag‘rlarida tog‘-chang‘i trassasi o‘tadi.</p>
---	-----------------------------	--

O‘zbekistonda har bir fasl turistlar uchun o‘ziga hos bo‘lishini ko‘rsatib berishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Bundan tashqari O‘zbekistonning turistik salohiyatini qo’llab-quvvatlashda UNWTOning rahnamoligida o‘tadigan, Toshkentdagi xalqaro “Ipak yo‘lidagi turizm” yarmarkasining ham ahamiyati juda katta. Bu yarmarkaning asosiy maqsadi turizm sohasidagi o‘zbek hamda horij mutahassislarini birlashtirish, ular o‘rtasida professional hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat. Bugungi kunga kelib bu xalqaro yarmarka Markaziy Osiyodagi eng yirik ko‘rgazmalardan biri sifatida nom qozongan.

Afsonaviy o‘tmishi, Ipak yo‘lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan-avlodga o‘tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo’sligi va insoniy qadriyatli bilan sayyoohlarni hayratga soluvchi, shu bilan birga ularni hursand etuvchi O‘zbekiston barcha davlatlardan kishilarni o‘ziga jalb etadi.

Mamlakatimizda joylashgan turistik obyektlarni 5 guruhga ajratish mumkin:

1. Tabiiy yodgorliklar - jonli va jonsiz tabiat yaratgan noyob, diqqatga sazovor obyektlar: g'orlar, sharshalar, ajoyib shaklli qoyatoshlari, daralar, geyzerlar, buloqlar, ochilib qolgan tog' jinslari qatlamlari, ko'p asrlik daraxtlar hisoblanadi. Masalan: Kalasang sharsharsi, Ixnoch ko'li, Balogardon g'ori, Xaramzodasoy, G'alvasoy, Sijjaksoy, Oqsarsoy, Orkutsoy, Avliyosoy kabilardir. Bunday tabiat yodgorliklaridan ilmiy, estetik, rekreatsiya, sayohat, turizm, istirohat, tarbiyaviy maqsadlarda foydalaniladi.

2. Arxeologik yodgorliklar - qadimiy shaharlarning qoldiqlari, qadimiy qal'alar harobalari, ko'hna qadimiy xalqlar hayoti haqidagi arxeologik ashyolar, topilmalar va boshqalar. Arxeologlar tomonidan topilgan va ayni paytda qazilma qidiruv ishlari olib borilayotgan Qushqo'rg'ontepa, Shoxjuvortepa kabi joylar kiradi.

3. Tarixiy yodgorliklar - tarixiy-etnografik yodgorliklar, jumladan, tarixshunoslikka ishtiyoqmand bo'lgan turistlarga katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Ayniqsa, Burchmulla shahristoni, G'alvatepa yodgorliklari o'zining sharqona ko'rinishi bilan turistlar e'tiborini tortmoqda.

4. Ziyoratgohlar - muqaddas deb hisoblaydigan va sig'inadigan joylar. Bular payg'ambar, shayx, eshon, avliyolar, diniy rahnamolar nomi bilan bog'liq muqaddas hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan shahar, maqbara, chashma, daraxt, tepalik, g'or va boshqalar. Bunday obyektlar ziyorat qilish bilan birga xushmanzara va so'lim tabiat go'shalari bilan turistlarni o'ziga rom etib kelmoqda. Masalan, Po'stinlik ota, Ko'k to'nlik ota, Kaptar kumush buva va h.k.

5. Monumental yodgorliklar - inson qo'li bilan yaratilgan san'at asarlari. Masalan, Motamsaro ona haykali kabilardir [21].

Respublikamizda mayjud bo'lgan turistik obyektlarning ba'zilari bilan tanishib chiqamiz (9-jadvalga qarang).

9-jadval

O'zbekistonning turistik obyektlari

Nº	Turistik obyektlar nomi	Turistik obyektlar haqida qisqacha ma'lumot	Turistik obyektlarning rasmi
1	"Minor" Masjidi	2014 yilning 1 oktyabrida muborak Qurbon Xayit bayrami arafasida ochilgan. Bu masjid O'zbekistondagi eng katta masjidlardan biri bo'lib, unga bir vaqtning o'zida 2400 dan ortiq nomozxonalar o'z farzlarini ado etadilar. Masjid qurilish va dizayn ishlari Prezident taklif va tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan. Masjidning umumiy xududi 11 ga dan kattaroq, bino maydoni esa - 17700 kvadrat metrdan iboratdir.	
2	Juma masjid (Xiva)	(Xorazm)dagи me'moriy yodgorlik (X-XVIII asrlar). Ichan Qal'aning markaziy qismida Oma darvoza va Polvon darvozalarini birlashtiruvchi ko'chada joylashgan.	
3	Sherg'ozixon madrasasi	XVIII asrning birinchi yarmida qurilgan. Madrasa Xorazmdagi o'quv muassasalari orasida eng ko'hnasidir. Uni Xiva xoni Sherg'ozixon 1719 yili Mashhadga muvaffaqiyatli safar qilgandan so'ng ana shu g'olibona safar sharafiga qurdirgan.	
4	Shayx Muxtor Valiy Maqbarasi	Shayx Muxtor Valiy Maqbarasi - Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi me'moriy yodgorlik (XIV asr). Katta va kichik xona hamda qabrdan iborat. Katta xonaning to'rt tomoni chuqur ravoqli, keyinchalik yonlaridagi hujralarga eshik ochilgan.	

5	<i>Ichan qal'a</i>	O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal'a (Shahriston) qismi. Ichan qal'a shaharning Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal'a)dan baland Qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rindi. Ichan qal'aga 4 darvoza (Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota darvozalar)dan kirlgan	
6	<i>Pahlavon Mahmud maqbarasi</i>	Xivadagi me'moriy yodgorliklardan biridir. Ushbu maqbara 1810 - 1835 yillarda Palavon Mahmud dahmasi ustiga 1664 - yili qurilgan kichik sinch imorat o'rniда bunyod etilgan	
7	<i>Chor Minor majmuasi</i>	Chor Minor me'moriy obidasi Xalfa Niyozqul tomonidan bunyod etilgan. Ushbu inshootning qurilishiga homiylik qilgan Xalfa Niyozqul turkman urug'idan bo'lib, Amir Haydar hukmronligi davrida yirik davlat lavozimlarida ishlagan. U XIX asrning o'rtaida vafot etgan	
8	<i>Govkushon madrasasi</i>	Buxorodagi jo'ybor shayxlari tomonidan bunyod etilgan	
9	<i>Abdullahxon madrasasi</i>	Me'moriy obida Abdullahxon II tomonidan bunyod etilgan. U (to'liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abdulxayrxon) (1534-Miyonqol, Ofarinkent qishlog'i, 1598-Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniyalar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi.	
10	<i>Masjidi Kalon</i>	Inshoot o'rta asrlarning noyob me'morchilik namunasi bo'lib, uning o'rniда dastlab qoraxoniylar sulolasini hukmronligi davrida Juma masjidni bunyod etilgan. Shayboniyalar davrida esa u Masjidi Kalon sifatida qayta qurildi. Masjidning	




		hozirgi ko'rinishi Shayboniyalar sulolasiga mansub xonlar tomonidan bunyod etilgan.	
11	<i>Minorai Kalon (Katta Minora)</i>	Me'morchilik namunasi Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrdagi amiri Arslon Bug'roxon tomonidan bunyod etilgan.	
12	<i>Ismoil Somoniy maqbarasi</i>	O'rta Osiyoda Somoniylar davri me'morchiliginin nodir namunalardan biri bo'lgan bu tarixiy obida Ismoil Somoniy tomonidan bunyod etilgan.	
13	<i>Setorai Mohi Xosa</i>	Tarixiy obida Buxoroning mang'it sulolasiga mansub amirlari Amir Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffar (1860-1885), Amir Abdulahad (1885-1910), Amir Olimxon (1910-1920)lar tomonidan qurilgan.	
14	<i>Ko'kaldosh madrasasi</i>	Buxoro shahrining Labi hovuz majmuasining shimolida joylashgan Ko'kaldosh madrasasi Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan bunyod etilgan	
15	<i>Abdulazizxon madrasasi</i>	Buxorodagi me'moriy yodgorliklardan biri bo'lgan Abdulazizzon madrasasi ashtaxoniyarning beshinchchi vakili Abdulazizzonning buyrug'i bilan me'mor Mimxoqon ibn Xo'ja Muhammadamin tomonidan 1652-yilda qurilgan.	
16	<i>Ark qal'asi</i>	Eng ko'hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal'asi bo'lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniyalar sulolasini davrida ansambl holiga kelgan	
17	<i>Baroqxon madrasasi</i>	Toshkentda qurilgan Madrasa (1531/32 - XVI asrning 2-yarmi). Hovli atrofida hujralar va ichki tarafida peshtoq bo'lib, madrasaning g'arbiy qismi birmuncha oldinga chiqqan Baroqxon madrasasi -. Poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiq g'ishtdan ishlangan. Ba'zi joylari sinchli.	

18	<i>Shayx Zayniddin bobo maqbarasi</i>	Shayx Abu Bakr Zayniddin bobo Ko'yi Orifon Toshkandi (1164-1259) shayx bo'lgan. Otasi Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy, Bag'dodning katta mutasavviflaridan bo'lgan, suhravardiya tariqatiga asos solgan	
19	<i>Yunusxon maqbarasi</i>	Toshkentdag'i me'moriy yodgorlik (XV asr); Islom universiteti hududida joylashgan	
20	<i>Ko'kaldosh madrasasi</i>	Toshkentning markazidagi Chorsu maydonida joylashgan bo'lib, 1551-1575 yillarda Toshkent hokimi Ko'kaldosh tomonidan qurdirilgan.	
21	<i>Tilla Shayx jome masjidi</i>	"Tilla Shayx" jome masjidi "Mo'yi Muborak" madrasasining g'arbida joylashgan. Uni Hazrati Imom dahasining Parchabof mahallasida tug'ilgan Tilla Shayx (savdogar) qurdirgan.	
22	<i>Vobkent minorasi</i>	Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan. Vobkent minorasi Qoraxoniylarning Boxorodagi noibi Sadr Burhoniddin Abdulaziz II tomonidan bunyod etilgan.	
23	<i>Ulug'bek madrasasi</i>	Buxoro shahrida joylashgan Ulug'bek madrasasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan.	
24	<i>Mog'aki Attor masjidi</i>	Mog'aki Attor masjidi XII asrda qoraxoniylar hukmronligi davrida bunyod etilgan. XVI asrda shayboniylar sulolasi xonlari davrida qayta qurilgan.	
25	<i>Xoja Ahror Valiy majmuasi (1404-1490)</i>	XV asrga mansub me'moriy yodgorliklardan biri. U madrasa, masjid va minora hamda hovuzdan iborat. Madrasa 1630-1631 yillarda Nodir Devonbegi mablag'i hisobiga qurilgan. Xoja Ahror Valiy o'z zamonlarida butun Movarounnahr va Xurosonda mashhur shaxs bo'lgan.	

26	<i>Sherdor madrasasi</i>	Sherdor madrasasi Registon majmuasiga kiradigan obida bo'lib, u Samarqand hokimi Yalango'tsh Bahodir tomonidan 1619-1636 yillari Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'miga qurdirilgan. Sherdor madrasasi Ulug'bek madrasasining ro'parasida bir o'q chizig'i bo'ylab joylashgan.	
27	<i>Tillaqori madrasasi</i>	Samarqand Registonidagi eng keyingi qurilgan nihoyatda xushbicim va o'ziga xos madrasadir. Ulug'bek davrida qurilgan Mirzoyi karvonsaroyi o'miga 1646-1647 yillari Samarqand hokimi Yalango'tsh Bahodir farmoyishiga ko'ra, madrasaga va jome masjidga mo'ljallab qurilgan.	
28	<i>Shohizinda ansamblı</i>	Samarqandning qadimgi o'mi Afrosiyobni tomosha qilgan sayyoohlар uning janub tomoniga yursalar, qiyalikda joylashgan, moviy gumbazlari quyosh nurida yarqirab turgan Shohizinda ansanbmliga duch keladilar. Samarqandliklar uchun muqaddas ziyyaratgohga aylangan bu ulug' yodgorlik uzoq-yaqindan kelgan sayyoohlар uchun doimo suyukli ziyyaratgohdir.	
29	<i>Imom al-Buxoriy kompleksi</i>	Bu ziyyaratgoh, muslimon mamlakatlardan tashrif buyurgan sayyoohlар uchun bag'oyat qadrlidir. Chunki, bu yerda, o'z xizmatlari bilan islom dunyosida mashhur bo'lgan ulug' olim Imom al-Buxoriy maqbarasi mavjud. Imom al-Buxoriy dafn etilgan joy Chelak tumanidagi Xartang qishlog'i bo'lib, bu yerda Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan qurilgan masjid ham saqlangan.	
30	<i>Bibixonim maqbarasi</i>	Samargandning ko'hna qismida, Amir Temur jome masjidining kunchiqar tomonida, bundan olti asrlar ilgari barpo qilingan, mo'jazgina, asrlar yukidan beli bukchayib qolgan bir me'moriy obida qad rostlab turibdi. Bu obidaning gumbazi ostida Amir Temuring suyukli xotini Saroymulxonim-Bibixonimning maqbarasi mavjud.	

31	<i>Amir Temur maqbarasi</i>	XIV asning so'nggi yillari Sohibqiron Amir Temurning Kichik Osiyoga qilgan yurishi yangi-yangi zafarlar bilan boyib bormoqda. Amir Temur jo'natgan chopar, 1401 yili poytaxtga yetib kelib, bobosi tomonidan Samarcand hokimi qilib tayinlangan Muhammad Sultonga sohibqironning maktubini topshirgan.	
32	<i>Xoja Abdu Darun maqbarasi</i>	Samarqand qal'a devorining shaxriy tomonida (darun - ichkari) joylashgan qadimgi ziyyaratgoh. Markazida eng yirik bino - xonaqoh (XV asr) ko'zga tashlanadi.	
33	<i>Go'ri Amir maqbarasi</i>	Go'ri Amirga Amir Temur avlodlari dafn etilgan. Bu yerda sohibqironning piri Mir Sayyid Baraka va Sayyid Umarning qabri ham bor. Ulug' Shayx Mir Sayyid Baraka Kirmon viloyatidan bo'lib, Amir Temurning ustozи hisoblanadi. U 1404 yilda Mozandaronda vafot etgan va Afg'onistonning Andhud shahrida dafn etilgan. Amir Temur vasiyatiga ko'ra jasadi Samarcandga Shohruh Mirzo tomonidan keltirilgan. Buyuk Sohibqiron o'z jasadini uning oyog'i uchiga qo'yishlarini vasiyat qiladi.	
34	<i>Ulug'bek madrasasi</i>	Ulug'bek madrasasi Movarounnahr hukmdori, buyuk olim va munajjim Mirzo Ulug'bekning buyrug'iiga ko'ra 1417-1420 yillarda qurilgan. Ushbu madrasa Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan eng qadimgi o'quv yurti binosidir.	
35	<i>Registon maydoni</i>	Qadimi Samarqandga tashrif buyurgan sayyoohlar bu muazzam shaharning yuragi bo'lmish Registon maydoni va unda qad rostlagan uch madrasaning ko'rki, salobatidan hayratga tushadilar. Uning nafis go'zalligini saatlab tomosha qiladilar, sehrli taraladigan sukonat qo'shig'ini tinglaydilar.	

36	<i>Urungach nefrit ko'li</i>	Ugam-Chotqol milliy parki hududi o'zining shaffof ko'llari va so'lim daraxtlari bilan ajoyib tabiiy manzara kashf qiladi. Urungach nefrit ko'llari milliy parkning gavhari hisoblanadi. Urungachning quyi va yuqori ko'llari bo'y lab sayohat qilar ekansiz, tiniq suvlarda suzish, to'g'ongacha sayr qilish va yuqori ko'l suvlarida aks etuvchi qoyalar bilan tanishish mumkin. Shahargacha bo'lgan masofa: 150 kilometr.	
37	<i>Ispay darasi</i>	Ispaysoy Qorabuloq postidan o'tganda joylashgan. Bu yerda Ispay daryosining suvidan zavq olib cho'milish mumkin. Mahalliy aholi mehmonxona uylariga joylashish, shuningdek, sharsharagacha otda sayr qilishni taklif qiladi. Pskom tizmasidagi muzliklar va tog' yo'llarining ko'pligi bu hududni tog' turizmi uchun qulay qiladi. Shahargacha bo'lgan masofa: 130 kilometr.	
38	<i>Marmar daryo darasi</i>	Beldirsoy yaqinida joylashgan mashhur dam olish maskani. Beldirsoyning osma doriga yetmasdan chapga qayirilganda, biroz yayov yurilib, Marmar daryosining birinchi katta sharsharasi oldidan chiqiladi. Sharsharaning chap tomonidan aylanib o'tib, yuqoriga ko'tarilganda, ajoyib dam olish maskanlari mavjud. Sershovqin soy, yashil daraxtlar va ko'plab suzish havzalari mavjud. Shahargacha bo'lgan masofa: 75 kilometr.	
39	<i>Parkentsoy</i>	Toshkentga eng yaqin joylashgan ajoyib tosh daralari manzaraga ega ko'r kam maskan. Bu yerda "Kumushkon" dam olish uyiga joylashib, mazmuni hordiq chiqarish mumkin. Buloq, soy, qoyalar - bularning hech biri sizni befarsq qoldirmaydi. Oqim bo'y lab yuqoriga harakatlaniib, sharsharalar chekkasiga borib ajoyib manzaraning guvohi bo'lishingiz mumkin. Shahargacha bo'lgan masofa: 50 kilometr.	

40	<i>So'qoq</i>	Ushbu maskan o'z landshaftining noan'anaviyligi bilan ajralib turadi. Sershox qarag'salqin havo bilan ta'minlaydi. Bu yerda sayyoh tanlashi mumkin: meteostansiyagacha borish yoki Shohqo'rg'on tog'iga ko'tarilish. Shohqo'rg'onдан tog' tizmalari, Zarkent va So'qoq qishloqlarining ajib manzarasi kishiga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Tog'ga yaxshi jismoni yaytayorlarlik bilan 1,5-2 soatda ko'tarilish mumkin. Bundan tashqari, mahalliy kaboblar ham mehmonlarni besarf qoldirmaydi. Shahargacha bo'lgan masofa: 60 kilometr.		43	<i>Kumbel tog'i</i>	Cho'qqiga chiqish istagini bildirayotganlar soni tobora oshib bormoqda. Ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydigan sayohatsevarlarni Beldirsoyga, Qumbel tog'iga taklif qilish mumkin. Uning balandligi - 2350 metr. Yo'lning bir qismini osma dorda kesib o'tish mumkin. Yuqori stansiyada tushib, yana 40 daqiqa yurish kerak bo'ladi. Tog'da meteorologik stansiya joylashgan. U yerga tushdan keyin quyoshning botishini tomosha qilishga chiqqan kishi go'zal manzaraning guvohi bo'ladi. Shahargacha bo'lgan masofa: 75 kilometr.	
41	<i>Gulkamsoy</i>	Katta Chimyon atrofidagi hudud ko'plab tasviriy zonalarga bo'lingan. Agar siz tirband shahardan dam olishni ixtiyor qilgan bo'lsangiz, Gulkamsoy daralari dam olish uchun yana bir maqbul joy hisoblanadi. Soy atrofidagi soya-salqin joylar, kichik suv to'siqlarini yengib o'tish, sharshara sizga unutilmas taassurotlar va ekstremal histuyg'ularni taqdim etadi. Hudud qulay yozgi supalar bilan jihozlangan, bu yerda oilaviy hordiq chiqarish mumkin. Shahargacha bo'lgan masofa: 110 kilometr.		44	<i>Oqsoqota darasi</i>	Bu yerda O'zbekiston Milliy universitetining yozgi oromgohi joylashgan. Oqsoqota - 30 kilometr dan ziyod chuqurlikka qarab ketuvchi keng dara. Bu maskanda qoyalar, soya-salqin o'rmonlar va qarag'ayzorlarni uchratishingiz shubhasiz. Shaharning shovqinidan keyin bu xushmanzara maskanda bo'lishni kim ham orzu qilmaydi deysiz?! Ushbu maskan ham sokin, ham faol dam olish tarafdarlariga to'g'ri keladi. Shahargacha bo'lgan masofa: 120 kilometr.	
42	<i>Katta Chimyon cho'qqisi</i>	Bu yerga borish g'oyasi faol hordiq tarafdarlariga mo'ljallangan. Chimyon - O'zbekistonning tog' turizm markazi. Qishda bu yerda chang'ichilarni uchratish mumkin, yo'zda esa - mahalliy cho'qqini zabt etish uchun kelgan ko'plab guruhlarni. Sayohat balandlikka harakatlansidan iborat bo'ladi. 3000 metr balandlikkacha yo'naliш nisbatan oson bo'ladi - aniq yo'l, keng joy. Biroq so'nggi 300 metr masofada yo'lda qoyalar uchraydi, bu yerda gid ko'rsatmalariga rioya qilish zarur. O'rta tayyorgarlarlik ko'rgan kishi uchun 3309 metr balandlikka ko'tarilish 6-8 soat vaqtini oladi. Shahargacha bo'lgan masofa: 80 kilometr.		45	<i>Beldirsoy yaylovları</i>	Tasavvur qiling: yozgi quyosh taftida toblangan hamda musaffo tog' havosi bilan to'yingan xushbo'y maysalar. Oilaviy hordiq uchun bundan yaxshisi bormi?! Beldirsoy nomini olgan yaylov aynan sayyoqlarbop maskandir. Archazorlarni kezib, suvning tovushiga qulqoq tutish albatta oldinda kutayotgan ish kunlariga yangi kuch-quvvat baxsh etadi. Shahargacha bo'lgan masofa: 75 kilometr.	

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning turizm sohasidagi yetarli darajada va har qanday xorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab

muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi.

Tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishi, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Turistik obyekt deganda nimani tushunasiz?
2. Turistik obyektlarga misollar keltiring?
3. O'zbekistonning turistik salohiyatiga tavsif bering?
4. Mamlakatimizda joylashgan turistik obyektlar qanday guruhlarga bo'linadi?
5. Respublikamizdagi tabiiy turistik obyektlarning geografik o'rniغا tavsif bering?

§10. O'ZBEKISTONNING EKOTURISTIK SALOHIYATI

Reja:

1. Ekoturizm tushunchasiga umumiy tavsif
2. O'zbekistonning ekoturistik rayonlari

Tayanch atamalar: Ekoturizm, tog' turizmi, sayohat, o'rmon, daryo, ko'l, alohida muhofaza etiladigan hudud, tabiat, dengiz va okean ekoturizmi.

O'zbekistonning boy va g'oyat xilma-xil ekoturistik salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko'p jihatdan ekoturizmni rivojlantirishni oqilona boshqarish bilan uzviy bog'liqdir.

Ekologik turizmnинг mazmuni va mohiyati bo'yicha birinchi bo'lib Meksikalik ekolog-iqtisodchi Gektor Seballos Laskureyn 1980 yilda o'z tadqiqotlari natijalarini bildirgan edi. Uning xulosasi bo'yicha - "Ekologik turizm - bu flora va faunani o'rganish, tabiat bilan tanishish, dam olish, tabiatga yordam berish imkoniyatlarini bildirishga asoslangan sayohatdir". 1997 yilda G.S.Gujin, M.Yu.Belikov va E.V.Klimenkolar Rossiya birinchilardan bo'lib, "Ekologik turizmning asosi atrof-muhit g'amxo'rliqi va muhofazasidir" degan taklifni kiritdi.

MDH davlatlarida Rossiyalik quyidagi olimlarni ekologik turizm asoschilari deb tan olishadi: M.B.Birjakov - "Ekologik turizmda tabiatga minimum ta'sir qilib tabiat bilan birga bo'lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish" goyasini kiritdi. A.V.Drozdov - "Eski va Yangi dunyoda bir vaqtning o'zida mahalliy aholining an'anaviy

madaniyatini hurmat qilishga, sayohatchilarning ijtimoiy va ekologik talablarini qondirishga, sayyoraviy ekologik inqirozning oldini olishga asoslangan ekoturizm shakllandi". T.S.Sergeyva – "Ekoturizm - bu mahalliy aholining an'anaviy hayoti, turmush tarzi saqlanib qolgan, xo'jalik faoliyat ta'siri sezilmagan noyob tabiiy hududlarga sayohat: ekologik tur va dasturda tabiatni muhofaza qilish me'yor va texnologiyalariga rioya qilgan holda turistik jarayondagi barcha katnashchilarning ekologik madaniyatini va mahalliy aholining hayotiy darajalarini oshiradi" degan g'oyalar ilgari surildi.

Ekoturizm jadal rivojlantirilayotgan davlatlarning ekoturizm dasturlari asosida xalqaro tabiat va turizm tashkilotlari ham ekoturizmnинг ta'riflarini qabul qildi: Butunjahon turizm tashkiloti - "**Ekoturizm**-tabiat turizmining barchasini o'zida mujassamlashtirib tabiiy hududlarga ma'suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza qilishni ta'minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi".

Ekoturizmning mohiyati va mazmuni haqida "Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi", "Xalqaro turizm jamiyatি", "Yovvoyi tabiat umumjahon jamgarmasi" va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar Butunjahon turizm tashkilotining ekoturizm haqidagi ta'risini qabul qildi.

Hozirgi vaqtida ekoturizmni quydagi turlarga ajratish mumkin.
Jumladan:

➤ **Ilmiy turizm.** Bunda sayyoohlar dala sharoitida kuzatish ishlari olib boradilar, tabiat izlanishlarida ishtirok etadilar. Masalan, Lotin

Amerikasi mamlakatlaridan biri - Kolumbiyada boy qushlar olamini o'rganish uchun "Kolumbiya qushlari" degan ekoturlar o'tkazilib, unda boshqa davlatlardan kelgan ornitologlar ham qatnashib, ilmiy izlanishlar olib boradilar. Bunda sayyoohlar faol harakat usullari qo'llab, tabiiy mo'jizadan bahra oladilar. Ilmiy turizm yana chet elga bo'lgan ilmiy-tekshirish ekspeditsiyalari va tabiiy fakultetlarda o'qiyotgan talabalarning dala praktikasi ham kiradi.

➤ **Tabiat tarixini o'rganish turlari.** Bu atrof-muhitni va mahalliy madaniyatni o'rganish uchun qilingan sayohatdir. Ular ko'pincha qo'riqxonalar va milliy bog'larda tashkil etilishi mumkin. Bu turlar tabiat fenomenlari bor joylarda ham tashkil qilinadi. Bunga maktab o'quvchilarining safarları ham kirib, unda o'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan joylarning tabiatini, tarixi to'g'risida hikoya qilib beradi.

Samarqand shahrining janubi-g'arbida Qoratepa tog'lari joylashgan bo'lib, undagi cho'qqi ustida Hazrati Dovut g'ori joylashgan. Bu g'orga borish yo'li obodonlashtirilgan va unga hamma ham borishi mumkin. Lekin, g'orga borgan vaqtida malakali ekskursiya rahbari boshchilik qilib, g'orning paydo bo'lish tarixi va sabablarini tushuntirib bersa, unda taxminlarga yo'1 qolmas hamda g'or to'g'risidagi afsonalarga izoh berilgan bo'lar edi. Bundan tashqari ekosayyoohlar olib borgan tozalash ishlariда g'or ichi va tashqarisining ko'rinishi kuchli o'zgarishi mumkin bo'lardi.

➤ **Sarguzasht turizmi.** Barcha faol harakat turlarini o'zida jamlagan sayohatlarni o'z ichiga oladi hamda unga tabiatda dam olish turlari ham kiradi. Ulardan maqsad yangi hissiyotlarni sezish, taassurotlarni boshdan

kechirish, sayyoohlarning fizik shakllarini yaxshilash va yangi sport yutuqlariga erishishdir. Bu tur turizmga alpinizm, qoyalarda yurish, tog‘da piyoda yurish, suv-chang‘i va tog‘-chang‘ida, otda yurish turizmlari kiradi.

➤ **Alovida muhofaza etiladigan turizm.** Tabiat hududlariga alovida sayohat etish ekoturizmning asosiy turi hisoblanadi.

Ekoturizm vazifalarining asosiy farqi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, jumladan:

- ✓ mahalliy aholi o‘z hududlarining sotsial-iqtisodiy rivojida ishtirok etishi;
- ✓ turizm obyektlari ichida tabiiylarining ko‘pchiligi;
- ✓ mustaqil tabiatdan foydalanish;
- ✓ quvvatni kam iste’mol etishi;
- ✓ sayyoohlarning ekologiya sohasida bilimli bo‘lishi.

Ekoturizmning rekreatsion resurslariga tabiat, tog‘ va tekisliklar, daryolar, cho‘l va vohalar, ko‘l va turli landshaft zonalari kiradi. Bular asosida ekoturizm quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi:

- ❖ dengiz va okeanlar ekoturizmi;
- ❖ o‘rmon va sun‘iy bog‘lar zonalari ekoturizmi;
- ❖ daryo va ko‘llar ekoturizmi;
- ❖ tog‘ ekoturizmi;
- ❖ tarixiy obidalar ekoturizmi;
- ❖ arxitektura yodgorliklari ekoturizmi;
- ❖ ekologik tang zonalar ekoturizmi;

❖ alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ekoturizmni rivojlantirishning zarur shart-sharoiti ekoturistik salohiyatning mavjudligi bo‘lib, ular noyobligi, ekologik jozibadorligi, davolash-sog‘lomlashtirish xususiyatlari, ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadigan tabiiy-ekologik komponentlar, landshaftlar, xo‘jalik faoliyati obyektlaridan tarkib topadi. Ekoturistik salohiyatdan tegishli moddiy-texnika bazasi - infratuzilma, asosiy fondlar yordamida foydalaniladi. U tegishli hududlarni ekoturistik maqsadlarda o‘zlashtirish jarayonida barpo etiladi. Ekoturizm tizimi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kichik tizimlar-tabiat va madaniy komplekslar, muhandislik inshootlari, xizmat ko‘rsatuvchi personal, dam oluvchilar va boshqarish organlaridan tashkil topadi.

Ekoturizm va uning rivojlanishi nafaqat o‘rganilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga bog‘liq bo‘libgina qolmasdan balki shu hududning tabiiy sharoitiga, unda ekoturistik obyektlarning mavjudligiga va ularning geografik o‘rniga ham bog‘liqdir. Chunki, tabiiy sharoit xususiyatlari hududning ekoturistik imkoniyatlarini va uning qaysi turlarini rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi.

Bugungi kunda ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biriga aylandi. Ekspertlarning fikricha, bu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ortiq ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 770 milliard AQSH dollarini tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ham boy tabiiy resurslar, betakror o'simlik va hayvonot olamiga ega. Ushbu salohiyatni asrash va ko'paytirish maqsadida ko'plab milliy dastur va loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Boisi, mamlakatimizda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, ekoturislarni ona tabiatimizga jalb etish, balki iqtisodiy sharoitni yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi, nafaqat ma'naviy ilm-fan, madaniyat, ma'rifat balki tabiatni muhofaza qilish, ekoturislarni tabiatimizga jalb etish, noyob hayvonot olamini saqlash va ko'paytirish muammolarni hal qilishga, balki shu bilan birga iqtisodiy masalalarini - mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, ularni yangi ish joylari bilan ta'minlash hamda vatanimizning iqtisodiyotini o'sishiga, katta hissa ko'shadi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarining o'rtasida, ekoturizmning rivojlanishi uchun qulay bo'lgan transport chorrahasida joylashganligi ham ekologik turizmni rivojlantirishda ko'plab salohiyatlari imkoniyatlarni yaratadi.

Respublikamiz o'zining turistik resurslari bo'yicha Markaziy Osiyoda oldingi, dunyoda noyob turistik potensialga ega bo'lgan 10-15 ta davlat orasida joy egallaydi. Uning hududida har xil tarixiy davrlarga mansub noyob arxitektura, tarixiy va tabiat yodgorliklari mavjud.

O'zbekistonga turistlarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning xushmanzara tabiatni va uning xilma-xilligidir. Sababi, O'zbekiston iqlimi, ob-havosi yil davomida dam olish va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Jumladan, geografik o'rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo'lgan, sanoat rivojlangan va aholi zich yashaydigan Toshkent viloyatida ekoturlarga talab yuqori.

Chunonchi, viloyatning ekoturistik salohiyati yuqori bo'lib, uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Misol uchun, Bo'stonliq tumani o'zining ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa tumanlaridan ajralib turadi. Eng muhimi, hududda turizmning, ayniqsa, ekoturizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud

Shu o'rinda qayd etish kerakki, bugun ekologik inqirozning sayyoraviy tus olishi insoniyatni tashvishga solmoqda. Ekologik muammolarning dunyo miyisosida haddan tashqari og'irlashib ketayotgani zamirida tabiatning o'zini-o'zi tiklash kuchi pasayayotgani, uning resurslari kamaygani, atrof-muhit ifloslanib, zaharlanib borayotgani yotadi. Bu borada aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash o'ta muhimdir. Zero, ekologik ta'lim-tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o'rni va ahamiyatini olib berishga qaratilgan ko'plab qarashlar olg'a surilmoqda. Shu o'rinda, "O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishning ahamiyati nimalardan iborat?" degan savol tug'iladi. Buning bir necha asoslari bor:

Birinchidan, xalqaro maqomdagagi tashkilot va muassasalarining ma'lumotiga ko'ra, ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizm yiliga o'rtacha 20-30 foizga ko'payib bormoqda. Ko'pgina mutaxassis va tadqiqotchilarining ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmnинг yangi va yosh yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvি boshqa turistik yo'nalishlarga nisbatan 2-3 barobar jadal kechmoqda;

Ikkinchidan, O'zbekistonda turizmning tarixiy turizm, diniy turizm, madaniy turizm kabi turlari bo'yicha muayyan yutuq va tajribalar bazasi shakllandi;

Uchinchidan, ayni paytda O'zbekistonda 800 ga yaqin turizm faoliyatini ko'rsatuvchi turoperatorlik firmalari, 600 ga yaqin mehmonxonalar, 30 dan ortiq muhofazaga olingan hudud (qo'riqxona, milliy bog', nodir tabiat yodgorliklari va h.k.)lar, 60 ta o'rmon xo'jaliklari, faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda 400 dan ortiq tabiatning noyob yodgorliklari mavjud.

Ekoturizmni rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- ✓ jahon turistik xizmat bozorida O'zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potensiali va resurslarini namoyish qilish;
 - ✓ hududlarning, ayniqsa, tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag'batlantirish;
 - ✓ turizmni rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati va ulushini oshirish;
 - ✓ O'zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar hajmini jadal oshirish;
 - ✓ istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish;
 - ✓ O'zbekistonning turizm sohasidagi ijobiylar qiyofasini shakllantirishda ekoturizm rolini oshirish va h.k.
- O'zbekiston ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turopertatorlik firmalari tomonidan "Toshkent-Chorvoq-Toshkent", "Toshkent-Bildirsoy-Chimyon -Toshkent", "Toshkent-Zomin-Toshkent", "Toshkent-Aydarko'l-Toshkent" kabi marshrutlarda o'tkazilgan ekoturlar, cho'l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e'tibor va e'tiroflariga sazovor bo'lmoqda.
- Tahlillarga ko'ra, ekoturizm xizmatlarini ko'rsatayotgan turopertatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya zonasidagi faoliyat ko'rsatmoqda xolos. Biroq, O'zbekistonning Hisor, Bobotog', Ko'hitangtog' (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo),

Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg'ona), Qurama, Chotqol (Namangan) tog'lari, Qizilqum cho'lidagi qoldiq tog'lar, Qizilqum cho'li, Orol dengizining qurigan tubi va qoldiq sho'r ko'llar, Ustyurt platosi, Borsakelmas sho'rxogi, Mingbuluoq botig'i, Aydarko'l, Dengizko'l, Amudaryo va Sirdaryo sohilidagi to'qaylar, Muruntov karyeri va tabiatning noyob yodgorliklari bo'ylab majmuali va mavzuli ekoturlar tashkil etish to'laqonli yo'lga qo'yilmagan.

O'zbekistonda o'ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo'lgan speleoturizm (g'or turizmi) katta imkoniyatlarga ega. Ayni paytda O'zbekistonda 500 dan ortiq g'orlar bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo'lmaganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti.

O'zbekiston cho'llari va tekislik hududlarida barxan, dyuna, to'qay, sho'rxok, taqir, quduqlarni, shuningdek, mahalliy cho'ponlar yashash tarzini namoyon qiluvchi o'tovlarni tomosha qilishga qaratilgan tuyu sayrini tashkil etish katta imkoniyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari va bu rayonlarning ekoturistik tavсifini A.Nig'matov va N.T.Shomuratovalar yaratdilar.



*I-chizma. O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari.
(karta A.Nig'matov va N.T.Shomuratovalar tomonidan ishlab chiqilgan).*

Xaritaga muvofiq butun mamlakatimiz hududi XIV ekoturistik rayonga ajratilgan. Ular quydagilar: Ustyurt, Orol va Orolbo'y, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarko'l, Sirdaryo, Chirchiq - Ohangaron, Farg'ona, Turkiston, Qashaqadaro, Hisor, Surxondaryo ekoturistik rayonlari kiritilgan (I-chizma). Har bir rayon o'zining ekoturistik holati, sharoitlari va rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ajralib turadi. Masalan, *Ustyurt ekoturistik rayonini* oladigan bo'lsak, u O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy-Qoraqolpog'istonda joylashgan plato bo'lib, uning umumiyligi maydoni 200 ming km² ni tashkil etadi. Bu joylar dunyoda eng katta va yagona 60-150 metrlik tik qoyali jarlari, davolash xususiyatiga ega bo'lgan juda katta-1000 km² li tuzli Borsakelmas sho'rxogi bilan mashhur. O'simlik qoplami siyrak, osh tuzi

va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. Neolit davridan qolgan “Ustyurt makoni” ham noyobdir. Unda 60 ga yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy obyektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy, ham ekoturistik ahamiyatga moyil “Tempa” makoni bo‘lib, undan Xorazm arxeologiya ekspedetsiyasi qadimiy mehnat va ov qurollari topilgan.

Orol va Orolbo‘yi ekoturistik rayoni ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo‘lgani uchun ham ekstremal ekoturistik obyekt bo‘lib hisoblanadi. Ekoturistik marshrutlar bir paytning o‘zida ham Orolning qurigan, ham uning ta’sirida bo‘lgan Orol atrofi hududlarini qamrab oladi. Ekoturlar nafaqat piyoda yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Amudaryo ekoturistik rayoni. Amudaryoning o‘zaniga yaqin sohillarida to‘qayzorlar mavjud bo‘lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli noyob landshaft hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o‘ng sohilida to‘qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto‘qay qo‘riqxonasi tashkil etilgan.

Amudaryo rayonida O‘zbekistonning ko‘hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borish mumkin.

Nurota ekoturistik rayoni o‘zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni e’tiborini tortadi. 1975 yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo‘lgan Nurota tog‘ yong‘oqzor - meva qo‘riqxonasi mavjud. Bu qo‘riqxonaga “Ekosan”

qoshidagi “Ekosantur” firmasi tomonidan ko‘plab marshrutlar yushtirilgan. Oqtog‘ning janubiy yonbag‘rida joylashgan shamol ta’sirida tebranib turuvchi bahaybat xarsang toshli “Sangijumon”, “Koriz qoldiqlar” kabi tabiat yodgorligi ekoturizmning muhim obyektlaridan bo‘lib hisoblanadi. Ko‘p asrlik ziyoratgoh “Chashma buloq” yaqinida “Chilustun” masjidi, madrasa, Abul Xasan Nuriy maqbarasi va qal’asi joylashgan. Qoratog‘ tizmasining janubiy yonbagrida “Sarmish darasi”dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, absolyut balandligi 1060 m, maydoni 163 m keladigan “Maydon karst gori”, Shimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, absolyut balandligi 1100 m, maydoni 70 m keladigan “Xonaixudo karst g‘or” da g‘orshunoslikni rivojlantirish mumkin. Bulardan tashqari, XI asrda bunyod etilgan va XVIII asr boshlarigacha turgan “Raboti Malik karvonsaroyi” sayyoohlarning to‘xtash joyi, shuningdek, savdogarlarning savdo qilish joyi bo‘lgan. Raboti Malik yonida ming yillik tarixga ega bo‘lgan madaniy yodgorlik-sardoba uchraydi. Yer ichiga 12 m botirilgan sardobada butun yoz bo‘yi muzdekkir va toza suv saqlangan.

Zarafshon ekoturistik rayonida Zarafshon daryosi bo‘ylarida joylashgan to‘qay landshafti, undagi o‘simgilik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtirilgan “Zarafshon qo‘riqxonasi” mavjud. Buxoro viloyatining Shofrikon o‘rmon xo‘jaligi hududida joylashgan qum cho‘l landshafti, u yerdagi o‘simgiliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorliklar (Vardanza shahar xarobalari) davlat

tomonidan qo'riqlanadi. "Vardanza qo'riqxonasi", "To'dako'l flora va faunasini boyitish buyurtmaxonasi", Qoravulbozor xo'jaligida joylashgan "Jayron-ekomarkazi", suv va botqoqqa moslashgan qushlarni ko'paytiruvchi "Dengizko'l buyurtmaxonasi", Zarafshon tog tizmalaridagi Omonqo'ton va Temurlang karst g'orlari, Zirabuloq - Ziyovuddin tog' tizmalaridagi ko'p qavatli "G'untrak g'ori" va boshqalar diqqatga sazovordir.

Turkiston ekoturistik rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyuşdırısh mumkin. Chunki, bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida 1959 yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m, umumiy maydoni 21735 ga bo'lgan "Zomin davlat qo'riqxonasi", maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog' - archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978 yilda tashkil etilgan "Zomin milliy bog'i" mavjud.

Qashqadaryo ekoturistik rayoni cho'l, dasht, tog' oldi va tog'li hududlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida cho'l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog' oldi va tog'li hududlariga ekoturlar uyuşdırısh mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979 yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo'lgan, MDH davlatlari ichida yagona "Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi", 1992 yilda tashkil etilgan "Muborak buyurtmaxonasi", 1992 yilda tashkil etilgan "Sechenko'l buyurtmaxonasi" mavjud.

Surxondaryo ekoturistik rayonida Ko'hitang tog'li hududda 1987 yilda tashkil etilgan, 53,7 ming ga maydonda 800 xil o'simlik va 290 ta qush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga

yo'naltirilgan "Surxon davlat tabiat qo'riqxonasi" mavjud. Surxondaryo rayoni respublikamizning o'ziga xos rayonlaridan biri, bu yerda quruq subtropik iqlim mintaqasi hukmron. Shuning uchun ham yilning ko'p oylarida nekoturlar uyuşdırısh imkoniyati bor.

Qizilqum ekoturistik rayoni O'zbekistonning boshqa ekoturistik rayonlaridan tabiiy - iqlimi xususiyatlari bo'yicha ajralib turadi. Chunki, bu ekoturistik rayon respublikamizdagagi eng katta cho'lning hududlarida joylashgan. Sayyoramizdagagi eng katta cho'llardan hisoblanuvchi Qizilqum cho'lining maydoni 32,5 mln ga shundan, 7 mln ga maydoni O'zbekiston hududlarida, qolganlari Qozog'iston Respublikasining asosiy maydonlarini egallaydi. Qizilqum cho'lida cho'lning barcha tiplari va relyef shakllari uchraydi. Mayda qum tepali massivlar va ko'chma qum barxanlari ham Qizilqumning asosan markaziy qismida joylashgan. O'simliklari va hayvonot dunyosi Markaziy Osiyoning cho'llari va o'simliklarini ifodalaydi.

Hisor ekoturistik rayoni. Bu ekoturistik rayonning asosiy ekoturistik salohiyati Hisor davlat qo'riqxonasining tafsiflari bilan belgilanadi. Hisor davlat qo'riqxonasi Qashqadaryo viloyatida Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'rida dengiz sathidan 1750 m dan 4349 m gacha balandlikda joylashgan. 1983 yilda ikki davlat qo'riqxonasi Qizilsuv va Miroqi qo'riqxonalarining birlashishi natijasida tashkil qilingan. Hozirgi paytda bu O'zbekistondagi eng katta qo'riqxonadir. Umumiy maydoni 80986 ga ni tashkil qiladi. Qo'riqxonada o'rmon, dala ekotizimlari ajralgan;

➤ o'rmon bilan qoplanmagan maydoni 56678,1 ga;

- yaylovlar mavjud;
- daryo va ko'llarga 171 ga to'g'ri keladi;
- botqoqliklar 511 ga;
- qiyaliklar va tog' yonbag'ridagi to'kilmalar 31819 ga ni tashkil qiladi;
- yo'llar, shudgor va qamishzor dalalar mavjud.

Qo'riqxonaning asosiy o'rmon hosil qiluvchi o'simliklari zarafshon va yarimsharsimon archalar hisoblanadi. Umuman olganda muhofaza etiladigan hududdagi o'simliklar Markaziy Osiyo tog'lari uchun odatiy bo'lib, uning katta qismi tor endemik o'simliklaridir. Ba'zi hisoblarga qaraganda tomirli o'simlik turlarining umumiyligi miqdori 800-900dan kam emas. Murakkab guldoshlar, dukkaklilar, butguldoshlar, donllilar, soyabonlilar turlari ko'plab uchraydi. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan noyob turlardan qo'riqxona hududida 32 turdan kam bo'lmagan tomirli o'simlik turi o'sadi. Qo'riqxonaning hayvonot olami boy, turli-tuman va tog'li o'rmonlarga xos bo'lgan deyarli barcha turlarni qamrab oladi. Qo'riqxonada 2 turdag'i baliq, 19 turdag'i amfibiya va reptiliya, 103 turdag'i uyali qushlar, 28 turdag'i sutevizuvchi yashaydi.

Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimiga kiradi va Davlat biologik nazorati tomonidan boshqariladi.

Aydarko'l ekoturistik rayoni asosan seryog'in bo'lgan 1969 yildagi suvlarning va Mirzacho'lni paxtachilik maqsadlarida o'zlashtirish natijalari, tashlama suvlarning ko'payishi natijasida

Aydarko'l va Arnasoy tizimidagi ko'llarining qo'shilib ketishi va Chordara suv omboridagi ortiqcha suvlarning tashlanishi hisobiga yuzaga keldi. Bu ekoturistik rayonning suv bilan band qismi 600 ming ga. Maydon yildan-yilga kattarmoqda va bu kattarish ham ko'p o'tmasdan o'zining salbiy oqibatlarini O'zbekistonliklarning oldiga ko'ndalang qilib qo'yadi. Hozirda bu suv havzalaridan baliqchilik va xalqaro miqyosda qishlovchi qushlarning muhofazasi maqsadlarida foydalilanmoqda. Bu joyda ekoturistik infratuzilmalar yaratilgan bo'lib, mahalliy, xalqaro ekoturistlarni qabul qilish boshlangan.

Sirdaryo ekoturistik rayoni asosan Sirdaryoning havzasini to'liq egallaydi. Bu daryo havzasida saqlanib qolningan to'qayzor va qamishzorlarda asosan baliqchilik, qisman sholichilik va qishlovchi qushlar ekoturistik obyektlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bu ekoturistik rayonda mahalliy ekosafari turistik marshrutlarini ham tashkil qilishning katta imkoniyatlari bor.

Chichiq-Ohangaron ekoturistik rayonida Chotqol tog'-o'rmon Biosfera tabiat qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol tabiat milliy bog'ining hududlari joylashgan. Bu ikkala muhim ekoturistik obyektlarning tavsiflari keltirildi. Bu ekoturistik rayonning hududlarida ekoturistik infratuzilmalar yaratishning xalqaro talablari darajalaridagi inshoatlari qurilmoqda va mahalliy, halqaro ekoturistlarni qabul qilish boshlangan [12].

Farg'on'a ekoturistik rayonining maydoni butun Farg'on'a vodiysining hududlarini qamrab oladi. Bu vodiy tabiatining betakrorligi, maftunkorligi va turli-tumanligi qadimdan dunyoga ma'lum. Aslida,

insoniyat taraqqiyotining eng cho'qqlariga asos solgan Buyuk ipak yo'lining ochilishi ham ana shu Farg'onamizning tabiatini va uning mehnatkash, ijodkor xalqi bo'lgan. Bu ekoturistik rayonda ekologik turizmni ham va turizmdagi barcha turlarni ham rivojlantirishning juda katta salohiyati va imkoniyati bor. Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yetarli, imkoniyatlari juda katta. Ekoturlarni yilning barcha fasllarida o'tkazish va uni tarixiy, diniy, rekreatsaya turizmlari bilan qo'shib olib borish mumkin.

Tashrif buyurgan sayyoohlар uchun O'zbekistonning ekoturistik tabiiy obyektlarida, jumladan, Katta Chimyon, Zomin, Chotqol, Ko'ksuv, Pskom, Turkiston, Hisor, Zarafshon, Oloy, Qurama, Nurota tog'larida piyoda, trekking turlarini hamda alpinizmni tashkil etishga tabiiy geografik shart-sharoit mavjud. Shuningdek, tog'lardan oqib tushuvchi ko'plab seroston va sharqiroq daryo va soylar (Ugam, Chotqol, Pskom, Ko'ksuv, To'polondaryo, Shohimardon, Sangzor, Zarafshon va h.k.)larda rafting turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda turistik resurslardan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirish va sifatini zamон talablariga moslashtirish borasida tizimli ishlар amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi yurtimizga keluvchi sayyoohlар sonining ortishi, kelajakda O'zbekistonni sayyoohlар ko'p keladigan sevimli maskanga aylantirishga xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ekoturizm deganda nimani tishunasiz?
2. Ekoturizm tasnifi bo'yicha qaysi olimlar o'z fikrlarini bayon qilgan?
3. O'zbekistonda ekoturizm qay darajada rivojlanganligi haqida fikringizga izoh bering?
4. Mamlakatimizda qaysi olimlar O'zbekiston hududini ekoturistik rayonlarga ajratganlar ?
5. Ekoturistik rayonlarning tabiiy geografik o'rni va turistik jihatlariga tavsif bering?

§11. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI TURLARI VA SHAKLLARI

Reja:

1. Turizmni shakllari
2. Turizmni turlari

Tayanch atamalar: *Turizm, rekreatsiya, kurort, ziyorat, tog' turizmi, gastronomik, geoturizm, SPA, ekologik turizm,*

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda turizm sohani rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb qilib, zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'naliishlarni ishlab chiqish, turistlarga bo'lgan xizmatlar doirasini kengaytirish kabi bir qator dolzarb masalalar ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, turizmning juda ko'p shakllari va turlari mayjud.

Sohalar bo'yicha turizm 6 ta turlarga, jumladan, agroturizm, avtoturizm, veloturizm, suv turizmi, ekoturizm kabilarga bo'linadi.

1) *Agroturizm* – mutaxassislar yoki sayyoohlarning qishloq xo'jaligini o'rganish maqsadidagi sayohati. Agrar (*lot. agrarius*) 1) yerga, yerdan foydalanishga, unga egalik qilishga oid; 2) sanoatga nisbatan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi asosiy o'rinda turishini ifodalovchi so'z [69; 109-b.].

2) *Avtoturizm* – sayyoohlarning avtomobillar yordamida biron bir hududni aylanib chiqish maqsadidagi sayohati.

3) *Veloturizm* – velosipedlar yordamida bevosita tabiat qiyinchiliklariga bardosh berib, sayohat davomida barcha hodisalarni kuzatish maqsadidagi sayohati.

4) *Suv turizmi* – bevosita suv havzalarida bo'lish maqsadida sayohatlar uyuşdırish.

5) *Sport turizmi* – sport o'yinlari va sport musobaqalari o'zkaziladigan mintaqaga yoki mamlakatga sportchilar bilan birlgilikda muxlislarning tashrifи demakdir. Ta'kidlash joizki, hozirgi paytda turizmning bu tarmog'i katta daromad manbai sifatida tez o'sib bormoqda. Sport inshootlari va mashg'ulot bazalarida yilning 4 fasli davomida xalqaro musobaqalar va xorijlik sport delegatsiyalarining turli yig'inlarini tashkil qilish. Masalan: Chimyon oromgohida qishki sport turlari bo'yicha, Chorvoq suv omborida yelkanli, Xo'jakentda baydarka va kanoe mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha delegatsiyalarni jalb qilish.

6) *Ekoturizm* – kishilarning tirik organizmlar (jumladan, insonlar) yashaydigan muhitga sayohat qilishlari. Ekoturizm - shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda muayyan tabiiy obyektlarga ekologik maqsadlardagi sayohatlari [42; 6-b.].

Ekoturizm bilan bog'liq betakror go'zal tabiat, landshaftlar, xilmaloy noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiat yodgorliklari mayjud.

Shuningdek, insonlarning ijtimoiy-turmush sharoitlari, tabiat manzaralariga qiziqishlari kabilarni e'tiborga olgan holda turizm ko'p tarmoqli sohadir. Ularning eng asosiy turlarini quyidagilarga ajratish

mumkin: ziyorat, ta'lif, tibbiyot, sog'lomlashtirish va sog'liqni tiklash, tashkillashtirish, shop, kasbiy, sport, diniy, tanishuv, faol, etnik, ekologik, ekspeditsiya, mahalliy (ichki), xalqaro (tashqi), gastronomik, ov, tog'-chang'i, sayr qilish, ekskursiya kabilarga bo'linadi.

Ziyorat turizmi - qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiatni hamda fayzli go'shalari bilan sayyoohlarni o'ziga rom etib kelayotgan sayohatdir. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hududdagi ziyoratgoh, arxeologik va monumental yodgorliklaridan iborat bo'lgan madaniy me'ros obyektlariga, ayniqsa, islam olamida munosib iz qoldirgan shaxslarning qabrlariga – qadamjolarga, jumladan, "Shayx Umar Valiy", "Ikrima ota", "Sevar ota" ziyoratgohlariga xorijlik sayyoohlarning tashrifi.

Kasbiy sayohat – qadimdan rivojlangan bo'lib, hozirgi paytda ham bu sayohat eng an'anaviy va faol hisoblanadi. Kasbiy, jumladan, ilmiy sayyoqlik olimlar, ilm namoyondalari va boshqa kasb egalari tomonidan biron hudud, mintaqaning tarixiy, arxeologik joylarini tekshirish, aholisi, etnografiyasi, madaniyati va san'atini o'rganish hamda ilmiy anjumanlar, hamkorlikdagi ilmiy ishlarni bajarish, malaka oshirish yuzasidan qilgan safarlarining turizm bilan aloqadorligidir.

Sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash turizmi - sayyoohlarning mamlakat ichida yoki xalqaro miqyosida davolanish yoki sog'ligini tiklash maqsadida shifobaxsh mineral suvlari, balchiqlar, ma'danlar,

g'orlar va dorivor o'simliklar mavjud joylarga sayohat uyuştirishidir [39; 93-b.]. Bu singari, sog'lomlashtirish va davolanish maqsadlarida tashrif buyurgan turistlar Chotqol, Oqtosh, Xumsonbuloq singari sanatoriyalarda dam oladi.

Sanatoriya-sog'lomlashtirish rekreatsiya kompleksiga kurort deyiladi. "Kurort" so'zi nemis tilidan olingan bo'lib, u "davolanadigan joy" ma'nosini anglatadi. *Kurort* – tabiiy ahamiyatlari xususiyatlarga ega, turli xil shifobaxsh balchiqlar va ma'danlar, shuningdek, alohida iqlim sharoitlariga (dengiz, daryo, ko'llar, tog' landshaftlari, o'rmonlar va boshqalar) ega shifo maskanidir. Kurort uchun quyidagi omillar talab qilinadi: landshaft va iqlim sharoitiga ega bo'lish, tibbiy balchiq bilan davolash, mineral(ma'dan)larning mavjudligi kabilardir. Tabiiy turistik resurslar orasida tabiiy-davolash ya'ni landshaft, iqlim, suv resurslari kabi omillar alohida o'rin egallaydi. Bu resurslar davolash, sog'lomlashtirish va dam olish turizmni asosini tashkil etadi. Tabiiy davolash resurslari tarkibida tabiiy-iqlimiylar resurslar va gidromineral tabiiy davolash resurslari alohida ahamiyatga ega.

Davolash turizmi, ya'ni kurortologiyada inson organizmiga iqlimning ta'siri masalalari yotadi. Iqlimiylar belgilari quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulyasiyasi kabilar shakllanadi. Bunda, inson uchun qulay harorat, havo namligi, relyef va geologik xususiyatini hisobga olib dam olish zonalarini shakllantirish lozim. Tabiiy gidromineral davolash resurslarida mineral suvlari asosiy resurs hisoblanadi. Mineral suvlari yer osti faol biologik minerallardan tarkib topganligi sababli insonni

davolash xususiyatiga ega. Shuningdek, noyob tabiiy davolash resurslari inson davolanishini ta'minlovchi muhim turistik resurslar hisoblanadi.

Shop turizmi – aksariyat hollarda rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon turistik oqimning arzon moddiy ne'matlarni savdo qilish orqali tijoratni yuritishga qaratilgan turizm turi [80].

Ekskursiya – jamoa bo'lib, biron obyektga (muzey, o'rmon, stadion, qurilish va h.k.) ilmiy yoki o'quv maqsadida, umumiyl madaniy dam olish uchun o'tkaziladigan tadbirlar hisoblanadi.

Sayr qilish – keng tarqalgan, odamlarning o'zi uchun qulay bo'lgan piyoda, ot, tuya, chang'i, velosiped, qayiq va boshqa vositalar yordamida yurib sog'liqni yaxshilash, organizmni chiniqtirish maqsadida uyuştiladigan qisqa muddatli ommabop turizm shaklidir.

O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy geografik o'rni va tarixiy-madaniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, turizmnинг quyidagi turlarini rivojlantirish mumkin:

Faol turizm – turizmnинг bu turi sarguzashtli sayohatlarni ixtiyor etuvchilar uchun mo'ljallangan. Masalan, Chimyon tog'lari va Chorvoq suv ombori, Kalasang sharsharsi kabi manzillar bo'ylab sayyoohlар xohish istagiga ko'ra baliq ovlashlari, tog' bo'ylab sayr qilishlari, qish paytida tog' chang'i o'yinlar bilan shug'ullanishlari mumkin.

Tog' chang'i turizmi – rekreatsion faoliyat ichida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Hozirgi Chimyon, Amirsoy, Beldersoy chang'i kompleksi respublikamizda bu turdag'i rekreatsion faoliyatning yagona maskanidir.

Ekoturizm – ekoturlarda qatnashuvchi sayyoohlarning ijtimoiy holati yoki yoshi, ekologik sayyoohlilikning davomiyligi yoki mavsumiyligi, sayohatchilarning qayerdan kelganligi, maqsadi yoki ekologik ongi va madaniyati kabi o'nlab ko'rsatkichlar asosida tasniflanishi mumkin [85]. Ekoturizmning rivojlanishi sayyoohlarni tabiat qo'yniga kengroq jalg etish bilan birga xushmanzara tabiatimizni, tabiiy landshaftlarni, noyob o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish muammolarini hal qilishga katta hissa qo'shadi. Turistlarning tabiiy-ekoturistik resurslaridan ekoturizmning turli yo'nalishlarida, jumladan, tog' turizmi, trekking, rafting, speleoturizm, alpinizm kabilardan foydalanib uyushtirgan sayohati hisoblanadi.

Etnik turizm - qishda issiqlikni, yozda salqin ob-havoni ta'minlab beradigan qadimiyl o'tovlar ham sayyoohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Aksariyat sayyoohlар mana shunday o'tovlarda yulduzlarni tomosha qilib, dam olish istagini bildiradi. Albatta, tashrif buyuruvchilarga bu borada barcha imkoniyatlar yaratib beriladi. Qariyb, 500-1000 yillik tarixga ega o'tovlar o'zining betakror dizayni va ko'rinishi bilan ko'pchilik sayyoohlар e'tiborini jalg etmoqda. Etnik turizm o'zbek xalqining ijtimoiy hayotiga yanada yaqinroq bo'lish, hunarmandlar ish jarayonini o'rganish, milliy taomlar tayyorlashda ishtiroy etish imkonini beradi.

Tibbiy turizm – turli minerallarni mujassamlashtirgan shifobaxsh ma'danli suvli sanatoriylalar mavjud. Turistlar ulardan nafaqat ichish uchun, balki ma'danli suvli vanna va dush qabul qilish orqali ham davolanishlari mumkin. Binobarin, bu yerda shifobaxsh balchiq bilan

davolash ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, Chotqol sihatgohi, Oqtosh va Xumsonbuloq, Xumson singari 10 dan ortiq sanatoriya va sihatgohlarga davolanuvchilarning tashrif buyurishi turizmning mana shu turiga kiradi.

Ov turizmi –maxsus ov zonalariga turistlarni ov qilishga ishtiyoyqmandligi.

Gastronomik turizm –bir necha asrlardan beri o‘z pazandachilik mакtablariga ega bo‘lgan xushxo‘r taomlar iste’mol qilishni xush ko‘rvuchи turistlarning tashrif buyurishi gastronomik turizmni rivojlanishiga imkon yaratadi.

SPA turlar turizm xizmatlari sohasida juda keng tarqalgan hodisadir. Bu mahsulot sayyoхlar tomonidan yuqori talabga ega. Ushbu turlar odatda sinchkovlik bilan tanlangan klassik tur va SPA protseduralarining barcha turlariga keng qamrovli tashrif buyurishdan iborat. Spa-turni tanlashda siz o‘zingizning xohishingiz va imkoniyatlaringizni hisobga olishingiz kerak. Chunki, ular sizni ortiqcha vazndan qutqarishga yoki chekish kabi yomon odatlardan voz kechishga qodir. Har qanday holatda, SPA-turi siz uchun dam olish so‘zi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ziyorat turizmi. Sharqiy xalqlarda “Ziyorat” tushunchasi “muqaddas qadamjolarga borish”ni anglatadi va uning ikkita asosiy turi mavjud: ziyorat qilish hamda sayyoхlik-o‘rganish yo‘nalishidagi diniy turizm. Hozirgi paytda O‘zbekistonda 7,3 mingdan ziyod madaniy meros obyektlari mavjud.

Madaniy-ma’rifiy turizm. Madaniy turizm – eng ommaviy turizm turi hisoblanadi. Bunday sayohatlarning asosiy maqsadi – sayyoхlik yodgorliklar (tarixiy, me’moriy, san’at yodgorliklar) tabiiy va etnik, xalqning zamonaviy hayoti va hokazolar bilan tanishish.

Ishbilarmonlik turizmi. Zamonaviy turizmning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri. Unda ma’lumotlar almashish, seminarlar tashkil qilish va boshqalar. Professional tajriba to‘plash, yangi hamkorlarni izlash bo‘yicha samarali usul, turli yo‘nalishdagi korporativ tadbirlarni tashkil qilish, korporativ madaniyatni mustahkamlash, seminarlar, konferensiyalar, ko‘rgazmalar, simpoziumlarda ishtiroy etish.

Jip-turlar. O‘zbekistonдagi eng yorin taassurot qoldiruvchi va zamonaviy turizm turlaridan biri Jip-turlar hisoblanadi. Yozning jazirama issiq kunida va izg‘irin sovuq qish kunida, bahor ayyomida va kuzda aynan shu tarzda O‘zbekistonning olis va yetib borish mushkul bo‘lgan joylaridagi manzaralar xushmanzaraligidan bahra olish mumkin. Kishini hayratga soluvchi sahrolar, yo‘llarda uchraydigan qadimiy shaharlar xarobalari, qoyalar, tog‘, daryolari, afsonaviy shaharlar sayohatchilarni bir muhitdan ikkinchi muhitga olib kiradi. Shu tarzda kenglik ko‘lamini his etish mumkin va boshqa chegaralar yo‘qdek, faqat insoniyatga tegishli yagona makon bordek tuyuladi.

Geoturizm. Turizm sanoatining rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri geoturizm hisoblanadi. Birinchilardan bo‘lib uni O‘zbekiston mineral resurslari instituti mutaxassislari rivojlantira boshlagan. Geoturizm, ekologik turizm turlaridan biri sifatida bevosita

millionlab yillar davomida mavjud bo'lgan geologik obyektlarni borib ko'rishni ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda qator noyob geologik obyektlar mavjud bo'lib, Hisor tog'larining janubi-g'arbiy tizmalarida yura davri, bo'r davri, paleogen va neogen yoshidagi (1,8 mln yil) noyob geologik kesmalarini kuzatish mumkin. Ular birin-ketin galereya shaklida joylashgan bo'lib, ularning har biri betakroridir.

Barqaror va aqli turizm. So'nggi paytlarda "turizm" atamasi qulog'imizga "barqaror" va "aqli" sifatlovchilar bilan birga tez-tez chalinmoqda. Barqaror turizm foydani ko'paytirish hamda turizmning qadamjolarga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini kamaytirishni maqsad qilib oladi. Bu odamlar va biznes yurituvchi kompaniyalar majburiyatlarini yaxshiroq anglab olishi bilan xarakterlanadi. Gap rivojlanish maqsadlari, atrof - muhit va iqlim xatarlariga befarq bo'Imaga kishilar va tashkilotlar haqida ketyapti. Bunday turistlar sayohati mamlakat rivojlanishi va uning madaniy merosiga qanchalik hissa bo'lib qo'shilishini baholaydi. Ular yana bunda sayohat iqlim o'zgarishiga va tabiiy muhitni saqlab qolishga qanday ta'sir etishi mumkinligi haqida ham bosh qotiradi.

Aktiv sayohatlar. O'zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me'morchiligi bilan mashhur bo'lib qolmasdan, aktiv sayyoqlik yo'nalishlariga ham ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu yerda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg'unlikka kirisha olishiga imkoniyat beradi. O'zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini: tog', vodiy, cho'l, daryo va ko'lni

uchratish mumkin. Shuning uchun ham turistlar sayyohat chog'ida bir qancha turistik mashg'ulotlar turlaridan foydalanadilar. Jumladan:

✓ **Trekking.** O'zbekistonning turfa xil maftunkor tabiatni G'arbiy Tyanshan tog'i bo'y lab piyoda yurish va tog'ning serqirraligini his qilish imkoniyatini beradi. Ko'plab alpinistlar va chang'ichilar balandligi 3309 metr bo'lgan Chimyon tog'lariga intiladi.

✓ **Otda sayr.** Otda yurish har qanday yoshdag'i va har qanday temperamentdagi odamga zavq bag'ishlaydi. Bu bilan yil bo'y'i betakror iqlim sharoitlarida shug'llanish mumkin.

Otda yurishning eng mashhur yo'nalishlaridan biri bu o'zining flora va faunasini bilan mashhur bo'lgan Ugam-Chotqol davlat milliy tabiat bog'idi. Vodiy dengiz sathidan 1600 metr balandlikda bo'lgan Katta va Kichik Chimyon tog'lari etagida joylashgan dam olish maskani "Chimyon oromgohi" gacha 90 kilometrlik masofani otda bosib o'tishlari mumkin. Bu yerda mahalliy otlar zotidan qurama qorabair, shuningdek, axaltekkotli otlarda sayr qilish mumkin.

Tog' havosining turli xil gullar va o'simliklarning isi bilan to'lgan musaffoligi, egarning g'ichrlashi, ot tuyuoqlarining bir xilda taqillashi va ochiq osmon ostidagi kechki nonushta bir umrga unutilmas taasurotlar qoldiradi.

✓ **Tuyada sayohat.** Olis o'tmisidagi Buyuk Ipak yo'lining harakatini his qilmoqchi bo'lsangiz Qizilqum cho'li bo'y lab sayohatga taklif qilamiz. Qum uyimlari, quyoshning ayovsiz jaziramasi, yerdagi saksovullar va tuya qo'ng'irog'ining ovozi, cheksiz qumliklar turistlarni befarq qoldirmaydi.

Bahor faslining boshida hayot baxsh etuvchi yomg'irlar, cho'lni qizil rangli lolalar va yashil maysalar gilami bilan qoplaydi. Lekin, bu manzara juda qisqa vaqt davom etadi. Sayyoohlar qulay avtomobililarini qoldirib tuyalarga minishadi va egzotik sayohatlarini boshlashadi. Sayyoohlar uchun bu unutilmas taasurotlar qoldiradi. Tasavvur qiling qizil shafaq, yarqiragan qum uyimlari, o'tovdag'i tunlar, egzotik milliy taomlar, falklor tomoshalari va issiq haroratlari iqlim va hokazolar. Bundan yoqimli yana nima bo'lishi mumkin?!

✓ **Xetiski va chang'ida uchish.** Birmuncha iliq ob-havo, butunlay shamolning yo'qligi, 300 kun quyoshning porlab turishi, chang'i uchish mumkin bo'lgan qulayliklar, chang'i poygalari va tezlik bilan uchish turlarini borligi chang'i ishqibozlarini qishki dam olishlari uchun G'arbiy Tyanshanda juda qulay imkoniyatlar mavjud.

So'ngi yillarda "Chimyon-Chorvoq-Beldersoy" oromgohi yangi lekin tezlik bilan rivojlanib borayotgan sport turlari heliski va freeride ishqibozlari uchun mashhur joylardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun dengiz sathidan 1600-2400 m yuqorida joylashgan oktyabr oyidan mayga qadar qor bilan qoplanib turadigan Chimyon tog'lar qiyaliklarida xalqaro tog' chang'isi me'yorlarga mos keladigan tarzda sport ishqibozlari uchun qulayliklar yaratilgan.

✓ **Rafting.** Mahalliy tez oqar daryolarda rafting bilan shug'llanuvchi ishqibozlar O'zbekistonni "Osiyoning Shvetsariysi" deb ham atashadi. Chotqol daryosi bo'ylab rafting bilan shug'llanish bu sportning ishqibozlari uchun sevimli mashg'ulot. Ular yo'nalişning ko'p kunliliği, qiyinchiligi jihatidan, shuningdek, landshaft, to'siqlarning

ko'pligiga qiziqishadi. Bu yo'nalişda 50 dan kam bo'limgan to'siqlar ishqibozlarni kutib oladi. Ulardan eng qiyinlari sharsharalar, tez oquvchi qiyaliklar, sayoz toshli, quyumlar, qoyali oqimlardir.

✓ **Golf.** Qulay iqlim, toza havo, yashil manzara va tabiiy landshaft, doimiy yashil maysalardan, ko'plab daraxtlar va qiyaliklardan, ko'l va sharsharlardan iborat. Bular o'yinga ya'nada tabiiy to'siqlar yaratib qiziqrli tus beradi.

Turistlarni quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

- faoliyatiga qarab;
- turmush tarziga qarab;
- an'anaviy ravishda sayyoohlar orasida ularning *dam olish faoliyati* oltita guruh mavjud:

Dam olishni sevuvchilar. Uning vakillari kundalik stressdan xalos bo'lish va tinch muhitda *quyosh, qum va dengizda* dam olish uchun ta'tilga chiqishadi.

Kursandchilikni sevuvchilar. Bu juda sarguzasht sayyoohlar turi bo'lib, ular o'z ta'tillarida turli xil zavqlarni izlash bilan band bo'lib, dunyoviy muhitni afzal ko'radilar.

Ochiq havoda ishqibozlar. Bu sayyoohlar tabiatni yaxshi ko'radilar va tanalarida faol yuk yaratadilar. Ular o'Ichovli harakatni afzal ko'radilar va ochiq havoda qolishadi. Ularning ta'tillari davolanish bilan birlashtirilishi mumkin.

Sport ixlosmandlari. Faol sayyoohlardan farqli o'laroq, sportchilar bor e'tiborini musobaqalarga qaratadi. Sport ular uchun juda muhim -

ularning sevimli mashg'ulotlari. Ular jismoniy faoliyatdan qo'rqlaydilar.

Bilim olish, o'qish maqsadida dam oluvchilar. Ushbu turdag'i turistlar o'zlarining bilim darajasini oshirishga, yangi narsalarni o'rganishga qiziqishadi. Ushbu turda uchta kichik guruh ajratiladi: P₁ P₂ va P₃.

❖ P₁ tipdag'i sayyoohlар yo'riqnomalarda tasvirlangan joylarga tashrif buyurishadi.

❖ P₂ tip taniqli diqqatga sazovor joylarga emas, balki ularning atmosferasini his qila oladigan joylarni topishga e'tibor beradi. Uning uchun his-tuyg'ular va kayfiyat birinchi o'rinda turadi.

❖ P₃ tipdag'i turistlar madaniy va ijtimoiy-ilmiy qiziqishlarga ega, ular tabiatga juda xush ko'rishadi.

Sarguzashtlarni sevuvchilar. Faqat bir nechta hayajon izlovchilar yolg'iz sayohatga chiqishadi va bunda o'zlarini jiddiy xavf ostiga qo'yishadi. Sarguzashtchilar turiga ma'lum darajadagi xavf bilan g'ayrioddiy tajribalarni izlayotgan sayyoohlarga tegishli bo'lishi mumkin. Ular uchun xavf o'zini sinab ko'rish imkoniyatidir.

Turistlarni toifalarga qarab guruhlarga ajratish *ularning turmush tarzidan* turlarni tanlashga chuqurroq yondashishni taklif qiladi. Chunki, u insonni va uning hatti-harakatlarini alohida emas balki uning hayotiy pozitsiyasi, turli narsalarga munosabati va istaklari bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi.

Turistlar guruhlarini tanlashda, ularning turmush tarziga qarab, alohida mezon emas, balki insonning o'z hayotiga umumiy munosabati

asos bo'ladi. Buni qilish juda qiyin, chunki, jamiyatdagi tendentsiyalar va iqtisodiy vaziyat vaqt o'tishi bilan juda kuchli o'zgarishlarga duch keladi.

Turistlarning turmush tarziga qarab, to'rt guruhga bo'linadi:

- zavqni yaxshi ko'radiganlar;
- moyil;
- oilaviy;
- faqat dam oluvchilar.

Ushbu tasnif bilan ajralib turadigan guruhlar doimo o'zgarib turishini va ular orasidagi chegaralar juda noaniq ekanligini yodda tutish kerak.

Xursandchilikni sevuvchilar. Ushbu guruh vakillari dam olish sifatiga juda yuqori talablar qo'yadilar. Ular uchun sayohat o'zini namoyon qilish usulidir. Dam olishdan ular zavqlanishni, o'zlarining zaif tomonlariga yo'l qo'yishni yoki o'zlariga sport yukini berishni xohlashadi.

Zamonaviy sayyoohlар. Ushbu guruhga mansub sayyoohlар uchun dam olish o'zini shaxs sifatida topish va namoyon qilish imkoniyatidir. Bular yuqori talablarga ega bo'lgan dam oluvchilardir. Ammo "hayotdan zavqlanish" dan farqli o'laroq, ular hashamatli sharoitlarga muhtoj emaslar. Ular tabiat bilan birlikni, jimlikni va psixologik yengillik imkoniyatini izlaydilar. Ular atrof-muhit muammolaridan xabardor, tashrif buyurishni rejalashtirayotgan mintaqaning siyosati va madaniyati bilan qiziqadi.

Oilaviy sayyoohlар. Bu guruhga faqat bolali oilalar kiradi. Oilaviy sayyoohlар o‘z ta’tillarini oilasi, do’stlari va qarindoshlari bilan o’tkazishni yaxshi ko’radilar. Ular tinch va qulay muhitda dam olishadi, raqobatbardosh narxlarda xizmatlarni sotib oladi va bezovtalanishni yoqtirmaydilar. Ko‘pincha ular o‘zlariga g‘amxo‘rlik qilishadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugun biz turizmni XX-asrning eng ommaviy hodisasi, hayotimizning barcha jabhalariga haqiqatan ham kirib boradigan, dunyo va landshaftni o‘zgartiradigan zamonamizning eng yorqin hodisalaridan biri sifatida qabul qilamiz. Turizm iqtisodiyotning eng muhim omillaridan biriga aylandi, shuning uchun biz buni nafaqat sayohat yoki dam olish sifatida ko‘ramiz. Bu tushuncha ancha kengroq va shundaydir “*Sayohatda odamga hamroh bo’lgan munosabatlarning umumiyligi va aloqalar va hodisalarning birligi*”dir.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Turizmning qanday turlari mavjud?
2. Turizmning turlariga misollar keltiring?
3. Bilim olish, o‘qish maqsadida dam oluvchi turistlar qanday tiplarga bo‘linadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н. Узбекистан природа, население. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. -Т., 2009.
3. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda.-Т., “Abu Ali Ibn Sino”, 2002.
4. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекской ССР. Труды ТашГУ. Нов. Серия. вып. 231. Географические науки, кн. 27.–Т., 1964.
5. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Зокиров Ш.С. Агроклиматические условия селского хозяйства Узбекистана. - Т.: Мехнат, 1975.
6. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg’ulotlar. Toshkent, 2005.
7. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiysi. –Т., O‘qituvchi, 1996.
8. G‘ulomov P.N. O‘zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari. -Т.: O‘qituvchi, 1990.
9. Hasanov I., G‘ulomov P.N. O‘zbekiston tabiiy geografiysi (1-qism). O‘quv qo‘llanma.-Т.: O‘qituvchi, 2007.
10. Hasanov I., G‘ulomov P.N., Qayumov A. O‘zbekiston tabiiy geografiysi (2-qism). O‘quv qo‘llanma.-Т.: Universitet, 2010.
11. Mo‘minov A. va boshqalar. O‘zbekiston tabiiy geografiysi. - Т.: O‘qituvchi, 1984.

12. Nig'matov A. va N.T. Shomuratovalar "Ekoturizm asoslari". T.: 2001.
13. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. Darslik. T.: "Universitet", 2014.
14. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. -T.: "Mumtoz so'z", 2010.;
15. Soliyev A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T., 2003.
16. Soliyev A.S., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy muammolari. -T., 1999.
17. Soliyev A.S., Mallaboyev T. Iqtisodiy va sotsial geografiya kursida ayrim qonuniyatlarni o'rghanish metodikasi. -T., 1995.
18. Soliyev A.S., Mahamadaliev R.Y. Iqtisodiy geografiya asoslari.
19. Zokirov Sh.S., Ibragimova R.A. Orol tabiiy geografik okrugi. - T.: Mumtoz soz, 2015.
20. Zokirov Sh.S. Landshaftshunoslik asoslari. - T.: Universitet, 1994.
21. Sh.G. Shomurodova, Sh.M. Sharipov "Chorvoq erkin turistik zonasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik asoslari". Monografiya. Toshkent "Universitet". 2022.


Axborot manbalari

1. www.bearingpoint.uz
2. www.Ziyo.net
3. www.stat.uz
4. Turizm.rasaba.uz

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	3
§ 1 - Fanning obyekti va predmeti. O'zbekistonning geografik o'rni, tabiatining o'ziga xos xususiyatlari	5
§ 2 - O'zbekistonning geologik tuzilishi, seysmikligi va tektonikasi. Relyefining asosiy xususiyatlari	14
§ 3 - O'zbekiston iqlimi va uni shakllantiruvchi omillar.....	45
§ 4 - O'zbekistonning yer osti va yer osti suvlari. Ulardan turizmda foydalananish.....	58
§ 5 - O'zbekistonning tuproq, o'simlik va hayvonot olami.....	75
§ 6 - O'zbekistonda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan turizmda foydalananish.....	102
§ 7 - O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari	113
§ 8 - O'zbekiston respublikasi xo'jaligining umumiyl tavsifi	135
§ 9 - O'zbekistonning turistik obyektlari	147
§ 10 - O'zbekistonning ekoturistik salohiyati.....	169
§ 11 - O'zbekistonda turizmni turlari va shakllari	188
Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.....	203

-1412.11.84-



SHOMURODOVA SHAHNOZA G'AYRATOVNA

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYASI

(*O'quv qo'llanma*)

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/₁₆. "Times new roman" garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 13. Adadi 100
dona. Buyurtma № 1746224

Yangi chirchiq prints MCHJda chop
etildi.



A standard one-dimensional barcode is positioned vertically on the right side of the book cover. It consists of vertical black lines of varying widths on a white background.

9 789910 941467